

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
TARIX KAFEDRASI**



**XALQARO MUNOSABATLAR VA  
DIPLOMATIYA TARIXI**

fanidan

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**  
(5120300 – Tarix yo‘nalishi talabalari uchun)

<b>Bilim sohasi:</b>	100000 – Gumanitar soha
<b>Ta’lim sohasi:</b>	120000 – Gumanitar fanlar
<b>Ta’lim yo‘nalishi:</b>	5120300– Tarix (jahon mamlakatlari bo‘yicha)

O'quv uslubiy majmua namunaviy o'quv dasturi (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2017-yil 24-avgustda tasdiqlangan va 2020-yil 29-avgustda БД-5120300-3.05-raqami bilan ro'yxatga olingan) asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

R. T. Jo'rayev – NamDU, Tarix kafedrası professori, s.f.d.

**Taqrizchilar:**

M. Alixonov – NamMTI, Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası dotsenti, t.f.n.

Z. Madrahimov – NamDU, Tarix kafedrası dotsenti, t.f.n.

O'quv uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashining 2023-yil "27"- avgustdagi "1"- son yig'ilishida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

**MUNDARIJA:**

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Betlar</b>
1	Ma'ruza matni	- B. 4-43
2	Seminar mashg'ulotlari ro'yxati	- B.44-51
3	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari	- B.52-57
4	Glossariy	- B. 58
5	Ilovalar: <i>Namunaviy o'quv dasturi</i> <i>Ischi fan dasturi</i> <i>Testlar</i> <i>Yakuniy nazorat savollari</i> <i>Baholash mezoni</i> <i>Normativ hujjatlar</i>	-B. 59-109 -B.59-75 -B.76-84 -B.85-97 -B.98 -B.99-102 -B.103-109

## **QADIMGI SHARQDA XALQARO MUNOSABATLAR VA DIPLOMATIYA.**

### **Reja:**

1. **Qadimgi Mesopotamiya (Ikki daryo oralig'i).**
2. **Qadimgi Misr.**
3. **Ossuriya davlati (mil. avv. I ming yillik ).**
4. **Qadimgi Hindiston.**
5. **Qadimgi Xitoy.**

**Qadimgi Mesopotamiya (Ikki daryo oralig'i).** Miloddan avvalgi III - II ming yilliklardagi Mesopotamiyaning tashqi siyosiy tarixi, birinchi galda, Mesopotamiya ichkarisida mavjud bo'lgan davlatlar o'rtasidagi munosabatlar tarixidir. Yozuv oldi davrining oxiri va ilk sulolalar davrining boshida Mesopotamiyada yigirmaga yaqin "nom" turdagi shahar - davlatlar mavjud edi. Mesopotamiyada gegemonlik qilishga qaratilgan da'volar dastavval "Kish podshosi" unvoniga ega bo'lish bilan bog'liq bo'lgandi. "Kish lugali" unvoni podsho - gegemonning an'anaviy unvoni bo'lib qoldi.

Mesopotamiyaning tashqi aloqalari asosan sharq tomon qaratilgan edi. Miloddan avvalgi IV ming. yillikda Mesopotamiya Eronning yassi tog'lik hududlari bilan jadal savdo aloqalariga ega bo'lgan.

Miloddan avvalgi III ming yillikda Mesopotamiyaga keltirilgan mahsulotlarning aksariyat qismi aynan savdo orqali ta'minlanardi. Bu esa tabiiyki, savdo almashuvining yo'lga qo'yilgan tartibini nazarda tutadi. Qolaversa, savdo karvonlarining erkin qatnovini ta'minlovchi o'zaro kafolatlar xam mavjud bo'lishi kerak edi.

Kish hukmdori Menbaragessi ( mil. avv. 2600 y. ) ishtrokidagi bizga ma'lum bo'lgan harbiy to'qnashuvlardan eng qadimgisi Elam bilan bog'liq edi. Elam keyingi asrlar davomida Mesopotamiya davlatlarining eng xavfli dushmani bo'lib keldi. Mesopotamiya aynan shu paytda to'xtovsiz harbiy to'qnashuvlar davriga kirib borgandi. Kish hukmdorlaridan tashqari, Ura, Uruka, Lagash hukmdorlari ham o'zlarini "Kish podshosi" deb nomlay boshladilar. Akkad sulolalariga tegishli bo'lgan shohlar keyinchalik ushbu unvonni o'zlarining unvonlari qatoriga kiritdilar. Ikki yirik "nom"lar - Lagesh va Umma o'rtasida ikki asrdan ko'proq vaqt davomida cho'zilgan to'qnashuvni, hamda "Kish podshosi" Mesilimning ushbu nizoda o'ynagan rolini yoritib beradigan bir qator matnlar bizgacha yetib kelgan. Bu yerdagi voqyealar "ikki darajada" ro'y berdi: Enlil (Shumerning oliy xudosi) Ningersu (Lagashga xomiylik qilgan xudo) va Shara (Umma shahriga homiylik qilgan xudo) o'rtasida chegara o'rnatdi, ya'ni ular o'rtasidagi nizoni hal etdi. "Nom" lar o'rtasidagi to'qnashuv shunday qilib, ushbu "nom"- larning ilohlari o'rtasidagi nizo sifatida ifodalanadi va xudolar orasida hal etiladi. Demak, bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi kelishuvlardan birida zamonaviy xalqaro - huquqiy amaliyotning ko'plab elementlarini ko'rishimiz mumkin: aniq belgilangan yerlarga egalik qilish da'volari negizida yuzaga kelgan nizo, xakamlar sudi, janjalda ishtrok etgan birinchi tomonning talash bo'lib turgan yerlar ustidan suverenitetining tan olinishi, xamda shu paytning o'zida ikkinchi tomonga ushbu yerlarni ijaraga topshirilishi. To'qnashuv, gox pasayib, gox avj olib, Umma xukmdori Lugal zagesi Lagashni xal qiluvchi mag'lubiyatga uchratmaguncha (tax. Mil. avv. 2312 y.) davom etdi. Lugalzagesi xech qanday istilochilik maqsadlarga ega bo'lmaganligiga inontirardi va faqat "adolatni" tiklaganligini ta'kidlaydi.

Shu tarzda Mesopotamiya davlatlari o'rtasidagi eng qadimgi va yaxshi xujjatlashtirilgan to'qnashuvlardan biri yakunlandi. Bo'lib o'tgan voqyealarning ko'plari, hamda to'qnashuv haqidagi rasmiy xabarlarining frazeologiyasi (barqaror so'z birikmalari va iboralar) uch - to'rt ming yildan so'ng ro'y bergan jarayonlarni hayron qolarli darajada eslatadi.

Mamlakatni birlashtirishga qaratilgan tendensiya haqida "Mamlakat lugali" deb nomlangan yangi unvonning paydo bo'lishi dalolat beradi. Miloddan avvalgi III - II ming yilliklarda markazdan qochirma kuchlar markazga intilma kuchlardan qudratliroq ediki, buning oqibatida siyosiy tarqoqlik holati o'sha davrdagi Mesopotamiya uchun xos edi.

**Qadimgi Misr.** Qadimgi Sharq tarixida xalqaro aloqalar va munosabatlarga oid bir qancha xujjatlar bizgacha saqlanib qolgan. Turli xil halqaro munosabatlarga oid xatlar, shartnomalar, qaydnomalar o'sha davrdagi Qadimgi sharq podsholiklari o'rtasidagi aloqalardan dalolat beradi.

Eramizgacha bo'lgan 3 ming yillikdanoq Misr podsholari boshqa davlatlar bilan aloqalar o'rnatishga harakat qilishgan. V podsholik davrida eramizgacha 25 asrda misrliklar Punt davlatlariga (Qizil dengiz Janubiy qirg'oqlari) elchilar yuborishgan.

Eramizgacha bo'lgan 2 ming yilliklarda Misrliklar qo'shni davlatlar bilan aloqalarni yanada kuchaytirganlar. Podsho boshqa davlatlarga yuborish uchun elchilik va choparlik lavozimlarin joriy etgan.

Misrda 18 sulola davridagi (er. 2 ming yillik o'rtalari) xalqaro aloqalar ayniqsa Qadimgi Sharq tarixida muxim o'rin tutadi. Misrliklar Mitanni, Vavilon, Ossuriya, Xett davlatlari, Krit podsholigi va Egey dengizidagi orollar bilan, suriyaliklar va falastinliklar bilan aloqalarni kuchaytirganlar. Misrda bu davrda halqaro munosabatlarga oid xujjatlarni saqlash uchun davlat tomonidan arxiv tashkil qilingan.

Qadimgi Sharq halqaro munosabatlariga oid yodgorliklar ichida eng qiziqarlisi Al-amarna yozishmalari va Misr fir'avni Ramzes II ning Xett podshosi Xattusilem III bilan tuzgan shartnomasi bo'lib, u eramizgacha 1296 yilda imzolangan. Amarnada (Nilning o'ng soxili, o'rta Misrda) aloxida arxiv tashkil qilingan bo'lib, unda XVIII sulola fir'avnlari Amenxotep III va uning o'g'li Amenxotep IV ning xalqaro munosabatlariga oid hujjatlar saqlangan. (Eramizgacha 2 ming yillik o'rtalari XV-XIV asrlar).

Al-amarna arxivining ko'p qismini fir'avnga qaram bo'lgan suriyaliklar va falastinlik shaxzodalarning xatlari egallaydi. Xatlarni mazmunini turli fikr almashishlar, tabriklar, nikoh xaqidagi kelishuvlar, harbiy yordam xaqidagi iltimoslar, tilla sovg'alar va boshqalar tashkil qiladi. Shu bilan birga xatlarda karvonlar jo'natish haqidagi ma'lumotlar ham bor.

Al-amarna arxivida Vavilonlik va Mittaniyalik podsholarning Amengxotep III va Amengxotep IV ga yozgan xatlari ham saqlanib qolgan. Eramizgacha XIV asrda Xett podsholigi kuchayib ketadi. Unga qarshi Misr, Vavilon va Mittani bir ittifoqqa birlashganlar.

Eramizgacha bo'lgan XIV-XIII asrlar Xett va Misr o'rtasidagi urushlarga to'la davr bo'lgan. Urush ikki qarama-qarshi davlatni urushi to'xtatishga majbur qilgan. Ossuriyaliklarni tazyiqi bilan ular eramizgacha 1296 yili kelishuv shartnomasini tuzganlar. XIX sulola vakili Ramzes II va Xett podshosi Xattusilem III tenglik shartnomasini imzolashgan. Bu shartnoma uchta manbada, ya'ni-ikkita Misr va bir xetlar manbalarida saqlanib qolgan. Faqat shartnomaning o'zigina saqlanib qolmay u xaqdagi fikrlar, dala munosabatlar ham saqlanib qolgan.

«Ajoyib shartnoma»dan keyin ham xalqaro munosabatlarga oid yozishmalar elchilar orqali davom ettirilgan. Yozishmalar faqat podsholar o'rtasidagina emas, balki malikalar o'rtasida ham bo'lgan.

**Ossuriya davlati (mil. avv. I ming yillik ).** Ossuriya va unga qaram bo'lgan davlatlar o'rtasida shartnomalar og'ishmay bajarilishi lozim edi. Shartnomani tuzish marosimi sexr -jodu va taomillariga oid amallar, xudolar qasam ichishlar bilan birgalikda oldida amalga oshirilardi va ular muqaddas ittifoq kuchiga ega bo'lardi. Shartnomani buzish eng tabarruk qoidalaridan xatlab o'tishni anglatardi. Bu esa shafqatsizlarcha jazolanardi.

Lekin shartnoma bo'yicha kichik hamkorlar uchun man etilgan ishlarga ossuriyaliklarning o'zlari bemalol, hych qanday vijdon azoblarisiz qo'l urishardi.

Turli davlatlar bilan do'stona munosabatlarni qadrlagan Ossuriya podsholari sulolaviy nikoxlar va hukmron xonadonlar bilan qarindoshchilik aloqalarini o'rnatishga ma'lum darajada ahamiyat berishgan. Ossuriya davlati hukmronligi davrida garovga olish amaliyoti tinchlik munosabatlarini kafolatlash, imzolangan shartnomalarga rioya qilish, Ossuriya hokimiyatiga bo'ysunish elementlarining biri sifatida qo'llanardi.

Tobe podsholar tomonidan o'zlarining o'g'illarini, sodiqligi kafolati sifatida, Ossuriya hukmdorlari saroyiga yuborishi garovga olish amaliyotining eng tarqalgan shakli edi.

Ossuriya podsholari odatda boshqa davlatlardan kelgan shoh nasliga oid qochoqlarni jon deb qabul qilishardi va saroyda ushlab turishardi. Ossuriya podsholari ushbu insonlardan o'zlarining siyosiy o'yinlari va diplomatiyasida foydalanishdan manfaatdor edilar. Buni o'zga davlatlar hukmdorlari yaxshi tushunardilar.

Miloddan avvalgi I ming yillikda muzokaralar olib borish va elchiliklar jo'natish davlatlararo munosabatlarda odatiy hol edi. Tinchlik muzokaralarini olib borish Ashshurbanapal davrida keng quloqchilik bo'yicha yoydi. Zero Ossuriya davlati maksimal darajada kengayib ketdi, endi esa uning oldida zabt etilgan hududlarni tobe holatida saqlab qolish vazifasi turgandi. Buning uchun esa nafaqat harbiy kuchlar, balki diplomatiyaning barcha usullari va nayranglari zarur edi. Ashshurbanapal iloji bor joyda masalani tinch vositalar bilan hal etishga intilgan, chunki harbiy ustunlik har doim ham samarali bo'lmagan va kuchlarni haddan tashqari safarbar qilishni talab qilgan. Ossuriya hukmdorlari o'zlari olib borgan muzokaralar natijasi bo'yicha jiddiy ikkinlanishlar xis qilgan paytlari ham bo'lgan. Ashshurbanapalning Shamashshumukin qo'zg'oloni qatnashchilari bilan olib borgan muzokaralari to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanib qolingan.

Ossuriya hukmdorlarining diplomatik harakatlari g'oyat muvaffaqiyatli bo'lib chiqdi. Ular Shamashshumukin qo'zg'oloni ishtirokchilarining safini buzishga va mag'lubiyatga uchratishga yordam berdi.

Muzokaralar olib boradigan tomonlarning bir - biriga murojaat qilish tartibi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish lozim. "Birodar" va "birodar" (yoki "og'a" va "ini"), "ota" va "o'g'il" - ushbu so'zlar davlatlar - hamkorlar o'rtasidagi munosabatlarning turli nuanslarini (sezilar - sezilmas farqlarni, tafovutlarni) ifoda etardi. Ossuriyaning boshqa mamlakatlarning ustidan hukmronligi harbiy kuch vositasida o'rnatilgan davrda "hukmdor" (yoki "sulton") - "qul" formulasi ko'proq ishlatilardi. Bunday tartibni buzishga urinishlar yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin edi.

Ish yuritish Ossuriya davlatida ikki tilda olib borilardi: akkad tilining ossuriya shevasida va aramey tilida. Diplomatik tusdagi hujjatlar orasida nomalar, xatlar, "muhrli xujjatlar", "uzuk osti" hujjatlar, oddiy "hujjatlar" ("tablichkalar" - sopol parchalari), maxfiy maktublar, ma'lumotlar va boshqalar tilga olinadi. Muzokaralarda turli darajadagi omilkor va e'tiborli kishilar qatnashgan.

Davlat nomidan muzokaralarni podsholar, shaxzodalar, taxt vorislari, podsho amaldorlari: abarakku, rabshaku va boshqa, elchilar, choparlar ("mar shipri") olib borishgan, sarkardalar va axoli istiqomat qiladigan joylarning boshliqlari ham uchraydi. Ossuriya razvedka (josuslik) xizmatining juda katta va ko'p tarmoqli apparatiga ega edi. Razvedka (josuslik) masalalari bilan odatda shaxzoda - taxt vorisi shug'ullanardi.

Ashshurbanapal ham, taxt vorisi deb e'lon qilingandan so'ng razvedka (josuslik) masalalari bilan faol shug'ullandi. Ashshurbanapalning podsholik davrida esa razvedka (josuslik) Ossuriya tashqi siyosatining extiyojlarini qondirish yo'lida g'ayrat bilan ishlardi. Ossuriya diplomatiyasining xarakatlari hamkor - davlatlarning ichki ziddiyatlarini, ushbu davlatlar tarkibidagi turli viloyatlarning va ayniqsa qabilalarning separatizmini, ularning boshqa davlatlar bilan qarama - qarshiligini xisobga olgan holda amalga oshirilardi. Bularning barchasi haqidagi ma'lumotlarni Ossuriya ma'muriyatiga, shu jumladan diplomatiya xizmatiga, razvedka (josuslik) yetkazib berardi.

**Qadimgi Hindiston.** Manbalarining o'ziga xos hususiyatga ega ekanligi Qadimgi Hindiston tarixining xar qanday yo'sinlarini o'rganishdagi eng asosiy qiyinchiliklardan biridir.

Biror - bir arxiv hujjati bizgacha yetib kelmagan, biror - bir qadimgi hind yilnomasi ma'lum emas, yozuvlar esa kam sonli va xar doim ham yetarli darajada ma'lumotlarga ega emas.

Qadimgi hind tashqi siyosat nazariyasi bo'yicha asosiy manba Kautilyaning "Artxashastra"-si hisoblanadi va hozirda uning sanasi milodiy birinchi asrlar bilan belgilanadi. Ushbu asarda davlat tuzilishi, ma'muriy - xo'jalik boshqaruvi, sud ishlari, harbiy va diplomatik san'at bo'yicha ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari nitishastra turidagi asarlar ham borki, ularning asosiy mazmuni podsholarga axloqiy nasihatlar, shuningdek ichki va tashqi siyosatiga

oid maslahatlardan iborat. Qadimgi Hindistonda davlatlararo munosabatlar nazariyasining asosida mandala (ya'ni "doira", odatda "davlat doirasi" ma'nosida izoxlanadi) konsepsiyasi yotadi.

"Istilolar qilishga intilgan" hukmdor uchun o'z raqiblarini bo'ysundirish faqatgina eng birinchi maqsad deb xisoblangan. Agar unga erishsa, keyingi mo'ljal - bu "o'rtadagi" va "betaraf" xukmdorlarning yerlaridir. Ushbu istilolarning natijasida dunyo ustidan hukmronlik o'rnatilishi lozim edi.

Mandala - bu tashqi siyosatga oid muayyan harakatlar va chora - tadbirlar majmuasi sifatida tasavvur qilish mumkin - ki, u yanada yirik davlatga aylanib ketish tendensiyasiga egadir. Buyuk davlatning (va oxiri kelib "jahon" saltanatining) barpo etilishi siyosatning oxirgi maqsadi deb hisoblangan.

Dushman ustidan g'olib chiqishning eng muhim vositasi sifatida u va uning ittifoqchilari orasida adovatni keltirib chiqarish, raqib ittifoqchilari bilan separat (boshqalar bilan kelishilmagan, bir tomonlama) shartnomalar imzolash yoki ularga to'g'ridan - to'g'ri harbiy yordam ko'rsatish, ya'ni dushman mandalasini parchalab tashlash tan olingan. Mandalaning yana bir ahamiyatli xususiyatini ta'kidlash kerak: podshoning ittifoqchilari, taxtda o'tirib va hokimiyatga ega bo'lib, o'z ittifoqchilarini ham saqlab qolishgan.

Beqaror va chidamsiz siyosiy birlashmalar tashkil etilgan - ki, ular o'z yahlitligi va muhtoriyatini saqlab qolgan mayda davlatlardan iborat bo'lgan. Mandala tushunchasi bilan bir qatorda qadimgi xind siyosiy nazariyasida "yetti xadli (a'zoli) davlat" konsepsiyasi muhim o'rin egallaydi. Uning asosiy elementlari quyidagilardan iborat: podshoning o'zi, vazirlar, shahar - qal'alar, qishloq yerlari, xazina, qo'shin va ittifoqchilar. "Artxashastra"- da tez - tez tilga olinadigan "qo'shinlar" yoki "ittifoqchilar"ning tavsifida alohida to'xtalish kerak, chunki "davlatlararo munosabatlarga" oid ko'plab maslaxatlarning katta qismi aynan ular bilan bog'liqdir. "Artxashastra" ga binoan, ittifoqchining asosiy hususiyati - "foyda keltirish". Itoatkorlik - uning eng muhim fazilatidir. Siyosat sa'natini egallagan podsho, birinchi galda shartnomalarning murakkab tizimiga tayanib, yakka hokimlikka intilishi lozim. Har xil tinchlik bitimlari siyosatining eng birinchi va muhim vositasi sifatida nazarda tutilgan.

"Artxashastra" tuzuvchisi, qasam ichish marosimida qisqacha to'xtalib, qulayroq usul sifatida tan olingan garovga olishning muhokamasiga asosiy e'tiborini qaratgan. "Tinchlik" davlatlarning uzoq va doimo birga (bir joyda va bir vaqtda) mavjud bo'lishini anglatmasdi. Tinchlikka erishish faqatgina kuchliroq dushman ustidan g'olib chiqishning eng yaxshi vositasi sifatida tavsiya etilardi. Murosa - madora munosabati bilan "siyosatning to'rt usuli" ham tilga olinadi. Bular - "o'gitlar, pand - nasihatlar", "sovg'alar", "nizo urug'ini sepmoq" va "kuch ishlatish". Ushbu usullardan birin - ketin foydalanish mumkin. Murosaga kelish ayniqsa dushmanga nisbatan ochiqdan - ochiq kuch bilan qarshilik qilishga o'ziga bo'lgan zaif podsholarga tavsiya etiladi.

Diplomatik tushdagi turli xil shartnomalarning ta'rifiga "Artxashastra"da katta e'tibor qaratilgan. Ular orasida teng huquqli va tengsizlari, foydali va foydasizlari, shartlari mavjud va shartlari yo'q shartnomalar alohida belgilab ko'rsatilgan.

Tashqi siyosatning an'anaviy usullari orasida ahamiyati jihatdan ikkinchi o'rinda urush turadi. Urush barcha usullardan foydalanib bo'lgandan keyingina, oxirgi vosita sifatida ko'rilgan. Podshoga g'alabalarga jangsiz erishish tavsiya qilingan, chunki tinch yo'l bilan bo'ysundirish kamroq kuchni va harajatni talab qiladi.

**Qadimgi Xitoy.** Eramizgacha bo'lgan 2 ming yillik boshlarida Xuanxe daryosi o'rta qismida dastlabki davlatlar paydo bo'ldi. Keyinchalik ular yagona podsholikni tashkil qildi. 1 ming yillikda yagona qadimgi Xitoy davlati bir necha yirik va kichik podsholiklarga bo'linib ketadi. Ular eramizgacha bo'lgan 8 asrgacha mustaqil bo'ladilar. Ular ba'zan do'stona aloqalar o'rnatib ittifoq tuzganlar, ba'zan mustaqil ish yuritganlar. Qadimgi Xitoy davlatlari ko'p marta xun qabilalari tajovuziga duch keldilar. O'zlarini ximoya qilish uchun ular yagona ittifoqqa birlashdilar. Eramizgacha VI asr o'rtalarida qadimgi Xitoyda ular o'zaro munosabatlarni yaxshilash va xarbiy yordam to'g'risida kelishib oladilar.

Eramizgacha 3 asr o'rtalarida Sin podsholigi asoschisi Chjen Xitoy markaziy qismidagi Xuanxe va Yanszi daryosi atroflarini o'z davlatiga birlashtirdi.

Chjen Sin Shi-Xuandi xukmdori sifatida qo'shni qabila va xalqlarga ekspeditsiyalar tashkil qilgan.

Xan sulolasi davrida (Eramizgacha 206 eramizning 220 yillar) Xitoy markazlashgan davlatga aylandi. Bu asrlarda Xitoydagi ichki va tashqi siyosatga oid masalalarni aloxida qayd qilingan. Xitoy elchilarini rahbarlari olib borgan elchilik faoliyati xaqida yozma xisobot berganlar. Ular xaqidagi ma'lumotlar tarixiy manbalarda saqlanib qolgan.

Podsho Udi kuchli tashqi siyosat yurgizgan (Eramizgacha 140-87 yillar) Eramizgacha 183 yili u xarbiy qo'mondon Chjan Szyan boshchiligida elchilarni uzoq «g'arbga» jo'natadi. Elchi safari davomida O'rta Osiyo va Eron davlatlarini davlat tuzilishi, xarbiy kuchi, shaxarlari savdosi xaqida ma'lumotlar to'plangan. Uzoq safardan Chjan Szyan o'z vataniga eramizgacha bo'lgan 126 yili qaytadi.

Xitoy elchilari janubiy davlatlarni ham Xitoy davlatiga qaramligini tan oldirishga muvaffaq bo'lganlar. Xitoy elchilarini ko'p urinishlari tufayli eramizga bo'lgan III yili Nan-Nyue davlati qarshiliksiz Xitoyga bo'ysunganligini tan oladi.

Eramizga I asrlarda Xitoy elchilari Parfiya podsholari bilan elchilik aloqalari olib borishgan, «Buyuk ipak yo'li» orqali karvonlar almashishgan.

Xitoylik xarbiy qo'mondon va mashhur diplomat Ban Chao xitoyda xalqaro munosabatlar soxasida muxim ishlarni amalga oshirgan va u eramizning I asr oxirlarida xunlarni Xitoy chegaralaridan uloqtirib tashlashga muvaffaq bo'lgan. Eramizning 90 yillarida Ban Chao Xitoy imperatoriga O'rta Osiyoni ayrim viloyatlarini bo'ysundirishga muvaffaq bo'lgan va u Marvgacha borib yetgan. Ban Chao shu bilan birga G'arbiy Rim imperiyasi (Ta Sin - G'arbiy Sin) bilan ham xalqaro aloqalar o'rnatishga xarakat qilgan, lekin u amalga oshmagan.

## QADIMGI YUNONISTONDA XALQARO MUNOSABATLAR VA DIPLOMATIYA.

### Reja:

1. Prokseniya va amfiktoniya.
2. Simmaxiya.
3. Elchilar va elchilik.
4. Grek-fors urushi.
5. Makedoniyaning yuksalishi.

**Prokseniya va amfiktoniya.** Qadimgi Gretsiyada xalqaro aloqalarning va xalqaro huquqning eng qadimiy shakli «**prokseniya**», ya'ni mehmondo'stlik edi. Prokseniya ayrim shaxslar, qabilalar, qavmlar va butun bir davlatlar o'rtasida ham amalda edi. Proksenlar shu amal bilan shug'ullanuvchilar vositasida diplomatik muzokaralar olib borilar edi; va shaharga tashrif buyurgan elchixonalar vakillari avvalan o'zining prokseniga murojaat qilar edi. Prokseniya instituti, keyinchalik bo'lib o'tadigan Qadimgi Gretsiya dunyosidagi barcha xalqaro aloqalarning asosiga aylandi.

Qadimgi Grek dunyosi zamirida asosan xalqaro instituti yotadi.

Xuddi shunday xalqaro institutlardan biri bu «**amfiktoniya**»dir. Ular diniy birlashmalar, qandaydir muqaddas ziyoratgoh atrofida tuzilgan. O'ta muhim va ardog'da bo'lgan «xudolar» qarorgohlari qoshida paydo bo'lgan diniy ittifoqlar shunday nomlanar edi. Bu diniy birlashmalarga urug'lar, atrofda yashagan urug' munosabatlari kirgan. Bayram arafalarida barcha qarindosh-urug'lar, qabilalar to'planib, ular o'rtasida urushlar to'xtatib qo'yilgan, ya'ni «ilohiy tinchlik» deb e'lon qilingan. Shuning uchun ham Amfiktoniya instituti diniy siyosiy



xarakterga ega. Qadimgi Gretsiyada amfiktoniya turlicha bo'lgan: eng qadimgi va rivojlangani Delfiya-Fermopiliya amfiktoniyasidir. U ikki xil amfiktoniyadan mavjud bo'lgan:

1. Delfiya-Appollon ibodatxonasi.
2. Fermopiliya-Dimetri ibodatxonasi.

Delfiya-Fermopiliya amfiktoniyasiga 12 ta urug'lar kirgan. Delfiya-Fermopiliya amfiktoniyasining asosiy maqsadi-yer va yer osti boyliklari hamda Appalon ibodatxonasini qo'riqlashdan iborat edi. Shuning bilan birga amfiktoniyada xalqaro qoidalarga barcha qatnashuvchilarni rioya etishga undagan.

**Simmaxiya.** Gretsiyada xalqaro aloqalarning yana bir ko'rinishini «Simmaxiya» harbiy siyosiy birlashmalar deb yuritilgan. Ulardan eng tanilgani Lakedemoniya va Afina simmaxiyasidir.

Lakedemoniya simmaxiyasi eramizdan avvalgi VI asrda Peloponessada tashkil topgan. Unga Sparta boshchilik qilgan. Boshqa yirik birlashmalar Afina va Dellos sinmaxiyalari yirik Afina qudratiga aylantirilgan. Eramizdan avvalgi V asr oxirlarida Pelopones urushida ya'ni 431-404 eramizdan avvalgi yillarda sodir bo'ldi. Afina sinmaxiyasi 404 eramizdan avvalgi yilda barbod bo'ldi. (Afina va pelopones urushida). Biroq eramizdan avvalgi 378 yilda afinaliklar o'zlarining atrofiga ikkinchi dengiz birlashmasini birlashtirdilar. Bu birlashma 355 yilgacha faoliyat ko'rsatdi. Eramizdan avvalgi IV asrda yana bir qator birlashmalar tashkil topdi. Bular Biotisk shaharlar birlashmasi, Fiva shahri boshchiligida va Etaliya qishloq jamoalari birlashmasi edi. Oldingi simmaxiyalardan farqi shundaki, bular bitta birlashma rahbarligida bo'lmasdan umumiy hukumat tuzishgan. Turli birlashmalar va polislar muammolarini eramizdan avvalgi XV-VIII asrgacha maxsus elchilar orqali hal etilgan. Elchixonaning a'zolarining soni turlicha bo'lgan. Elchilarga 2 taxtachadan iborat (Diplomat) bo'lgan maxsus yo'llanma berilgan. «Diplomatiya» so'zi shundan kelib chiqqan.

**Grek-fors urushi.** Qadimiy Grek tarixining muhim saxifalaridan biri grek – fors urushlari edi. Miloddan avvalgi VI asrning oxirlarida keskin ijtimoiy – siyosiy jarayonlar bilan kuzatilgan grek polislarining shaklanishi yakun topdi. Lekin, miloddan avvalgi VI asrning oxiriga kelib grek polislariga qo'shni Axmoniyalar buyuk davlati tomonidan xatar paydo bo'ldi. Kichik Osiyoda joylashgan grek shaharlarini va Egey dengizining sharqiy qismidagi orollarni qo'lga kiritib, Eron hukmdorlari Bolqon Gretsiyasi polislarini ham zabt etish maqsadida edilar.

Grek polisleri aholisi zich, yuqori madaniyatli va sanoati hamda tijorati rivojlangan shaharlarga aylangan edi, shuning uchun ham fors xazinasiga katta foyda olib kelishi mumkin edi. Bunga qo'shimcha, strategik ma'noda Bolqon Gretsiyasini qo'lga olish juda muhim edi, chunki buyuk podshoh qo'lga Sharqiy O'rtaer dengizini topshirar edi. Bolqon polisleri uchun fors xavfi ularning o'zlari uchun o'ta xavfli edi. Grek–fors urushlari jarayonida grek polislarining taqdiri xal bo'lar edi.

Miloddan avvalgi 500-449 yillardagi grek – fors urushlari jahon tarixida eng davomli harbiy to'qnashuvlaridan bo'ldi. Grek – fors urushidagi harbiy harakatlar uzluksiz olib borilmadi, ular bir qator harbiy kompaniyalarga bo'linib ketdi. Nihoyatda kuchli dushman ustidan qozongan g'alaba Qadimiy greklarning ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining hamma jabhalarini rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdi, va miloddan avvalgi V – IV asrlarda qadimiy Grek sivilizatsiyasining gullab – yashnashiga vosita rolini o'ynadi. Miloddan avvalgi IV asr Makedoniyaning yuksalishi bilan belgilanadi. Makedoniyaning yuksalishida, uning grek olamida eng kuchli davlatga aylanishida mashhur siyosatchi, diplomat, makedon podshosi Filipp II (359-336 y m.a.) nihoyatda katta rol o'ynadi.

**Makedoniyaning yuksalishi.** Filipp II bir qator reformalarni amalga oshirib Makedoniyaning nafaqat grek dunyosidagi eng kuchli davlatga, balki fors davlatining raqibiga ham aylantirdi. Filipp II ning diplomatik va harbiy amallari natijasida Gretsiyada Makedoniya gegemoniyasi o'rnatildi; uning yuridik tasdiqi miloddan avvalgi 337 yili Korinfda bo'lib o'tgan umumgrek kongressida o'z tasdiqini topdi. Korinf kongressining eng muhim qarorlaridan biri – bu Fors monarxiyasiga qarshi muqaddas urushni e'lon qilish edi. 336 yili Filipp II Kichik Osiyoga o'n minglik armiyani yubordi, ammo ko'p vaqt o'tmay u saroy amaldorlarining biri

tomonidan o'ldirildi. Makedoniya podshosi deb uning o'g'li Aleksandr e'lon qilindi va u ayni vaqtda Ellin ittifoqining gegemoni ham bo'ldi. Aleksandr Makedonskiy nomi va faoliyati Fors monarxiyasining barbod bo'lishi va buyuk davlatni barpo etilishi bilan bog'liq va aynan Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlari bilan ellinizm nomini olgan grek tarixining yangi davri boshlanadi.

## **QADIMGI RIMDA XALQARO MUNOSABATLAR VA DIPLOMATIYA.**

### **Reja:**

- 1. Rimda xalqaro munosabatlar.**
- 2. Diplomatik organlar.**
- 3. Ichki diplomatiya.**
- 4. Imperiya davrida diplomatiya (I-V asrlar)**
- 5. Rim Karfagen raqobati.**

Qadimgi vaqtdan buyon Rimda hukmronlik huquqi mavjud bo'lgan. Fetsiialarning kengashi bor edi. Ular boshqarib turar edilar. Bahs va kelishmovchiliklarni qabilalar o'rtasidagi va qabila ittifoqi o'rtasidagi hych qanday muhim tashqi siyosat boshlanmas va tuganmas edi. Fetsiollarni ko'rsatmasi, ularning doirasiga kirdilar. O'zaro aloqalarni, hamkorlikni himoya qilish, urush e'lon qilish va tinchlik tuzish.

Rim qabilasining vakillari javobgar shaxslar va alohida fuqarolar boshqa kabilar bilan birgalikdagi rekuperatorlar munosabatlariga ham taalluqli bo'ladilar. Bu alohida hakamlar saylovi 3 dan 5 gacha bahslarni ko'rib chiqib, aniqlik kiritib, o'zaro qarama-qarshiliklarni rimliklar o'rtasidagi mavjud bo'lgan va qo'shni shaharlarni qabilalari vakillari bo'lgan. Eramizdan oldingi II-I asrlarning oxirida rekuperatorov hakami ko'rib chiqdi, ariza va shikoyatlarni Rim provitsiyaaholisini o'sha joyda yashovchilarni harakatiga xalqaro aloqalar rivojlanishi bilan Rimda xalqaro huquq normalari paydo bo'la boshladi. Ular fetsiialar huquqida aks etdi. Iqtisodiy hayotni murakkablasha borishi bilan eski fjarolik huquqi bilan bir qatorda rimlik fuqarolar o'rtasida keng tarqalgan «fuqarolik huquqi» yuzaga keladi, «xalqlarning huquqi»-bu huquq rimliklar bilan chet elliklar o'rtasidagi aloqalarni boshqarib turadi.

Tashqi aloqalar organlarini tuzilishi va tashkil topishi, Rimni siyosiy tuzumini tuzilishida aks etadi.

Rimda klassik davrning xalq yig'inlari. Urash e'lon qilish va tinchlik muzokaralari tuzish siyosiy rahbari bo'lib, tashqi aloqani Senat saylar edi.

Qadimgi davrda Rim tarixida elchi yuborish ma'suliyati shohlarga qarashli bo'lar edi, elchilar esa fetsiialar bo'lar edilar. Jumhuriyat davrida bu huquq Senatga o'tdi. Elchilar yangilik yaratuvchilar notiqlar nomini oldilar. Elchining shaxsi urf-odatlar va qonunlar bilan himoya qilinadi.

Elchilar maqsdi har xil: urush e'lon qilish va tinchlik muzokaralarini tuzish, shartnomalar tuzish, ichki nizolarni hal qilish va diniy bahslarni yechish.

Senatga nafaqat elchi jo'natish va elchi qabulini huquqi ham qaragan. Rimga kelgan elchilar, chet ellarni boshliqlari ikkita toifaga bo'linadilar: dushman davlatlar elchilari va do'st davlatlar elchilari.

O'ziga xos fazilatlaridan biri eski tuzumning xalqaro aloqalari ichki diplomatiya tashkil qilgan. O'zining oliy rivojlanishini iski diplomatiya Rim imperiyasi davrida erishdi. Rim imperiyasi davrida uncha aniq bo'lmagan aloqalarni markaz bilan alohida qismlari o'rtasida iloji bo'lmagan edi. O'rnatishni aniq chegarani uning ichki va tashqi siyosati bilan va ichki va tashqi diplomatiya bo'lgan.

Rimni davlatning ikkita nuqtai naziridan qaraydigan bo'lsak, har yili hatto kichkina birliklar ham mustaqil siyosiy bo'lib qurilar edi. Davlat davlatning ichida. Buning birdan-bir ijrochisi mustaqillikning elchi huquqi hisoblanar edi. Sanab o'tilgan tashkilotlarning har biri provinsiya ittifoqlar korporatsiya elchini markazga jo'natishlari mumkin.

Bu negizda xalqlarning huquqi rivojlandi.

Imperiya davriga kelib, davlatni boshqarish imperator qo‘liga o‘tdi. Senat mavjud bo‘ldi, lekin davlatni boshqaruvchi organidan jumhuriyat davrida bo‘lgan maslahat kengashiga aylandi.

Tashqi siyosat va diplomatiya ham o‘zgardi. Imperator davrida hamma tashqi siyosiy savollar imperator boshqaruviga kirdi.

Diplomatiya imperatorlarning amaldorlari funksiyasiga aylandi. Imperiya davridan so‘ng ular saylanmasdilar, faqatgina tavsiya etilar edilar. Klavdiya vaqtidan boshlab elchilik ishini shaxsiy kanselariya olib bordi, butun imperiyani olib adminstratik organi chet el davlatlari elchilarini qonunchilikdagi aloqasi o‘zgarmadi. Imperiya davrida respublika davrida qanday bo‘lsa, shunday qoldi.

Qadimgi Rimni xalqaro aloqalar munosabati tarixida eng dramatik vaqti Karfagen bilan hamkorlik hisoblanar edi.

Eramizdan oldingi 264 yilgacha Rim va Kafagen tinchlik aloqasida edi. Savdo va dengizda suzishlar alohida shartnomalar bilan boshqarilar edi. Eramizdan oldingi 280 yildan shartnoma nafaqat savdo aloqalari Rimni va Karfagenni, lekin siyosiy aloqaga ham tegishli. Rim Appeni yarim orolini zabt etish vaqtida yopiq bo‘lgandi. Karfagen Shimoliy Afrikani bosib olish bilan ularning manfaatlari to‘g‘ri kelmay qoldi. Lekin rimliklarning Janubiy italiyaga kirishi ahvolni o‘zgartirdi. Rim Respublikasi kuchli davlatga aylandi.

Boshqarishda nafaqat, Appanen yarim orolini, lekin qo‘shni territoriyalar ham birinchi navbatda O‘rta yer dengizi qisman boy Sitsiliyada. Bular Rimning Karfagen bilan to‘qnashuviga olib keldi.

Ikki buyuk davlatning jangi uzoq davom etdi. Bu urush «Puni urushi» deb nomlandi. Karfagen butunlay tor-mor etildi.

Puni urushidagi g‘alabalari katta xalqaro ahamiyatga ega. /aprbiy O‘rta yer dengizi hukmroni bo‘lib, Rim o‘z davrining kuchli davlatiga aylandi. Rim kashf etgan ko‘plab yangi territoriyalarni Appenin yarim orolining chegaralarida Sitsiliya, Sardiniya, Korsika, Iberiya bu Karfagen hukmronligida bo‘lgan. Rimliklar uni Ispaniya deb atashdi.

## **O‘RTA ASRLARDA XALQARO MUNOSABATLAR VA DIPLOMATIYA.**

### **Reja:**

1. Vizantiya va varvarlar davlati
2. Ilk o‘rta asrlarda xalqaro munosabatlar va diplomatiya
3. Feodal tarqoqlik davrida xalqaro munosabatlar va diplomatiya
4. So‘nggi o‘rta asrlarda xalqaro munosabatlar va diplomatiya

**Vizantiya va varvarlar davlati.** IV asr oxirida german qabilalari Rim imperiyasi chegaralaridan o‘tib birin ketin xududlarni bosib oldilar. Bu davrda imperiya ichki tartibsizliklarga inqirozga yuz tutgan edi.

Ichki tartibsizliklar va inqiroz uzoq davom etgan g‘arbiy imperiya o‘zini xududlarini yo‘qotayotgan edi. Bu davrda Sharqiy imperiya varvarlarga qattiq qarshilik ko‘rsatayotgan edi. V asr boshlarida vestgotlar Bolqon podsholigini va Sharqiy Rim imperiyasini ag‘darib tashlab, ularni talon-taroj qildi. Ispaniyada janubiy va g‘arbiy Galliya podsholigi o‘rnatildi. Vandallar, svevlar, burgundlar, franklar birin ketin imperiya hududlarini egallaganlar.

IV-V asrlarda ko‘chmanchi xunlar uzoq Shimoliy Xitoy chegaralaridan kelib, Volga bo‘ylaridan tortib to Reyn daryosigacha bo‘lgan hududlarda o‘z hukmronliklarini o‘rnatganlar.

Sharqqa o‘xshab /arbiy imperiya ham nafaqat varvarlar bilan jang qilgan, balki ular biron zaruriy aloqalar va huquqiy muzokaralar olib borishni qo‘lga kiritishgan edi. Bu varvarlar bilan ikkala Rim imperiyasining halqaro aloqalari hisoblanar edi.

Varvarlar /arbiy imperiya viloyatlarida tezlik bilan yangicha tartibga tushib olishgan. Halqaro kelishmovchilik tufayli Varvarlar podsholigining aniq chegaralari o‘rnatilmagan. Tortishuv muzokaralar qurol yo‘li bilan emas, faqat kelishuv yo‘li bilan amalga oshirildi. Varvar qirolliklari tashkil qilinishi bilan ularda o‘zlarining diplomatiyalari vujudga keldi.

Varvar qirolliklariga Sharqiy Rim imperiyasining diplomatik xizmati namuna bo'ldi. O'zining qadimgi Rim urf-odatlarini saqlab qolgan Vizantiya diplomatiyasi butun o'rta asrlar diplomatiyasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Vizantiya dinining prinsiplari singari bo'lganidek tashqi usullari ham Yustinian I (527-565) davrida yuksak cho'qqiga chiqdi, Sharqiy Rim imperiyasi qudratli davlatga aylandi.

Yustinian ayyor diplomat edi. O'z hududini uzoq /arbgga kengaytirilgan harbiy safarlar bilan uyg'unlashtirardi. Vizantiya diplomatiyasining asosiy vazifasi Varvarlarni qo'rqitishdan ko'ra imperiyaga xizmat qildirishga qaratilgan edi. Konstantinopolda ularni kuchayishiga yo'l qo'ymaslik, bir-biriga gij-gijlash va o'zaro urushlar vositasida kuchsizlantirishga harakat qilingan. Yustinian diplomatiyasi qo'shnilar bilan shaxmat donachalari kabi aloqa qilish bilan ajratib turardi. U ulkan bir sistemasini o'zaro gij-gijlab tashladi.

Bundan tashqari boshqa davlatlarni ichki ishlariga harbiy aralashuv Yustinian sistemasining bir vositasi edi. Bu siyosat vandallar va ostgotlar bilan urushda yorqin ifodasini topdi.

Diplomatiya savdoni rivojlanishiga xizmat qildi. O'z navbatida Vizantiya savdo aloqalarining kengayishidan diplomatiyani kuchli qurol sifatida foydalanildi.

Xristianlikni kengayishi xam Vizantiya imperatorlarini muxim diplomatik qurollaridan hisoblanar edi. Shunda diplomatik g'alabalardan biri ruslarning xristianlikni qabul qilishidir.. Xristianlikka o'tgan davlatlarga Vizantiya ta'sir o'tkazganligi yaqqol ko'rinadi.

III. Din ahli Vizantiyaga karam bo'lgan varvar davlatlarda o'z bilimlari bo'yicha katta rol o'ynagan. Tashqi ishlar bo'yicha ministr boshqaruvi katta shtatlarga ega bo'lgan. Har xil tillar bo'yicha tarjimoni bo'lgan. Elchilarga murakkab tartib o'rnatilgan. Konstantinopol saroyida elchilikning alohida qonuniga amal qilingan.

Elchi podshoning vakili bo'lib, uni muzokaralar olib borish uchun vakolati bo'lgan. Bu qonun buzilsa qattiq jazo qo'llanilgan. Ba'zi holatlarda podsho vakiliga o'z xoxishi bo'yicha muzokara olib borish ruxsat beriladi. Vizantiyada ba'zan elchilarga alohida oliy yorliqlar berilgan.

Vizantiya elchilari begona mamlakatlarda alohida ahloq-qoidalarga amal qilishgan. Elchi sersalom, saxiy, begona saroydagi narsa-buyumlarni maqtash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Asosan muomalaga katta e'tibor berishi kerak. U davlatni ichki ishlariga rasmiy jihatdan aralashmagan, lekin ko'pchilik hollarda aralashib ketgan. Elchilar bilan kelishilgan shartnoma imperiya tomonidan tasdiqlangandan keyingina haqiqiy hisoblangan.

Varvar qirollari elchilarining Vizantiya urf-odatlariga yot bo'lgan ba'zi bir belgilari ko'rinib turardi. Varvar mansabdorlari orasida kelishuvlarining yozma qismlarini mustaqil olib boruvchi bilimli kishilar yo'q edi. Shu sababli vizantiyaliklarda ham, uchragan qirol elchixonalarida odatda diniy kishilar ishtirok etishgan.

**Ilk o'rta asrlarda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.** Rim diplomatiyasining qoidalarini varvar qirolliklari orasida nafaqat Vizantiya tomonidan, eski imperiya idoralarining qoida va odatlarini o'zida saqlab qolgan papa kuriyalari tomonidan ham tarqatildi. Papa diplomatiyasining ta'siri o'rta asrlar siyosiy tarixida eng kuchli ko'rinishlari bilan ifodalandi.

G'arbiy Rim imperiyasining qulashi va Italiyada varvarlar xokimiyatini o'rnatilishi bilan papalikning xalqaro holati keskin murakkablashdi. Shuning uchun papalar Vizantiya imperatoriga juda katta umidlar bog'lashdi. Konstantinopolda papalar o'z yonlarida **APOKRISIARLAR** deb nomlangan doimiy rezidentlarni ushlab turar edilar. Faqat cherkov ishlaridan tashqari apkorisarlarga Vizantiya saroyidagi siyosiy xolatni kuzatish vazifasi ham topshirilar edi.

Italiyani Yustinian tomonidan zabt etilishi va langobardlar tomonidan Appenin yarim orolining aksaryat qismini bosib olinishidan keyin, papalar rasman Vizantiya imperatoriga buysungan, lekin amalda mustaqil Rim hukmdorlariga aylanib qoldilar. Vizantiyaning ta'siri asta – sekin zaiflashib bordi. Lekin, papalar g'arbda Vizantiyaga va langobardlarga qarshi o'zlariga suyanchiq deb bilgan Frank davlati kuchayib bordi. VII asrdagi arab tajavvuzlaridan keyin ojizlangan Vizantiya, asta – sekin Vizantiyadan mustaqillikka erishgan va mustaqil

hukmdorlarga aylangan Rim papalariga qarshilik ko'rsataolmas edi. Langobardlardan muxofazalanish uchun papalar VIII asrning o'rtalarida Italiyaga kirib borib, langobardlarni tor – mor qilgan franklarga murojaat qildilar.

754 yilgi shartnomasiga ko'ra langobard qiroli nafaqat Rimni o'z xolida qoldirish, balki papaga Ravenna, Rimni, Urbino va boshqa shaharlarni berish majburiyatini olgan edi. Lekin, langobard qirolini o'z majburiyatlarini bajarishga majbur qilish uchun yana bir harbiy ekspeditsiya zarur bo'ldi. Shunday qilib, papalarning dunyoviy davlati Papa viloyati tashkil topdi. Frank qiroli va papa o'rtasida elchixonalar bilan doimiy ayriboshlash, hamda vizantiya va boshqa saroylarga o'zaro elchilarni yuborish bilan ifodalangan yaqin aloqa o'rnatildi. Barcha ushbu elchixonalarda papa elchilari bo'ysundirilgan rol o'ynar edi. Papalar tashqi aloqalarda to'la mustaqil emas edilar va frank hukmdorlaridan «maslahat» so'rashga majbur edilar. Papaning qaramligi ayniqsa Buyuk Karl (768-814) davrida kuchaydi.

Buyuk Karl imperiyasi Yevropada eng yirik kuchga aylandi. Karl diplomatiyasida Vizantiya bilan aloqalari alohida o'rin egallaydi. Vizantiya qiyinchiliklar bilan arablar, bolgarlar va avarlardan o'zini muxofazasi va ta'siri zaiflashgan bir paytda G'arbiy imperiyaning obruyi keskin o'sdi, Karl Sharqda qator imtiyozlarga ega bo'ldi. Avval, Vizantiya imperatori qaramog'ida bo'lgan Falastindagi «Muqaddas joylar» endi Karl vasiylikiga o'tdi. Karlning toj kiyish marosimida Ierusalim patriarxi Ierusalim (Quddus) bayroqlari va kalitlari bilan birgalikda «parvardigor qabrining» kalitini ham in'om etdi.

Karl huzuriga, uning poytaxti Axenga Daniya, Angliya va boshqa mamlakatlardan elchilar kela boshladi. Asturiya qiroli Alfons II, shotlandiya qirollari ham o'z elchilarini yubordilar. Ularning hammasi G'arb imperatori bilan ittifoq tuzish va do'stlik o'rnatish xoxishida edilar. Buyuk Karl Bag'dod xalifasi Xarun – ar – Rashid bilan ham elchilar ayrboshladi. Asr davomida, VII asrning 3-nchi yillaridan boshlab, arablarning buyuk mamlakati barpo etildi. Arab xalifaligining tashqi aloqalari Xitoydan to eng Uzoq G'arbgacha qadar tarqalgan edi. Ummaviylar qarorgohi – Damashq dunyoning eng yirik poytaxtlaridan biri edi. Madaniyati, boshqaruv usullari, hamda Ummaviylar davlati tashqi munosabatlarining qoidalari Vizantiyaning va qisman Eronning juda kuchli an'anaari ta'siri ostida shakllandi.

Ummaviylarning cheksiz xalifaligi VIII asr o'rtalaridan boshlab yemirila boshlandi. Arab mamlakatlari o'rtasida Abbosiylarning Eron an'analari ta'sirida bo'lgan Bag'dod xalifaligi birinchi o'rinni egalladi. Abbosiylar xalifaligi davlat boshqaruvining murakkab tizimida tashqi aloqalarni, maktublar vazirligi – «davon – ar - rasail» nazorat qilar edi. Ushbu idorada qog'ozlar bilan ishlash va marosimlar o'tkazish borasida ayrim tajribalar to'plangan edi. Keyinroq yozilgan manbalar XI asrga oid esdaliklar va ilmiy asarlar Abbosiylar diplomatiyasiga va xalqaro munosabatlariga baho berishda foydalansa bo'ladi. 19 yil davomida xizmat qilgan Abul – Fazl Beyxaqining (995-1086 yillar) esdaliklari X asrda hozirgi Afg'oniston va Shimoliy G'arbiy Hindiston hududida tashkil topgan kuchli musulmon davlatining hukmdorlari g'aznaviy sultonlarining «devon-ar-rasail»ida ayniqsa qiziqish uyg'otdi.

XI asrning boshqa bir manb'ai – Saljuqiylar davlatining mashhur vaziri Nizom al – Mulkning «siyosatnomasi» hisoblanadi. Ushbu asarda elchixonalarga mansub maxsus boblar mavjud. Umuman aytganda, Vizantiya diplomatiyasining an'analari va unga yaqin bo'lgan Eron diplomatiyasi a'lo darajada rivojlandi. IX asrda Dnestrning old qismida va unga yaqin hududlarda qudratli qadimiy Rus davlati shaklladi. IX asrning oxiriga kelib, urushlar natijasida qadimiy Rus davlati shunday qudratga ega bo'ldi-ki, hamsoya xalqlarning u bilan hisoblashmasdan ilojiy yo'q edi.

Qadimiy Rus davlati murakkab xalqaro munosabatlarga juda oldin kirib bordi. Rus janubda Vizantiya va dunay oldi slavyanlarining Bolgar davlati, Sharqda esa Xazar Kaganati va Volga Bolgariyasi hamda Shimolda Skandinaviya bilan aloqa qilar edi. Skandinaviya bilan Kiev knyazlarini qadimiy sulolalik munosabatlari bog'lab turar edi. Knyazlar u yerdan ko'ngilli harbiy kuchlarni olar edi. Xazarlar orqali Markaziy Osiyo mamlakatlariga ruslar qullar va mo'yna sotadigan tijorat yo'li o'tar edi. Sharqiy slavyanlarning tarixiga, ularning Vizantiya bilan bo'lgan hamsoyaligi juda katta ta'sir ko'rsatdi. Qadimiy Rus uchun Vizantiya knyazlar va

drujinachilar muyna va qullar bilan savdo qiladigan va o'z navbatida u yerdan zebu – ziynatlar xarid qiladigan bozor rovida xizmat qilardi. Sargrada butparastlik Rus Vizantiyaning yuksak madaniyati bilan tanishar edi. Sargradning boyligi va xashamligi tajavvuzkorlar uchun o'ziga jalb qiluvchi rolini o'ynar edi. Vizantiyaning qoradengiz soxillari va Konstantinopolning o'ziga qilgan ruslarning bir qator tajavvuzlari IX asrdan XI asrgacha davom etadi.

Vizantiya, kuchli Rusni o'zining siyosiy tizimiga jalb qilishga urinib ko'rdi: bu bilan u birinchidan Rusdan chiqadigan xavfni zaiflashtirish bo'lsa, ikkinchidan Rusni o'z manfaatlarini amalga oshirishda jalb qilish maqsadi yotardi. Rusni cho'qintirilishiga Vizantiya imperatorlari va siyosatchilari tomonidan uni imperiyaga nisbatan qaramligini e'tirof etuvchi faktor sifatida qaraldi. Lekin, Vizantiyaning Rusga nisbatan bu siyosati muvaffaqiyat olib kelmadi. Kiev knyazlari har doim o'zlarining harakatida erkin edilar.

Cho'qintirilishidan keyin Rusning xalqaro aloqalari e'tiborli darajada kengaydi va mustahkamlandi. Qadimiy Rus davlati, nafaqat Vizantiya bilan, balki Yevropaning katolik mamlakatlari bilan ham teng huquqli ishtirokchi siftda aloqalar o'rnatdi. Rusning tashqi siyosiy aloqalari qo'shni mamlakatlar bilan cheklanmadi (Vengriya, Chexiya, Bolgariya, Skandinaviya davlatlari va h), bu aloqalar Germaniya, Fransiya va boshqa davlatlar bilan bog'landi.

**Feodal tarqoqlik davrida xalqaro munosabatlar va diplomatiya.** Tajovvuzlar asosida paydo bo'lgan varvarlar davlatlari mustaxkam emas edi. Buyuk Karl davlatining umri birinchi imperatorning umridan uzoq bo'lmadi. Karl hayotining oxirgi yillarida davlatning barbod bo'lyotgani sezilardi. Imperiyani barbod bo'lishi ayniqsa uning o'g'li Lyudovik (814-840) davrida tezlashib ketdi. Lyudovik imperiyani o'g'illariga bo'lib berdi – o'ziga oliy hukmdorlik vazifasini qoldirdi. O'g'illar otasiga qarshi urush boshladilar. Uning vafotidan keyin (840) esa o'zaro urush olib bordilar. Karl va Lyudovik nemisli Strasburgda imperatorlik tojiga ega bo'lgan katta akalari Lotarga qarshi shartnoma imzoladilar. Strasburg kelishuvi lotin va grek tillarida emas, balki nemis va fransuz tillarida tuzilgan birinchi diplomatik xujjat edi. Mag'lub bo'lgan Lotar chekindi va 843 yili imperiyani uch og'a – ini o'rtasida taqsimlash to'g'risida shartnoma imzolandi. Rasman imperiyani saqlanib qolishi tan olingan edi, aniqrog'i Lotar zimmasiga yuklangan imperatorlik mansab saqlanib qolishi tan olishgan edi, imperatorlik mansab saqlanib qoldi. Lekin imperiya hududi uch qismga bo'lingan edi. Imperiyaning g'arbiy yerlari – «g'arbiy franklar qirolligi», keyinchalik «Fransiya deb nomlangan – Karlga o'tdi; sharqiy qismi – «sharqiy franklar qirolligi» - keyinchalik Germaniya deb nomlangan Lyudovikga o'tdi; Lotarga esa Karl va Lyudovik yerlarining o'rtasi Reyndan to Ronagacha va Italiya o'tdi.

Buyuk Karl imperiyasi bir qator mustaqil davlatlarga bo'linib ketdi – Fransiya, Germaniya, Italiya, Burgundiya yoki Arleatga. Lekin bular faqat nomi bilan davlat edi. IX – XI asrlarda G'arbiy Yevropaning barcha hududida siyosiy tarqoqlik xukm surar edi. Va ayrim feodal yerlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishda kuch xal qiluvchi dalilga aylanar edi. Ushbu xolatda, davlat va xususiy yerlar o'rtasidagi, jamoa va xususiy huquqda hamda ichki va xalqaro munosabatlar o'rtasidagi chegara sezilarli darajada emas edi.

Soliq yig'ish, boshqaruv va sud huquqiga hamda, harbiy kuchga ega bo'lgan har bir kuchli senor o'zini mustaqil hukmdor deb xis qilardi, xoxlagani bilan jang olib borib xoxlagani bilan, sulx tuzish imkoniga ega edi. Xalqaro munosabatlar tushunchasi ham Yevropadagi feodal tarqoqlik xolatida nisbiy tushuncha edi. Aksariyat yerlarda xususiy urushlar huquqi o'rnatilgan edi. Bundan kelib chiqib xususiy diplomatiya ham mavjud edi. Masalan, ikki feodal senorlar mustaqil davlatlar boshliqlari sifatida muzokara olib borar edilar. Yirik senorlar o'zlarini mustaqil deb bilar edilar va shu sifatda xorijiy va o'zlarini qirollari bilan aloqalar o'rnatish boshladilar.

Feodal anarxiyasidan (tartibsizlik) jaf o'chayotgan cherkov ma'lum bir tartib o'rnatishga urindi. Ayrim mamlakatlarda qirollik xokimiyatlari tomonidan xususiy urushlarga chek qo'yish harakatlari bo'lsa – da, ular butun o'rta asrlar jarayonida davom etib turdi. Feodal Yevropada shaxarlarni tarixiy maydonga chiqishi ayrim xollarda xokimiyat tarqoqligini yana murakkablashtirardi. Siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritayotgan shaharlar, barcha atributlaridan to xususiy urush huquqigacha jamoa senorlariga aylanar edilar. Feodal tarqoqlik jarayoniga frank

monarxiyasini barbod bo'lishini to'xtatmoqchi bo'lgan cherkov ham kirib qoldi. IX asrning o'rtalarida boshlangan g'arbiy va sharqiy cherkovlar o'rtasidagi ayrilish 1054 yilda cherkovlarning bo'linishiga olib kelid: katolik va pravaslaviaga.

**So'nggi o'rta asrlarda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.** XI – XV asr davomida Yevropada xalqaro munosabatlarning ma'lum bir tizimi vujudga keldi; asta – sekin ayrim diplomatik an'analar va andozalar shakllana boshladi. Lekin, bu davrning xalqaro aloqalari doimiy xususiyatga ega emas edi: doimiy faoliyat ko'rsatadigan elchilar va vakolatxonalar yo'q edi, xalqaro huquq shakllanmagan edi. Ushbu davr xalqaro munosabatlarining rivojlanishiga bir necha faktorlar ta'sir ko'rsatdi: ichki va tashqi savdoni kengaytirish, shaharlarni paydo bo'lishi bilan bog'liq Yevropaning iqtisodiy o'sishi, yirik mamlaktalar hukmdorlarining boshqa davlatlarni qaram qilib olish xoxishi, elatlarning shakllanish jarayoni va davlatlarni barpo etilishi va boshqalar.

XI – XIII asrlarda Yevropa va Sharq mamlakatlari o'rtasida ko'p tarmoqli aloqalar kengaydi va mustaqkamlandi. Bunga salib yurishlari, Genuya, Piza va Venetsiyadagi Italiyaning dengiz respublikalarining savdo faoliyati hamda Vizantiyaning vositachi roli sabab bo'ldi. XIII asrning 40-nchi yillarida Markaziy Yevropa mo'g'il istilosi xavfi ostida qoldi. Mo'g'ul – tatar otryadlari Adriatikagacha yetib bordi. Salib yurishlari va ichki ziddiyatlar bilan zaiflashgan G'arbiy Yevropa kuchli xavf oldida muxofazasiz edi. Lekin, mo'g'ullar Ruslarning qarshilik ko'rsatishidan toliqqan holda, Qoradengiz va Volga orti cho'llariga qarab harakat boshladilar. XIII asrning oxiri XIV asrning boshlariga kelib, Muqaddas rim imperiyasi xalqaro siyosatda yetakchi rolni qo'ldan boy berdi. Papalikning ham siyosiy qudrati zaiflashdi. Xalqaro siyosatda asosiy o'rnlarni Angliya, Fransiya, Kastiliya va Aragon egalladi.

Bu davrning eng yirik xalqaro mojarolaridan Fransiya va Angliya o'rtasidagi (1337-1453) yuz yillik urushi bo'ldi. Natijada, Fransiyaning g'alabasi bilan tugagan yuz yillik urush muhim xalqaro asoratlarni olib keldi: Fransiya Yevropa xalqaro siyosatiga juda katta ta'sir ko'rsatadigan bo'ldi. XI – XIII asr xalqaro munosabatlariga salib yurishlari katta ta'sir ko'rsatdi. Salib yurishlari 1096 yildan to 1270 yilgacha, qariib ikki asr davom etgan G'arbiy Yevropa feodallarining bosqinchilik urushiga aylandi. Ularni (urushlarni) tashabbuskori urushlarga xristianlarni musulmonlarga qarshi kurashi ramzi misolida diniy tus bergan Katolik cherkovi edi. Salib yurishlari, sharqdagi boy yerlarni bosib olish, o'z boyluk va daromadlarining ko'paytirish maqsadida bo'lgan g'arbiy Yevropa feodallarining o'sib borgan tajavvuzlaridan kelib chiqqan. Salib yurishlaridan sharqiy yerlarni bo'ysindirish yo'li bilan o'z ta'sir doirasini kengaytirishga uringan katolik cherkovi manfaatdor edi. Salib yurishlari xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixida eng muhim davr hisoblanadi.

Urushlar jarayonida G'arb xalqlari Sharqning musulmon mamlakatlari va Vizantiya bilan to'qnashib turar edi. Shu bilan birgalikda salib yurishlari G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarga juda katta ta'sir ko'rsatdi. O'rta yer dengizda siyosat yuritish uchun Vizantiya, Venetsiya, normannlarning janubiy – Italiya davlatlari (Sitsiliya qirolligi), Fransiya, Angliya, Muqaddas Rim imperiyasi o'rtasida davomli kurash olib borildi. G'arb va Sharq davlatlari xar xil ittifoqlar va kaolitsiyalarga a'zo bo'ldilar. Shu bilan birgalikda, feodal G'arb Vizantiya va Sharq diplomatiyasini hamda diplomatik qabullar usullarini o'rgana boshladi. Undan tashqari, Sharqda salibchilar davlatining tashkil topishi, diplomatik munosabatlarning yangi shakllarini ixtiro qildi, masalan, konsullik xizmatini, chunki yangi davlatlarda ayrim mamlakatlarning manfaatlarini muxofaza qilish zaruriyati tug'ildi.

XII – XIV asrlarda xalqaro siyosatda Vselen soborlarning ta'siri kuchayib bordi. Papa tomonidan chaqiriladigan G'arb Cherkovining «Vselen sobor»lariga oliy martabali ruhoniylar va ko'p xollarda barcha Yevropa mamlakatlarning dunyoviy elchilari tashrif buyurar edi. Chunki, cherkov ishlari doimo siyosiy va xalqaro xususiyatlarga ega bo'lgani uchun Vselen soborlarini xalqaro kongresslarining oldingi ko'rinishi deb hisoblasa ham bo'ladi. Huquq to'g'risidagi ilm o'rta asrlar Yevropasida XI asrning ikkinchi yarmida Yustinian asarlarida - (Corpus juris civilis) saqlanib qolgan Rim huquqini sharxlagan «glossator» lar ta'limotida rivojlanib bordi. Yustinian asarlari xususiy, fuqaroviy va ba'zi xollarda xalqaro munosabatlarga bag'ishlangan edi.

Glossatorlar fuqaroviy huquqni xalqaro munosabatlarda ham ishlatishga harakat qilar edilar, shuning uchun ham ularda xalqaro huquq mustaqil bir fan sifatida ajralib chiqmagan edi.

Xalqaro huquq masalalari cherkov huquqida, uning eng muhim misoli bo'lgan, XII asrning o'rtalarida tuzilgan «Gratsion dekreti» deb nomlangan to'plamda ham o'z ifodasini topgan edi. Shu bilan birgalikda cherkov huquqi ta'limotni ishlab chiqqan «dekretchilar» deb nomlangan huquqshunoslar, glossatorga nisbatan «Muqaddas yozuvlarda» keltirilgan ilohiy huquq bilan uyg'unlashtirilgan «tabiiy huquqdan» yoki «xalqaro huquqidan» kengroq foydalanganlar. Xalqaro huquq ilmini rivojlanishiga huquqshunos – nazariyotchilarning ayni bir paytda amaliy huquqshunos bo'lganlari ham turtki bo'ldi. Xalqaro huquq huquqshunoslikning maxsus sohasi sifatida birinchi martaba Rim huquqi asosida ish ko'rgan «postglossatorlar» yoki «kommentatorlar» deb nomlanganlarning ta'limotida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, XIII asrning oxiriga kelib, postglossatorlar ta'limotida XVII asrda tizimli rivojlangan xalqaro huquq ilmi shakllana boshlandi.

XV asrning oxiriga kelib Yevropa xalqaro munosabatlarning yangi davriga kirib bordi. Bu vaqtga kelib, bir qator mamlakatlarda hududiy birlashish yakunlanadi va mutlaq davlatlarning tashkil topishiga qulay sharoitlar tug'iladi. Tashqiy geografik kashfiyotlar yangi dunyo va Sharqni Yevropaga yaqinlashtirdilar. Ispaniya va Portugaliyaning Janubiy – Sharqiy Osiyoga olib boruvchi yo'llarda joylashgan okeanorti mustamlakalari ushbu davlatlarni birinchi mustamlakalarga ega bo'lgan davlatlar safiga qo'shdi.

Yaxlit davlatlar shakllanishi bilan siyosatning shakli ham o'zgarib boraveradi. Siyosatda o'lchovni belgilab beruvchi mezon sifatida «umumiy farog'at» darajasiga ko'tarilgan «davlat manfaatlari» hisoblanadigan bo'ldi. Mutlaq monarxiyalarning paydo bo'lishi bilan birinchi o'ringa o'rta va mayda mamlakatlar qo'shilgan yirik davlatlar (Angliya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Daniya, Shvetsiya) o'rtasidagi ziddiyatlar ko'tarildi. XVI asr, yangi davlatning tashqi ishlariga xizmat qiladigan markaziy va mahalliy idoralarning diplomatik xizmatining shakllanish davriga aylandi.

O'sha davrda sirlarning siri bo'lgan diplomatiya bu ishlardan xabari bor tang doiradagi odamlar xizmatida edi. Siyosat ixtiro qilinadigan markaz bu qirol saroyi edi. Mutlaq monarxiyada nafaqat sulolalar va qirol shaxsiyati manfaatlari balki, qirolga ta'sir ko'rsatishga erishgan uning arzandalari, jazmanlari va shunchaki sodda fitnachilar ham katta ahamiyat kasb etdi. Ushbu xolat, davlat xokimiyati shakli ko'rinishidagi absolyutizm tizimi bilan belgilanar edi. XVI – XVIII asrlar yangi diplomatik marosimlari shakllangan davr edi. Ushbu marosimlar (seremonial) – odatlar tizimi, xalqaro munosabatlar nuqtai – nazarida muhim rol o'ynar edi. Elchini mamlakatga tashrifi va ayniqsa audiensiya vaqtidagi (ya'ni qabul marosimida) o'zini tuta bilishi hamda uni qabul qiluvchi davlatmador shaxs yoki vazirning javob amallari davlatlarning o'zaro aloqalari, ularning xalqaro hayotdagi obro'si borasida darak beruvchi ramz hisoblanadi.

Yirik mamlakatlarning paydo bo'lishi va ular o'rtasida diplomatik munosabatlarning rivojlanishi, ushbu holatlarga mos nazariyani hayotga olib keldi. Diplomatiya huquq ham rivojlanib bordi. 1582 yili niderlandlik Baltozar Aayla «Urush va harbiy muassasalarning huquqi» deb nomlangan asarini chop etdi. Italyanlik Alberiko Djentilining «Elchixonalar to'g'risida» (1585) deb nomlangan ishi keng tarqaldi.

Xalqaro huquq ilmini tadqiqot qilishda birinchilik Gugo Grotsiyaga (1583 - 1645) nasib etdi. Gollandiyalik huquqshunosning tarixiy ahamiyati mutlaq davlatlar o'rtasidagi urushlar asrida xususiy mulkning muxofaza qilishni asoslab berishi shu bilan birgalikda urushni huquqiy doiraga kiritishni nazariy jihatdan asoslab berishdan iborat. Grotsiyaga shuxrat olib kelgan asar – «Urush va tinchlik huquqi borasida» (1625). Grotsiy o'zining asarida elchining huquqlariga ham butun bir bobni bag'ishlagan. Ushbu bob, XVII asrda elchilik huquqlarida shakllangan odatlarni yoritganligi bilan qiziqarli. XVII asrda, nazariy bilimlarni bermaydigan, lekin, elchilarga, ularni o'z vazifalarini bajarishda qo'l keladigan amaliy maslahatlar beruvchi asarlar paydo bo'ldi.

Urush, o'sha davr davlatlari tashqi siyosatining asosiy belgilaridan biri edi. Xalqaro mojarolarni keltirib chiqadigan sabablar ichida chegaraviy baxslar, sulolaviy e'tirozlar, tijorat



monopoliyasi uchun kurashlar va hokozolar bor edi. XVI asrda Yevropada, urushga olib keladigan uchta asosiy xalqaro kelishmovchiliklar shakllandi:

1) Ispaniyaning savdo va mustamlaka manfaatlarini to'qnashuvi bir tomondan bo'lsa, ikkinchi tomondan Fransiya va Angliyaning XV asrning oxirida XVI asrning birinchi yarmida Italiya urushlariga aylangan hamda XVI asrning ikkinchi yarmida Ispaniya va Angliya o'rtasidagi urushga olib kelgan to'qnashuvlari edi;

2) Yevropa davlatlarining Usmon imperiyasi bilan o'zaro munosabatlari;

3) Baltika hududida hukmronlik qilish uchun Shimoliy Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi kurash; XVII asrning boshlarida Germaniyada aksil qayta qurish kuchlarining faoliyati kuchaydi. Protestantlar tomonidan qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlarni asta – sekin boy berilishi, nafaqat umum Germaniya, balki xalqaro miqyosdagi shov – shuvlarga sabab bo'ldi.

Germaniyadagi diniy – siyosiy keskinlik nafaqat ichki sabablar maxsuli edi: bunday xolatni vujudga kelishiga XVIII asr boshlarida Yevropa davlatlari tizimidagi murakkab o'zaro munosabatlarning shakllanishi hamda xalqaro munosabatlarning ta'siri muhim rol o'ynadi. Shimoliy Germaniyaga o'tgan, keyinchalik Markaziy Yevropaning katta hududlarini o'z ichiga olgan Chexiyada mahalliy mojarodan boshlangan urush o'z orbitasiga juda ko'p davlatlarni jalb qilgan birinchi umumevropa andozasidagi urushga aylandi. Ushbu urush o'ttiz yil davom etdi (1618-1648 yillar). 1648 yili Vestfaliya shaharlarida imzolangan tinchlik shartnomasi shartlari nafaqat o'ttizyillik urushga, balki qayta qurish kuchlari va ularning raqiblari orasidagi bir asrlik kurashga siyosiy yakun yasadi. Tinchlik Yevropa davlatlari tizimiga va Germaniyadagi jarayonga muhim o'zgartirishlar olib kelgan majburlangan kelishuvlar maxsuli bo'ldi.

## **XVI-XVII ASRLARDA XALQARO MUNOSABATLAR VA DIPLOMATIYANING ASOSIY TAVSIFIY XUSUSIYATLARI.**

### **Reja:**

- 1. XVI asrda xalqaro munosabatlarning o'ziga hos xususiyatlari.**
- 2. Xalqaro huquq fanining vujudga kelishi.**
- 3. XVII asr boshlaridagi xalqaro munosabatlarning asosiy muammolari.**

15 asr oxirida Yevropa yangi xalqaro munosabatlar doirasiga o'tdi. Shu davrda ko'p mamlakatlarda absolyut monarxiyalar vujudga kelishi uchun sharoit yaratilayotgan edi.

Buyuk geografik kashfiyotlar Yangi Dunyo va Sharqni Yevropaga yaqinlashtirdi. Ispaniya va Portugaliya Janubiy Sharqiy Osiyoda mustamlakachilik xukmronligini o'rnatishdi.

Yagona davlatning vujudga kelishi siyosat shaklini o'zgartirdi. «Davlatning tashqi aloqalarga qiziqishi» deb baholangan bu siyosat barchaga ma'qul kelgan.

Absolyut monarxik davlatlarning vujudga kelishi natijasida yirik davlatlar (Angliya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Daniya, Shvetsiya) o'rtacha va mayda davlatlar bilan qarama-qarshi bo'lib qoldi.

16 asrda diplomatik xizmat tashkil qilingan bo'lib, ular markaziy va hududiy tashkilotlardan iborat bo'lgan va yangi davlatlarning tashqi siyosatiga xizmat qilgan.

O'sha davrda sirli bo'lgan diplomatik aloqalar bilan faqat shohning eng kishilarigina shug'ullanishgan. Haqiqiy monarxik davlat tuzumiga sulolalar, hukmdorlar va ularning yaqinlari qiziqqanlar. Bu holat monarxik davlatning tuzilishiga hos narsa hisoblanadi.

16-18 asrlarda yangi diplomatik tantanalar paydo bo'lib, ular xalqaro siyosatda muhim rol o'ynagan. Diplomantik muzokaralar olib boruvchi shoh yoki vazirga katta e'tibor berilib, ular o'z davlatlarining timsollari bo'lishgan.

Katta davlatlarning paydo bo'lishi va ular o'rtasidagi diplomatik aloqalar yangi qonun-qoidalarni vujudga keltirdi. Diplomantik qonunlar kengaya boshladi. 1582-yil Niderlandiyalik Baltazar Ayyala «Urush va harbiy ittifoqlar qonun-qoidalari to'g'risida» asar yozgan. 1585-yil Italiyalik Alberiko Jentilining «Elchixonona haqida»gi kitobi juda keng tarqaldi.

Xalqaro huquq to'g'risidagi fan bo'yicha birinchi o'rin Gugo Grotsioga tegishli. Gollandiyalik ushbu huquqshunosning tarixiy ishlarining ma'nosi shuki-u o'sha davrdagi to'xtovsiz urushlar, talonchiliklarning oldini olishga harakat qilgan. U 1625 yilda «Urush va tinchlik huquqlari to'g'risida» kitob yozgan. Kitobning asosiy boblari elchi huquqlariga bag'ishlangan. O'sha boblarda 17 asr boshlaridagi elchilar huquqlari bilan bog'liq urf-odatlariga e'tibor berilgan.

17 asrda chiqqan boshlagan asarlarda elchilarga qo'llanmalar yaratishga e'tibor berildi, sababi elchilar o'z vazifalarini yaxshi bilishlari kerak edi.

Urush – o'sha davrdagi tashqi siyosat ko'rinishlaridan biriga aylandi. Urushlarning kelib chiqishiga chegaralar, sulolaviy ziddiyatlar va savdo-sotiq bilan bog'liq masalalar sabab bo'lar edi. 16 asrda Yevropada asosan uchta holat urushga sabab bo'ladigan bo'ldi:

1. Ispaniyaning savdo va mustamlakachilikka qiziqishlari; Angliya va Fransiyaning Italiya urushlariga qo'shilishi; 16 asr 2-yarmida Ispaniya va Angliya o'rtasidagi urush.
2. Usmoniylar imperiyasi bilan Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi ziddiyatlar.
3. Shimoliy Yevropa davlatlarining Baltika hududlarida hukmronlikni qo'lga kiritishi bilan bog'liq masalalar.

Hukmdorlarning diplomatik qiziqishlari, o'z davlatlarini yangi yerlar hisobiga kengaytirishga bo'lgan intilish 17 asr 2-yarmi va 18 asrdagi xalqaro munosabatlarga katta ta'sir qildi. Shu bilan birga katta kuch to'plash uchun yangi omil vujudga keldi – dengizorti mustamlakachiligi uchun kurash, dengiz yo'llariga ega bo'lish, Yevropa va boshqa uzoq hududlarda xom ashe bozorlariga ega bo'lish kabilar.

Mana shu omillar davlatlararo munosabatlarnig muhimligini ko'rsatib beradi. 17 asr 2-yarmi va 18 asrlarda hukmronlik uchun markazlashgan davlatlar, umumdavlat va sulolaviy qiziqishlar kuchaydi.

Bularning barchasi 18 asrdagi uchta yirik janglarda («Ispaniya vorisligi uchun kurash»-1701-1714; Shimoliy-1700-1721; Avstriya merosi uchun kurash-1740-1748), Angliya, Fransiya, Rossiya, Avstriya va Prussiya kabi buyuk davlatlarning Ispaniya, Portugaliya, Daniya, Gollandiya, Shvetsiya kabi davlatlardan ilgari ketishida ko'rinadi. Aynan birinchi besh davlat jahon xalqaro munosabatlar tizimini 18 asr o'rtalaridan Buyuk Fransuz inqilobiga qadar bo'lgan davrda aniqlashtirgan.

Usmoniylar imperiyasi (Sharq) masalasi-xalqaro maydondagi yirik muammoga aylandi. Mana shu davrdagi xalqaro munosabatlarda Yevropa davlatlari va Usmoniylar imperiyasi o'rtasidagi munosabatlar muhim o'rin tutadi.

17-18 asrlarda Yevropa mamlakatlarining xalqaro munosabatlar geografiyasi kengayganligi ko'zga tashlanadi. Ular Yevropani markaz sifatida qolshiga harakat qilishdi, xalqaro munosabatlar alohida hududlarni-Yangi Dunyo (Amerika), Uzoq Sharq (Xitoy, Yaponiya), Afrikaning g'arbiy va sharqiy qirg'oqlarini qamrab oldi. Xalqaro munosabatlarnig yangi davrida mustamlakachilik muammoasi (xom ashe va bozorlarga ega bo'lish) asosiy muammoga aylandi.

Mustamlakachilik muammosi 17-18 asrlardagi xalqaro munosabatlarning muhim jihati bo'lib qoldi. «Eski» mustamlakachi davlatlar Ispaniya va Portugaliyaga qarshi «yosh» mustamlakachilar Gollandiya va Angliya raqib bo'lishdi, Fransiya ham bunda faol ishtirok etdi. Yangi Dunyo, Janubiy Sharqiy Osiyo Hindiston, /arbiy Afrikada mustamlakachilik uchun shiddatli janglar kuchaydi.

Bosib olish va talashlar manufakturaga asoslangan davlatlarga juda katta daromad keltirdi. Manna shu davrda mustamlaka mamlakatlar aholisi shafqatsizlarcha ekspluatatsiya, ochlik va qoloqlik duchor qilindi.

17-18 asrlardagi mustamlakachilik siyosati shiddatli raqibchilikni boshlab berdi, shu bilan birga ko'plab harbiy to'qnashuvlarni keltirib chiqargan-«savdo urushlari», Yevropa davlatlari

oʻrtasida mustamlaka va savdoda oldinda boʻlish kabi (ingliz-golland, ingliz-fransuz, fransuz-golland...).

Savdo-mustamlakachilik raqibchiligi bu davrdagi barcha yirik urushlarda muhim rol oʻynagan (ispan vorisligi uchun, yetti yillik urush).

Har bir mustamlakachi davlat mustamlaka bozorlarida yakka hukmdor boʻlishga intilgan.

Yangi paydo boʻlgan mustamlakachi imperiyalar alohida mamlakatlardagi bir qator omillarga taʼsir koʻrsatgan: mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasiga, egallangan yerlardagi aholi zichligi va rivojlanish darajasiga, jahon bozori mablagʻini vujudga keltirish. 18 asr oxirida asosiy Yevropa mamlakatlari siyosiy kuchlarining joylashuvida muhim oʻzgarishlar boʻldi. Angliyaning 1775-1783 yillarda Shimoliy Afrikada urush bilan band boʻlishi uning Yevropa qitʼasida vaqtinchalik kuchsizlanishiga olib keldi.

Amerika inqilobi «Shimoliy tuzumni» jiddiy sinovdan oʻtkazdi va XVIII asrda 80-yillarning boshida uning qoʻllashiga olib keldi.

Rossiyaning xalqaro maydondagi ajoyib yutuqlari Angliyani darhol «sharqiy masala» bilan shugʻullanishga majbur etdi.

Rossiyaning rus-turk va rus-shved urushidai yutuqlari Yevropadagi xalqaro vaziyatni oʻzgartirdi. Markaziy Yevropada Fransiyaning Avstriya-Prussiya bilan eski ziddiyatlarining keskinlashuvi va Anglii bilan mustamlakachilik bahsi Baltik hududi uchun kurash va «sharqiy» masalani ikkinchi darajaga tushirdi. Fransiya bilan kurash Yevropa davlatlarining yangi guruhini chaqirdi, antifransuz ittifoqini vujudga keltirdi. 1792 yildan xalqaro munosabatlarning yangi davri boshlandi-inqiloblar, Napoleon urushlari davri; Yevropa va Dunyo siyosiy haritasi yangitdan tuzildi.

## **XVII–XIX ASR BOSHLARIDA XALQARO MUNOSABATLAR VA DIPLOMATIYA**

### **Reja:**

- 1. Oʻttiz yillik urush va Vestfaliya sulhi.**
- 2. Yevropa 1789 yil fransuz inqilobi va Napoleon urushlari davrida.**
- 3. Shimoliy urush va Rossiyaning kuchayishi.**
- 4. Avstriya-Prussiya urushi.**
- 5. Yetti yillik urush.**
- 6. AQShning tashkil topishi va xalqaro munosabatlar.**
- 7. Muqaddas ittifoq.**

**Oʻttiz yillik urush va Vestfaliya sulhi.** Oʻttiz yillik urush (1618-48) – *gabsburglar* bloki (Papalik va Rech Pospolita tomonidan qoʻllab-quvvatlangan Ispaniya va Avstriya gabsburglari, Germaniyaning katolik knyazlari) bilan gabsburglarga qarshi koalitsiya (Angliya, Gollandiya va Rossiya quvvatlab turgan german protestant knyazlari, Fransiya, Shvetsiya, Daniya) oʻrtasidagi urush. Gabsburglar bloki katolitsizm tarafida, gabsburglarga qarshi koalitsiya esa (ayniqsa, urushning boshlanish paytida) protestantizm bayrogʻi ostida harakat qilgan. Bu urush bir necha davrlarga boʻlingan: Chexiya davri (1618–23) – gabsburglarga qarshi Chexiya qoʻzgʻoloni (1618–20) va chexlarning Belaya Gora yaqinida magʻlubiyatga uchrashi (1620); Daniya davri (1625–29)da gabsburglar bloki qoʻshinlari (qoʻmondonlari A. Vallenshteyn, I. Tilli) Daniyani yengib, Germaniya hududidan daniyaliklarni quvib chiqargan; Shvetsiya davri (1630–35)da shved armiyasi (qoʻmondoni Gustav II Adolf) Germaniyaga bosib kirib, Breytenfeld (1631), Lyutsen (1632) yonida gʻalaba qilgan, ammo Nyordlingan (1634) yaqinida magʻlubiyatga uchragan; Fransiya Shvetsiya davri (1635–48)da Fransiya urushga kirishi bilan gabsburglarga qarshi koalitsiyaning ustunligi yaqqol koʻrindi. Natijada gabsburglarning «jahonshumul imperiya» tuzish va milliy davlatlarni boʻysundirish haqidagi rejaları barbod boʻldi, siyosiy hukmronlik Fransiya qoʻliga oʻtdi. 1648 yil Vestfaliya sulhi bilan tugagan.

Vestfaliya sulhi – Germaniya, Shvetsiya, Fransiya bilan Muqaddas Rim imperiyasi oʻrtasida Vestfaliya (Germaniya)ning Myunster shahrida 1648 yil 24 oktyabrda imzolangan sulh.

Yevropadagi 30 yillik urushga barham berdi, uning oqibatida Yevropada sodir bo'lgan hududiy o'zgarishlar, imperiyadagi diniy munosabatlar va siyosiy tuzumga oid masalalarni hal etdi. Shvetsiya va Fransiya imperiyaga qarashli ayrim yerlarni o'z tasarrufiga oddi, Shveytsariya va Gollandiya imperiya tarkibidan chiqib, mustaqillikka erishdi. Oqibatda Germaniya kuchsizlanib, parchalana boshladi.

**Yevropa 1789 yil fransuz inqilobi va Napoleon urushlari davrida.** 1789 yilda Fransiya Lyudovik XVI absolyut monarxiyasining qulashiga olib kelgan inqilob ro'y berdi. Ushbu voqeya inqilobiy Fransiya qarshi birlashtirgan butun Yevropani harakatga keltirdi. 1791 yil 27 avgustda Saksoniyaning Pilnits qasrida Avstriya va Prussiya o'rtasida deklaratsiya imzolandi, 1792 yilning 7 fevralida esa – Fransiya qarshi harbiy ittifoq. Shu tariqa Fransiya qarshi Yevropa davlatlarining birinchi koalitsiyasiga (ittifoqiga) asos solindi.

Fransiyaning o'zida ushbu xabar vatanparvarlik xarakatini keltirib chiqardi. Federatlarning qurollangan otryadlari tuzila boshlandi. Qonun chiqaruvchi majlis "Vatan xavf ostida!" deb e'lon qildi va hujumni kutib o'tirmasdan, Avstriya urush e'lon qildi. Harbiy harakatlar Fransiya uchun muvaffaqiyatsiz boshlandi. Avstriya bilan ittifoqda Prussiya ham harakatlar olib bordi. Uning armiyasi Fransiya bostirib kirdi va bir qator qal'alarni ishg'ol etdi. Biroq, Fransiya qurollanmoqda va safarbarlikni amalga oshirmoqda edi. Va 1792 yilning 20 sentyabridayoq fransuzlar Valmi qishlog'i yonida pruslarning hujumini qaytarishdi. Ushbu jangdan so'ng, Fransiyaning inqilobiy armiyasi Belgiyani, Reyn daryosining chap soxilini, Nitssani, Savoyyani egalladi. Ushbu yerlarning bir qismi Fransiya qo'shib olindi. Ammo qirolning qatl qilinishi Yevropa monarxlarini hayajonga soldi. Koalitsiyaga Angliya va Ispaniya qo'shildi. Rossiya emigrantlar armiyasiga moliyaviy yordam ko'rsatdi.

Yakobinchilar diktaturasi o'rnatilishi bilan, fransuz qo'shinlari 1794 yilning boshiga kelib o'z davlatining yerlarini interventlardan tozalashga erishdi va urush dushman hududlariga ko'chirildi. Iyun oyida Fleryus qishlog'i (Belgiya) yonida fransuzlar Avstriya armiyasining asosiy kuchlarini tor - mor etishdi. Koalitsiya (ittifoq) mag'lubiyatga uchradi.

Fransiyaning o'zida esa 9 termidor aksilinqilobiy to'ntarilishi ro'y berdi, yakobinchilar diktaturasi quladi. Biroq ushbu xokimiyat almashuvi ham uzoqqa cho'zilmadi. Direktoriyaning o'rniga Napoleon Bonapart keldi va o'zining yakka hokimiyatini o'rnatdi. Konsullik va Birinchi imperiya davrida Fransiya to'xtovsiz urushlar olib bordi. Bosib olingan mamlakatlarni fransuz mollari sotiladigan bozorlarga va Fransiya sanoati uchun xomashyo manbasiga aylantirish siyosati olib borildi.

Angliya va Fransiya ushbu shartnomani Qora dengiz bo'g'ozlariga oid boshqa bitim bilan almashtirishga harakat qilishdiki, bu yerda ularning ta'siri ustunlikka erishish lozim edi. Angliya Turkiya va Misr o'rtasida 1839 yilda Yangi urushning boshlanishiga erishdi. Ushbu urushda turklar to'la mag'lub bo'ldilar. Sulton inglizlar ta'siri ostiga ko'proq tushib bordi. Shu tariqa Usmoniylar imperiyasining hududiy yaxlitligi va Qora dengiz bo'g'ozlarining xalqaro huquqiy tartibga oid buyuk davlatlarning birgalikdagi kafolatlar to'g'risidagi London konvensiyalari (1840 - 1841 yy.) paydo bo'ldi.

**Shimoliy urush va Rossiyaning kuchayishi.** Shimoliy urush (1700-21) Rossiya (Shim. Ittifoq tarkibida)ning Boltiq dengiziga chiqish uchun Shvetsiyaga qarshi urushi. Narva ostonasidagi mag'lubiyat (1700) dan keyin *Pyotr I* armiyani qayta tuzdi. Boltiq flotini barpo etdi. 1701—04 yillarda rus qo'shinlari Fin qo'ltig'i sohillarida mustahkamlanib olib, Derpt, Narva va boshqalar istehkomlarni egalladi.

1703 yil SanktPeterburgga asos solindi; u Rossiya imperiyasining poytaxtiga aylandi. 1708 yil Rossiya hududiga bostirib kirgan shved qo'shinlari Lesnaya yaqinida mag'lubiyatga uchradi. Poltava jangi (1709)da Shvetsiya butunlay tormor etildi va Karl XII Turkiyaga qochdi.

Boltiq floti Gangut (1714), Grengam (1720) va boshqalar joylarda g'alabaga erishdi. Nishtadt sulh shartnomasi (1721) bu urushga yakun yasadi. Unga ko'ra, Liflyandiya (Riga bilan birga), Estlyandiya (Revel, Narva bilan birga), Kareliyaning bir qismi (Keksgolm bilan birga), Ingermanlandiya (Ijor yeri), Ezel va Dago o.lari Rossiyaga o'tdi. Rus qo'shinlari tomonidan bosib olingan Finlyandiya yerlarining ko'p qismi Shvetsiyaga qaytarildi. Rossiya Shvetsiyaga 2

mln. yefimka (pul birligi) miqdorida tovon to'ladlari, har ikki davlat o'rtasidagi savdo munosabatlari tiklandi.

**Avstriya-Prussiya urushi** (1866) — Avstriya bilan Prussiya o'rtasida ko'pdan beri davom etib kelgan janjalga barham bergan, Germaniyani birlashtirishda qaysi nemis davlati hukmron bo'lishi mumkin degan masalani hal etgan urush. Prussiya kansleri Bismark urushga diplomatik va harbiy jihatdan puxta tayyorlik ko'rib, Fransiya va Rossiyaning bu urushda betaraf bo'lishi to'g'risidagi va'dalarini oldi.

Urushning dastlabki kunlaridayok, Avstriyaning o'jizligi sezilib qoldi. 1866 yil 3 iyulda Sadova yonida avstriyaliklarga qattiq zarba berildi. Bu bilan Avstriyaning bundan keyin Germaniyani birlashtirish ishiga da'vogar bo'lmasligi masalasi hal etildi. Avstriya-Prussiya yarash bitimi 26 iyulda Nikolsburgda, sulh shartnomasi esa 23 avg.da Pragada imzolandi. Urush natijasida Prussiya o'z hududini ancha kengaytirdi va u boshchiligida Shim. german davlatlari ittifoqi tashkil topdi. Avstriya bu ittifoqdan chetda qoldi.

**Yetti yillik urush** (1756-63) — Avstriya, Fransiya, Rossiya, Ispaniya, Saksoniya va Shvetsiya bilan Prussiya, Buyuk Britaniya, Portugaliya o'rtasida bo'lgan urush. Angliya va Fransiyaning o'zga hududlar uchun kurashi hamda Prussiya siyosiy manfaatlarining Avstriya, Fransiya va Rossiya manfaatlari bilan to'qnashuvi tufayli kelib chiqqan. 1761 yilda Prussiya halokat yoqasida edi, ammo yangi rus shohi Pyotr III u bilan sulh tuzgan (1762) (yekaterina II uni bekor qilgan, biroq, urushni davom ettirmagan). Shiddatli kurashlar mustamlakalarda va dengizda ham sodir bo'lgan. Prussiya Gubertusburg sulhi (1763) ga asosan, Avstriya va Saksoniya b-n Sileziyani o'ziga qo'shib olgan. Parij tinchlik bitimi (1763) ga asosan, Fransiyadan Buyuk Britaniyaga Kanada, Sharqiy Luiziana, fransuzlarning Hindistondagi mulklarining ko'p qismi o'tgan. ye.y.u.ning asosiy natijasi — Buyuk Britaniyaning Fransiya ustidan mustamlaka va savdo sohasidagi kurashda qozongan g'alabasi bo'lgan.

#### **AQShning tashkil topishi va xalqaro munosabatlar.**

18 asrning 2-yarmiga kelib Shimoliy Amerikada 13 ta mustamlaka mavjud edi. Ular: Yangi Angliya mustamlakalari — Massachusetes, Rod-Aylend, Nyu-Gempshir, Konnektikut; Markaziy mustamlakalar — Pensilvaniya, Nyu-York, Nyu-Jersi, Delaver; Janubiy mustamlakalar — Virjiniya, Merilend, Shim. Karolina, Jan. Karolina va Jorjiya shtatlaridir.

Janubiy shtatlarda qulchilikka asoslangan katta katta plantatsiyalar bo'lsa, shimolda fermerlik mavjud edi.

1775 yilda Angliya bilan uning Amerikadagi mustamlakalari o'rtasida urush boshlandi. Virjiniyalik plantator, polkovnik J.Vashington mustamlakalar armiyasining qo'mondoni bo'ldi. Mustamlakalar o'zlarini Angliyadan ajrab chiqqanliklarini e'lon qildilar. Ularning vakillari Filadelfiyada kongress o'tkazdilar va 1776 yil 4-iyulda «Mustaqillik Dekleratsiyasi» qabul qilindi. Unga ko'ra mustamlakalar Angliyadan ajralib chiqib, Amerika Qo'shma Shtatlari deya nomlandi. «Mustaqillik Dekleratsiyasi» monarxiya va mustamlakailikka qarshi bo'lib, xalq hokimiyatining asosi ekanligini ko'rsatadi. Dastlab Yevropa davlatlari AQShga unchalik ishonishmadi. Saratog yonidagi jangda inglizlar mag'lubiyatga uchragach AQShning xalqaro obro'yi oshib ketdi.

1778 yil 6 fevralda Franklin Fransiya bilan ittifoq shartnomasi va savdo bitimini tuzdi.

1778 yilda Fransiya, 1779 yilda Ispaniya, 1780 yilda Gollandiya Angliyaga qarshi urushga kirdi, bular AQShning mustaqillikka erishish yo'lidagi kurashi uchun katta ahamiyatga ega edi. Angliya o'z kuchlarini bo'lib yuborishga majbur bo'ldi.

Rossiya be'taraf mamlakatlarning dengiz savdosini qo'riqlovchi qurolli be'taraflik to'g'risida Dekleratsiya e'lon qilganidan keyin (1780y 28 fevra) Angliyaning xalqaro ahvoli yanada og'irdashdi. Bu bilan xalqaro huquqning yangi prinsipiga asos solindi. Rossiya bu prinsipni himoya qilish uchun O'rta Dengiz va Shimoliy Dengizgauch eskadra yubordi.

Fransiya va Ispaniya ham sirdan AQShga yordam bermoqchi bo'lsa ham, aslida Kanada va Shim.Amerikadagi mustamlakalarga egalik qilmoqchi edi. AQSh chegaralarini cheklab, uni

yakkalab, o'zlarining qo'g'irchoq davlatlariga aylantirmoqchi edilar. Shuning uchun ham AQSh ularga unchalik ishonmas edi.

1782 yil 30 noyabrda Angli bilan AQSh o'rtasida dastlabka separat sulh shartnomasi imzolandi. 1783 yil yanvarida Angliya boshqa davlatlar bilan suoh tuzish to'g'risida olib borgan muzokaralarini tugalladi., 1783 yil 3 sentyabrda sulh shartnomalari imzolandi. Qo'shma Shtatlar mustaqil deya e'lon qilindi. Allegan bilan Missisipi daryolari o'rtasidagi, Kanada chegaralaridan Floridagacha bo'lgan hudud AQShga qarashli deb tan olindi.

**Muqaddas ittifoq.** Yevropa monarxleri absolyutizm va dvoryanlarning inqilobiy harakatlarga qarshiligini mustahkamlash maqsadida Aleksandr I taklifiga binoan 1815 yilda «Muqaddas ittifoq» deb atalagan ittifoq tuzadilar. Uning qatnashchilari inqilobiy harakatlarni bostirishda bir-birlariga yordam berish, xristian dinini qo'llab-quvvatlash majburiyatini oldilar. «Muqaddas ittifoq» to'g'risidagi aktni Avstriya, Prussiya, Rossiya so'ngra Yevropa davlatlarining deyarli barcha monarxleri imzoladilar. Anegliya «Muqaddas ittifoq»qa kirmagan bo'lsa ham, inqilobiy harakatlarni bostirishni qo'llab-quvvatlab turdi.

1820 yillarning boshlarida Ispaniya, Neapol qirolligi va Pemontda absolyutizmga qarshi ilg'or ofitserlar boshchiligida burjua inqiloblari boshlandi. «Muqaddas ittifoq»ning qaroriga binoan bu inqiloblar – Italiyada Avstriya qo'shinlari, Ispaniyada fransuz qo'shinlari tomonidan bostirildi. Lekin feodal tartiblarni abadiylashtirishning iloji yo'q edi. Toboro yangi-yangi mamlakatlar va qit'alarni milliy ozodlik urushlari va inqilobiy harakatlar qamrab olaverdi.

## 1850-1871 YILLARDA YEVROPA DIPLOMATIYASI

### Reja:

1. Qrim urushi arafasida xalqaro vaziyat.
2. «Vena tizimini» barbod bo'lishi.
3. 1950-60 yillarining ikkinchi yarmida xalqaro munosabatlar.

### Qrim urushi arafasida xalqaro vaziyat.

Sharqiy masalining keskinlashishiga oid keyingi bosqich Qrim urushi (1853–1856 yillar) bilan bog'liqdir. Urushga bahona – Rossiyaning Turkiyadagi pravoslav xristianlariga va “Muqaddas joylar”ga (“Iso payg'ambar qabri”) homiyligi edi. 1853 yil yanvar oyida Rossiya Turkiyaga ultimatum talabini qo'ydi. Turkiya uni rad etdi. 1853 yilning oktyabrida Turkiya Rossiyaga urush e'lon qildi. 1853 yil 30 noyabrda Turklar floti Sinop ko'rfazida admiral Naximov tomonidan cho'ktirildi. Rossiyaning ushbu g'alabasidan so'ng, Angliya va Fransiya birgalikda harakatlar olib borish to'g'risida kelishib olishdi va 1854 yilning boshida o'z eskadralarini Qora dengizga kiritishdi. 1854 yilning sentyabrida fransuz-ingliz-turk qo'shinlari Qrimga tushirildi.

Asosiy voqyealari: 1853 yil rus qo'shinlari Moldaviya va Valaxiyaga kirib borgan va Kavkazda g'alaba qozongan, Sinopda turk flotini yakson qilgan; 1854 yil ittifoqchilar Qrimga qo'shin tushirgan, Boltiq dengizi qamal qilingan, 1854–55 yillarda Sevastopol mudofaasi uyushtirilgan; 1855 yil Rossiya diplomatik jihatdan yakkalab qo'yilgan. Sevastopol taslim bo'lgan, amalda harbiy harakatlar to'xtagan.

Rossiyaning harbiy va iqtisodiy qoloqligi sababli Rossiya mag'lubiyatga uchradi. 1856 yil 30 martda Parijda imzolangan tinchlik shartnomasiga ko'ra Rossiya Qora dengizda harbiy flotga ega bo'lish huquqidan mahrum bo'ldi. Aslini olganda, ushbu shartnoma “Vena tizimi” ning batamom barbod bo'lganligini va Rossiya Yevropa masalalariga nisbatan avvalgi ta'sirini yo'qotganligini anglatardi.

### «Vena tizimini» barbod bo'lishi.

«Vena tizimi» ning mustahkam emasligi uning tashkil topganidan so'ng darhol ayyon bo'ldi. Muqaddas Ittifoq ishtirokchilari inqilobiy jarayonlarga samarali to'sqin bo'la oladigan va baxsli xalqaro muammolarni xal qiladigan forumga aylantira olmadilar. Tropau (opava) – Leybax (Lyublyana) 1820–1821 yillarda va Veronada (Shimoliy Italiya) 1822 yildagi

kongresslar jarayonida Muqaddas Ittifoqqa a'zo bo'lgan mamlakatlar siyosatida jiddiy qarama – qarshiliklar namoyon bo'ldi. Ushbu xolat, Angliyani an'anaviy ingliz «ozod qullari» siyosatiga qaytishiga va Ittifoq bilan kelishilgan xolda ish olib borishdan asta – sekin uzoqlashtirib bordi. Angliyani kelishilgan amallardan uzoqlashishi Yevropani separat ittifoqlarga va koalitsiyalarga parchalanib ketishiga olib bordi.

Fransiya va Belgiyada 1830 yilda birin – ketin amalga oshirilgan inqiloblar, hamda 1830–1831 yilgi Polsha g'alayoni 1815–1850 yillardagi xalqaro munosabatlardagi eng asosiy ziddiyatni – ya'ni Angliya va Rossiya o'rtasidagi raqobatni yanada chuqurlashtirdi. Buyuk davlatlar elchilarining 1830–1831 yil London konferensiyasi va Belgiya davlati mustaqilligini va uning doimiy betarafligini e'tirof etish to'g'risidagi protokolni imzolanishi Vena chegaralari (1815) tizimidagi birinchi darz ketish bo'ldi. «1815 yilgi traktatlarni» muxofaza qilish bo'yicha beshta buyuk davlatlarni kelishilgan xoldagi amallarini ko'zda tutgan va «inqilobiy kuchlar» bilan kurashni nazarda tutgan «Vena kongressi» tamoyillariga 1848 – 1849 yillardagi inqilobiy harakatlar yangi zarba bo'ldi. Angliya esa o'zga mamlakatlar bilan umumiy bo'lgan siyosatdan uzoqlashdi.

30- yillarda Fransiyada shunga o'xshash siyosatni Iyul monarxiyasi olib bordi. Prussiya va Avstriyaga kelsak, ularning hukmron doiralari 1848 yilgi inqilobiy voqeyalar tufayli to'la xastalik xolatiga tushib qolgan edi. Shundan qilib, XIX asrning o'rtalariga kelib, 20,30,40- yillardagi inqiloblar «vena tizimi» asoslarini zaiflashtirdi va 5- yillarda sharqiy masala bilan bog'liq ziddiyatlarni keskinlashuvidan kelib chiqqan Muqaddas va To'rtlik ittifoqlarining sobiq ishtirokchilarining o'rtasidagi urush uni tamoman barbod etdi. Sharqiy masalani ziddiyatlashuvi va undan keyingi 1853 – 1856 yillardagi Qrim urushida Rossiyaning mag'lubiyatga uchrashgani «vena tizimini» barbod bo'lganini va Rossiyaning Yevropa ishlariga ta'sirini yo'qotganligidan dalolat berar edi.

Keyingi yillari, o'zining obro'siga putur yetkazgan 1856 yil 30 martdagi Parij shartnomasi shartlarini bekor qilish borasida rus diplomatiyasining izchil urushlari bilan belgilanadi. «Vena tizimi» ning barbod bo'lishi natijasida yangi xalqaro xolat yuzaga keldi. Qrim urushi Yevropadagi kuchlarini qayta taqsimlanishini keskin o'zgartirdi. Rossiyaning tashqi siyosiy kuchlari barbod qilindi. Avstro – Rus – Prussiya ittifoqi tarqalib ketdi. Fransiya «1815 yilgi traktatni» dafn etishga intilar edi. Fransiya kolonial siyosatini faollashuvi tufayli an'anaviy Fransiya – Angliya ziddiyatlari yanada keskinlashdi. Germaniya va Italiyaning birlashuvi davrida Prussiya va Sardiniya qirolligining xalqaro faolligi sezilarli darajada o'sdi. Avstriyaning ta'siri esa bo'shashib ketdi.

### **1850-60 yillarning ikkinchi yarmida xalqaro munosabatlar.**

Yevropa davlatlarining Amerika masalalariga faol aralashishi Meksikaga nisbatan harbiy intervensiyani amalga oshirish bilan boshlandi. Ushbu mamlakatda 1854–1860 yillarda inqilob ro'y bergandi. 1861 yilda Angliya, Fransiya va Ispaniya Meksikaning Atlantika soxillarini preventiv<sup>1</sup> tarzda harbiy okkupatsiya qilish to'g'risida konvensiya tuzishdi. Ushbu xarakt Meksika qarzlarning to'planishini ta'minlaydigan kafolat sifatida e'lon qilindi. 1861 yil dekabr oyida Meksika qirg'oqlariga avval ispan, keyin esa ingliz va fransuz qo'shinlari tushirildi. Biroq Napoleon III Meksikani Fransiya protektorati ostidagi «lotin imperiyasi»ning tayanch nuqtasiga aylantirish rejalariga ega edi. Lekin Fransiyaning Yangi Dunyoda kuchayishi Angliya va Ispaniyaning niyatlariga to'g'ri kelmasdi. 1862 yilning fevralida ular o'z qo'shinlarini Meksikadan olib chiqishdi va Xuarez hukumati bilan qarzlarni to'lanishini kechiktirish to'g'risidagi bitimni imzolashdi. Ammo Fransiya Angliya va Ispaniyadan o'rnak olmadi va uzoqqa cho'zilgan Meksika avantyurasiga (hatarli, qaltis ish) aralashib ketdi. Natijada Fransiya 1867 yilda mag'lubiyatga uchradi.

1862 yilda AQSh ga nisbatan qurollangan intervensiya tahdidi yuzaga keldi. Garchand Angliya 1861 yilda shimol va janub o'rtasidagi urushga nisbatan o'zining betarafligini e'lon

<sup>1</sup> Превентив – олдини олувчи, огохлантирувчи.

qilgan bo'lsa ham, amalda janubliklarni qo'llab-quvvatladi, Konfederatsiya tomonida turib fuqarolar urushida bevosita qatnashishga tayyorgarlik ko'rgan xolda. Fransiya ham Yangi Dunyo ishlariga qurol bilan aralashishga intilmoqda edi. Biroq Rossiya 1862 yilning noyabrida shimolliklarga qarshi intervensiyada qatnashishni rad etdi. Napoleon III ning shimolliklarga nisbatan bo'lgan maqsadlari Yevropa va Amerika demokratik jamoatchiligi orasida katta g'azablanishni keltirib chiqardi. Bu xolat ham yuzaga kelgan vaziyatga o'z ta'sirini o'tkazdi. Natijada Yevropa davlatlarining AQSh ishlariga qurolli aralashish rejasi barbod bo'ldi.

XIX asr 60 – yillarning oxirida Fransiya imperiyasi inqirozni boshidan kechirmoqda edi. Mamlakat ichkarisida respublikaning o'rnatilishini talab qilgan muholifat kuchaymoqda edi. Napoleon III hokimiyati mustahkam emasdi. Ushbu sharoitda Fransiya g'olibona urush zarur edi. Bismark ham tezroq urush bo'lishni xohlardi. Chunki Germaniyaning g'alabasi natijasida janubiy german yerlari o'z ixtiyoriga ko'ra Shimoliy Germaniya ittifoqiga, qo'shilishi ya'ni Prussiyaga qo'shilishi mumkin edi. Biroq kansler urushni Fransiya boshlashini xohlardi. Va Napoleon III Bismarkning ushbu tuzog'iga tushdi.

AQSh da 60- yillardagi fuqarolar urushi tufayli Amerikada Fransiya va Angliya siyosatini faollashuvi xalqaro munosabatlarning rivojlanishida muhim omil bo'ldi. Bir vaqtni o'zida Polsha masalasi ham keskinlashdi: 1863 yilgi qo'zg'olon tufayli Angliyani va ayniqsa Fransiyaning Polsha ishlariga aralashuvi Rossiyani AQSh bilan yaqinlashuviga majbur qildi. Rossiyani AQShga nisbatan xayrixoxlik betarafli «shimolliklarni» diplomatik qurshovdan chiqishga xizmat qildi. Germaniya va Italiyada «Vena tizimi» uzil – kesil dafn etildi. Lekin, Germaniya (Janubiy german knyazliklari) va Italiyani (Rim masalasi) birlashish jarayoni 60-yillarning oxirida hali yakunlanmagan edi. Rim va janubiy Germaniya masalalarida Italiya va Prussiyaning asosiy dushmani Fransiya edi. Franko – Prussiya qarama – qarshiligi va Italiya – Fransiya o'rtasidagi ziddiyat XIX asr 60- yillarining ikkinchi yarmida xalqaro munosabatlardagi asosiy omilga aylandi.

20-60 yillarda Yevropa davlatlarining kolonial xukmronligi usullardan keskin farq qilar edi. Osiyoning kolonial ekspansiyaga aylantirilgan yangi xududlarida, Yevropaliklar, iqtisodiy va harbiy jihatdan zaif bo'lsa-da, lekin azal vaqtlardan o'zining davlatchiligiga ega bo'lgan qadimiy sivilizatsiyalar bilan (Xitoy, Yaponiya, Eron va b.d.) to'qnashishdi. Shuning uchun, bu mamlakatlarga kirib kelish, masalan klassik kolonial talonchilik va kontinentni bo'lib olish siyosati amalga oshirilgan yangi dunyoning mustamlakasidan farq qilar edi. XIX asrning 20-60- yillarida boshqa usullar ustunlik qilardi: «ta'sir doiralar» ni taqsimlash (Xitoy, Eron, Iroq), protektoratlarni o'rnatish (kambodja) va ayniqsa nomigagina maxalliy knyazlar va monarxlarning xokimiyatini saqlab qolish bilan birga iqtisodiy bosqinchilik. Mustamlakalarning boshqarish prinsipi o'zgardi. Monopol savdo kompaniyalari vositasida ularni boshqarish va koloniyalarni ekspluatatsiya qilish tizimini o'zi yo'q bo'ldi. Koloniyalarni boshqarish amallari davlatga o'tar edi.

Koloniyalarni ekspluatatsiya qilishning iqtisodiy qoidalarida ham o'zgarishlar ro'y berdi. Agar, ilgari kolonizatorlar oltin va kumush ekzotik o'simliklar va ildizlar izlab hamda qullar savdosidan boylik orttirgan bo'lsalar, endi esa asosiy diqqat, sanoat uchun xom ashyo – paxta, qazilma boyliklarga qaratilgan edi. Kolonizatorlar mustamlakalardan metropoliyalar sanoat mollarini sotish uchun bozor sifatida keng foydalanar edilar, ularning xo'jalik hayotiga chuqurroq kirib borardilar (koloniyalar hududlarida temir yo'llar, yo'llar va shaxtalar qurar edilar).



## YANGI DAVRDA XALQARO MUNOSABATLAR VA DIPLOMATIYA (1871–1914 yy.)

### Reja:

1. **XIX asrning oxirida xalqaro munosabatlar.**
2. **Harbiy-siyosiy tashkilotlarning paydo bo'lishi va ular o'rtasidagi kurash.**
3. **I jahon urushi arafasidagi xalqaro vaziyat.**

Franko – Prussiya urushi XIX asr oxiridagi XALQARO MUNOSABATLAR VA DIPLOMATIYA TARIXIda yangi sahifani ochdi. Yevropaning siyosiy xaritasida kuchli harbiy va sanoat imkoniyatiga ega bo'lgan qudratli Germaniya imperiyasi paydo bo'ldi. Franko – Prussiya urushining muhim xalqaro natijasi – bu Italiyaning birlashish jarayonini tugutilishi edi. Ushbu yangi buyuk davlat Fransiyaning O'rta yer dengizi havzasidagi raqibiga aylandi. O'z navbatida Avstro-Vengriya Avstro – Prussiya urushidagi mag'lubiyati uchun o'ch olishdan voz kechib Germaniya bilan yaqinlashishga xulosa qildi. Germaniya iqtisodiy qudratining keskin kuchayishi va uning kolonial talonchilik arenasiga chiqishi anglo va germaniya o'rtasidagi ziddiyatlarni yanada keskinlashuviga olib keldi. Shunday qilib, Franko-Prussiya urushi va Germaniya imperiyasini tashkil topishi Yevropada kuchlarni qayta taqsimlanishiga va xalqaro munosabatlarni keskinlashuviga olib keldi.

Germaniya imperiyasining tashkilotchisi va uning birinchi kansleri Otto fon Bismark Fransiyani yakka-latib qo'yish va keyinchalik unga qarshi yangi urush boshlash uchun yaxshi diplomatik xolatni ta'minlash maqsadida Germaniya yetakchiligida harbiy – siyosiy Ittifoq tuzishga intilar edi. Kanslerning tashqi siyosatida aksil fransuz yo'nalishi 1873 yilda barpo etilgan uch imperatorlar Ittifoqida namoyon bo'ldi. Fransiyani Rossiya va Avstro – Vengriya bilan ittifoqdosh bo'lishiga to'sqinlik qilish uchun Bismark Yevropada «tartibni» mustahkamlash uchun monarxiyalarning birdamlik g'oyasidan foydalandi. Uch imperatorlar Ittifoqi Avstro – Rossiya va Germano – Rossiya ziddiyatlari yangi kuch bilan namoyon bo'lganida, ya'ni 1887 yili barbod bo'ldi.

Rossiyani uch imperatorlar Ittifoqiga a'zo bo'lib kirishi germaniyani yangi tajavvuzi oldidan Fransiyani qo'llab - quvvatlashdan voz kechishi emas edi. Rossiya Fransiyani zaiflashishida manfaatdor emas edi. Angliya, «evropa kuchlarini tenglashish»siyosatini qo'llab - quvvatlagan xolda G'arbiy Yevropada yagona davlatni (Germaniyani) gegemoniyasini o'rnatilishiga qarshi edi. Aynan Rossiya va Angliyaning pozitsiyasi Bismarkka 1875 yili Fransiyaga qarshi yangi urushni boshlashga imkon bermadi. 1875 yilgi Fransiya – Prussiya o'rtasidagi harbiy xatarli xolat bilan deyarli bir vaqtda yaqin sharq inqirozi paydo bo'ldi. Rossiyani rus – turk urushidagi (1877-1878y) muvaffaqiyatlari Bolqon xalqlari uchun juda katta ahamiyat kasb etdi. Ular umuman yo'q bo'lib ketishdan saqlanib qoldilar, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Chernogoriya, Serbiya va Ruminiyani mustaqilligi tan olindi.

Fransiyani yakka-latib qo'yish bo'yicha Bismarkning keyingi faoliyati Germaniya, Italiya va Avstro – Vengriya tarkibidagi Uchlik Ittifoqini bunyod etilishiga olib keldi. 1882 yilgi Uchlik Ittifoq to'g'risidagi Shartnoma besh yil muddatga tuzilib. Keyinchalik bir necha bor uzaytirilib to 1915 yilgacha amal qildi. Yangi harbiy konvensiya (shartnoma) bir tig'i bilan Fransiyaga boshqasi bilan Rossiyaga qarshi qaratilgan edi. Shu bilan birgalikda Fransiya bilan yaqinlashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida Rossiya bilan do'stona munosabatlarni saqlab qolish Bismarkni ahamiyatli vazifalaridan biri edi. 1887 yili Rossiya va Germaniya o'rtasida o'zini saqlab qolishga urinish (perestraxovka) to'g'risida shartnoma imzolandi. Rossiya, Fransiya Germaniyaga hamla qilgan xolatda do'stona betaraflik saqlashni o'z zimmasiga olardi va javoban agar Angliya Yaqin Sharqda zid amallarni olib borsa Germaniya tomonidan Rossiyani qo'llab - quvvatlash to'g'risida va'dasini oldi.

Avstro – Vengriya va Angliyani Bolgar knyazligiga ta'sirini kuchayishi bilan bog'liq Rossiyaning og'ir xalqaro ahvoli chor hukumatini ushbu shartnomaga imzo chekishga majbur qildi. O'zini saqlab qolishga urinish (perestraxovka) shartnomasi to 1890 yilgachcha kuchda edi.

Fransiya va Rossiyaga qarshi qaratilgan Avstro – Germaniyaning 1879 yilgi ikkilik Ittifoqi, hamda shunga o‘xshash 1882 yilgi Uchlik Ittifoqi uch imperatorlar Ittifoqi hamda o‘zini saqlab qolishga urinish Shartnomasiga qarama - qarshi edi. Umumiy raqib Germaniyani kuchayib borishi natijasida Rossiya va Fransiya o‘rtasida yaqinlashuv kuzatilar edi. Angliya va Italiya bilan chuqur qarama - qarshilikda bo‘lgan Fransiya, agarda Germaniya bilan urushga kiradigan bo‘lsa, faqatgina Rossiyadan amaliy yordam olishi mumkin edi. Undan tashqari, Rossiya bilan yaqinlashuv Fransiyani tashqi siyosiy yakkalanishdan forig‘ qildi. Ikki mamlakat o‘rtasida mustamlaka siyosati yoki Yevropa siyosati bo‘yicha bir oz bo‘lsada jiddiy qarama - qarshilik mavjud emas edi. Bunga qo‘shimcha, Bismark xukmronligining oxirgi yillarida Germaniya va Rossiya o‘rtasida avjiga chiqqan «bojxona urushlari» tufayli Fransiya Rossiyaga qarz beradigan asosiy davlatga aylandi.

Franko – Rossiya yaqinlashuviga Bismarkning Fransiyaga qarshi yangi urush boshlashga urinishlari bilan bog‘liq 1887 yilgi harbiy vahima muhim omil bo‘lib xizmat qildi. 1891 yili Uchlik Ittifoqining qayta tiklanishi davrida Germaniya va Angliya o‘rtasida yaqinlashish alomatlarini sezildi. Va 1891 yili Rossiya va Fransiya o‘rtasida konsultativ Pakt o‘rnatildi va 1892 yili, 1893 yili ratifikatsiya qilingan (ya‘ni tasdiqlangan) maxfiy harbiy konvensiya imzolandi. Bu xolat Germaniya va Italiya bilan harbiy to‘qnashuv bo‘ladigan bo‘lsa Fransiya Rossiyaga harbiy yordam berish imkonini ta‘minladi va kontinental bosqinchilik uchun erkinlik berildi. XIX asrning ikkinchi yarmida Angliyaning tashqi siyosati uchun «Yarqiroq yakkalik» (izolyasiya) deb nomlangan siyosat xos edi. Ushbu siyosatning izchil tatbiqchisi Loyd Solsberi quyidagilarni takrorlashni yaxshi ko‘rar edi: «Angliyaning doimiy ittifoqdoshari va doimiy dushmanlari yo‘q, faqat doimiy va abadiy manfaatlari mavjud». Angliyaning «yarqiroq yakkalik» siyosati, hech bir uzoq muddatli ittifoqlar bilan o‘zini bog‘lab qo‘yishga olib bormoydigan sanoat yakkaxonligi va dengizdagi qudratiga asoslangan edi. O‘z maqsadlariga erishish uchun Angliya diplomatiyasi kontinental davlatlarning o‘zaro mojarolaridan foydalanar edi.

XIX asrning oxiri Angliyaning kolonial hududlarini nihoyatda kengaytgan bilan belgilanadi. Germaniyaning «dunyo siyosatini» olib borish urinishlari Bismark hokimiyatining oxirlarida namoyon bo‘la boshladi. XIX asrning 90-nchi yillarida germaniya hukmdor doiralari «quyosh ostida hudud» uchun urush olib borish g‘oyalarini o‘ta faollik bilan targ‘ibot qildilar. Aynan shu davrda boshqa ikki yirik davlat – AQSh va Yaponiya faol kolonial siyosati maydoniga chiqishdi. Shunday qilib, bir guruh yirik davlatlar daxshatli kurashda keyinchalik qayta taqsimlash niyatida dunyoni bo‘lish jarayonini yakunlashdi. Shular sabab, dunyoning barcha jabhalarida xalqaro ziddiyatlar o‘choqlari paydo bo‘ldi. XIX asrda eng keskin ziddiyat – bu Anglo – Fransuz kolonial qarama - qarshilik edi. Boshqa tomondan esa o‘ziga xos xususiyat, ya‘ni harbiy – dengiz raqobat shaklini olgan Anglo – Germaniya qarama - qarshilik ham kuchayib bordi.

Bunday raqobat natijasida, angliyaliklarning dengizdagi sobiq ustunligi ham yo‘qqa chiqdi. XIX asr oxiridagi Anglo – Germaniya qarama - qarshiligining keskinlashuvi Angliyaning tashqi siyosiy yo‘nalishida keskin o‘zgarish yasadi. Sanoat ustunligini hamda kontinental davlatlarning ziddiyatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yo‘qotgan Angliya siyosiy yakkalanish xolatidan chiqishga majbur bo‘ldi. Angliyaning hukmron doiralarda vujudga kelgan xolatda mamlakat ittifoqdoshlarga muxtoj degan fikrlar paydo bo‘ldi. 1902 yilning 30 yanvarida «Yarqiroq yakkalik» siyosatiga chek qo‘ygan Angliya- Yaponiya ittifoq shartnomasiga imzo qo‘yildi. 1902 yildan Angliya diplomatiyasi Fransiya, undan keyin Rossiya hamda Germaniyaga qarshi kurashda ittifoqdosh bo‘la oladigan mamlakatlar bilan o‘z munosabatlarini yaxshilash yo‘nalishiga o‘tdi. Rus yapon urushi va Rossiyada 1905-1907 yillardagi inqilob kuchlarni qayta taqsimlanishiga ta‘sir ko‘rsatdi. Rossiya Angliya uchun xatarli dushman bo‘lmay qoldi.

Anglo – Germaniya munosabatlari va Germaniya – Fransiya o‘rtasidagi o‘sib borayotgan ziddiyatlar 1904 yil 8 aprelda Londonda imzolangan ikki mamlakat o‘rtasidagi maxfiy kelishuv sababli anglo – fransuz yaqinlashuvni vujudga keltirdi. Angliya va Rossiya o‘rtasida kolonial masalalar borasida kelishuv paydo bo‘lishi bilan 1907 yili Peterburgda Angliya va Rossiya o‘rtasida shartnoma imzolandi. Anglo – Rus shartnomasi imzolanishi bilan Antantani tashkil

topishi nihoyasiga yetdi. Antantani tashkil topishi bilan Germaniyaga qattiq zarba berildi. Bundan tashqari, 1902 yili Italiyani Uchlik ittifoqdan uzoqlashishidan darak beruvchi Italiya va Fransiya o'rtasida betaraflik to'g'risida yangi maxfiy kelishuv imzolandi. Ushbu xolat nafaqat Adriatik dengizining sharqiy sohili bo'yicha Italiya – avstriya ziddiyatlaridan, balki Italiyani fransuz sarmoyalari va tijoratidan manfaatdorligidan kelib chiqar edi.

Ikki asosiy harbiy– siyosiy bloklar o'rtasidagi raqobatlik Bolqon urushlardan o'z ifodasini topdi: natijada, Serbiya, Gretsiya va Chernogoriyaning xududlari anchagina kengaydi. Bolqon ittifoqining barbod bo'lishi avstro – german ittifoqining g'olibligi edi. Antanta esa Serbiyada o'z ta'sirini mustahkamlab oldi. Urushdan oldingi o'n yillikdagi xalqaro inqirozlar, Bolqon urushlari anglo – german, franko – german, rus – german, rus – avstriya ziddiyatlarini yanada keskinlashishiga sabab bo'ldi. Antantada, ishtirkochilar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga qaramay, kuchlar jipslashish jarayoni kuzatilar edi. XX asr boshidan uchlik ittifoqi, Italiya o'zini chetga tortganligi sabab ikkilik ittifoqiga aylana boshlandi. Ayni shu davrda urush oldi yillarida Turkiyani o'z tarafiga jalb qilganligi Germaniyaning jiddiy diplomatik muvaffaqiyati edi. Uning, ya'ni Turkiyaning muhim strategik joylashuvi, kelajakda Germaniyani Antanta bilan bo'ladigan to'qnashuvlarida yaxshi kelajakni bag'ishlar edi.

1914 yilning boshlariga kelib, ikki guruh davlatlarda qurol – aslaha uchun kurash yuqori darajaga ko'tarildi. Yevropaning yirik davlatlari orasida iqtisodiy rivojlanishda eng yuqori sur'atlarga erishgan Germaniya urushga boshqalarga nisbatan yaxshiroq va tezroq tayyorgarlik ko'rib qo'ydi.

## **BIRINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA XALQARO MUNOSABATLAR VA DIPLOMATIYA (1914–1918 yy.)**

**Reja:**

- 1. Urush oldi shart – sharoitlari va urushning xarakteri**
- 2. Kuchlarning o'zaro nisbati**
- 3. Urushni boshlanishi va jarayoni**
- 4. Urushni tugashi**

1914 yilda boshlangan urush insoniyat tarixida eng buzg'unlik va qonli urush edi. U 10mln.ga yaqin odamlar hayotini olib ketdi, ko'p mamlaktalar xalqlariga son sanoqsiz kulfatlarni olib keldi. XIX asrning oxiridan xalqaro munosabatlarda vaziyatni keskinlashtiruvchi muammolar birin – ketin kelaverdi. 1914 yilning yoziga kelib dunyo siyosatida shunchalik ko'p «yonilg'i ashyolar» to'plandiki, uning bir uchquni ulkan yong'inni chiqarishi mumkin edi. 1914 yil 28 iyunda Saraevo shaxrida Avstriya Ersgersog frans Ferdinandni o'ldirilishi ana shunday uchqun bo'lib chiqdi. Qo'lga olingan qotillik ishtirokchilari serblarning «Mlada Bosna» deb nomlangan vatanparvarlar guruhiga a'zo edilar. Ushbu dalil 1914 yil 28 iyunda Avstro – Vengriya tomonidan Serbiyaga urush e'lon qilinishiga bahona bo'ldi.

Iyun oyining oxirida voqyealar jarayoni tezlashdi. 31 iyulda Rossiyada umumiy safarbarlik boshlandi. O'sha kunning o'zida Germaniya Rossiyadan safarbarlikni to'xtatishni talab qildi va 1 avgust kuni Rossiyaga urush e'lon qildi. Nemis qo'shinlari g'arbiy sarhad bo'ylab, to'plana boshlandilar 3 avgust kuni Germaniya Fransiya urush e'lon qildi. Shu kuni o'zida Germaniya Belgiya xududidan qurolli kuchlarini o'tkazib yuborishni talab qildi. Ushbu talab Belgiyaning daxlsizligi to'g'risidagi shartnomaga zid edi. Belgiyaning daxlsizligini buzilishi Angliyani Germaniyaga (4 avgust) urush e'lon qilish uchun vaj bo'ldi. 1914 yil 1 avgustda boshlangan jahon urushi 1918 yil 11 noyabrgacha davom etdi. Urushning ko'lami to 1917 yilgacha kengayib bordi. 1914 yilning avgust oyi oxirida Tinch Okeani va Uzoq Sharqda nemis koloniyalarini bosib olgan Yaponiya o'z tashabbusi bilan Germaniyaga qarshi urushga kirdi. 1914 –1915 yillarda Germaniya va Avstro – Vengriyaga Turkiya va Bolgariya qo'shildi va To'rtlar ittifoqi tuzildi. To'rtlik ittifoqiga qarshi urushga Italiya, Portugaliya, Ruminiya, AQSh,

Gretsiya kirdi. Amalda ishtirok etmasa – da Germaniyaga Xitoy, Siam, Liberiya, Latin Amerikasining 14 davlati urush e'lon qildi.

Birinchi jahon urushida ishtirok etuvchi yirik davlatlarning bosh maqsadi – bosqinchilik siyosati edi. Germaniyaning asosiy maqsadlari: Yevropada Germaniya gegemonligini o'rnatish; bir qator hududlarni bosib olib, qaram davlatlarni barpo etish (Belgiya, Gollandiya va b); Fransiyaning «buyuk davlat sifatida boshqa hech ham boshini ko'tara olmaydigan» darajada ziflashtirishdan iborat edi. Bundan tashqari, Yevropadagi tajavvuzlar «dunyo siyosatini» olib borish uchun zinapoya rolini o'ynashi kerak edi. Avstro – Vengriyaning xukmron doiralari o'zining yemirilib borilayotgan davlatini umrini uzaytirishga intilar edilar. Ular Serbiya va Chernogoriyaning bir qismini bosib olib, janubiy slavyanlar milliy – ozodlik xarakatini bo'g'ish yo'li bilan yuqoridagi maqsadga erishishga umidvor edilar.

Gabsburg monarxiyasiga qaram bo'lgan Polsha va g'arbiy Ukraina yerlaridan iborat bo'lgan birlashma tuzish loyixalashtirilar edi. Fransiya esa Elzas va Lotaringiyani qaytarib olish xarakatida edi. Saar viloyatini uddasidan chiqsa reyn sanoat hududini ham bosib olish rejalarini yo'q emas edi. Undan tashqari Parijda Germaniyani yanada parokanda qilish borasida keng rejalar ishlab chiqilmoqda edi. Yevropadan tashqarida Fransiya turk va nemis mustamlakalariga ham da'vogar bo'lmoqda edi. Buyuk britaniyaning esa bor maqsadi: koloniyalarda va dengizda savdo raqibi sifatida Germaniyaning qudratini barbod qilishdan iborat edi. Shu bilan birgalikda, nisbatan kuchli Germaniya, kontinentda Fransiya va Rossiyaga nisbatan posangi rolini bajarishi lozim edi.

1915 yilning martiga kelib Rossiya Konstantinopolni, Marmar dengizining G'arbiy soxilini va Dardanellni «Rossiya tarkibiga» qo'shishni talab qildi. Urushga kechroq kirishgan Italiya, AQSh va boshqa davlatlarning ham katta rejalarini mavjud edi. Ushbu rejalar sir saqlanardi. Lekin, rasman ular mudofaa urushini olib borish tarafdorlari edi. Jahon urushining jarayoni birinchi navbatda raqobatdagi kaolitsiyalarning harbiy – iqtisodiy qudrati bilan belgilanardi. Kuchlar nisbati odamlar soni. Oziq - ovqat va xom ashyo miqdori bilan Antanta foydasida edi. Undan tashqari, urush boshalarida urushga kiritilgan diviziyalar, qurollar va samolyotlar soni bo'yicha ham Antanta birinchi o'rinda edi. Dengizda ham Antanta ilg'orlikni o'z qo'lida ushlab turardi.

Lekin, Germaniya kuchli raqib edi. Uning uzoq muddat urushga tayyorgarlik ko'rgani, askarlarning tajribasi, qurol – aslahaning a'lo sifati, nihoyatda tez sur'atda safarbarlikni amalga oshirishi, og'ir artilleriya sohasidagi ilg'orligi, qurolli kuchlarini tez sur'atda bir frontdan ikkinchi frontga o'tkazish imkoniyatlari yaqqol namoyon bo'lar edi. Germaniya uchun qulay xolatdan kelib chiqib, Germaniya qo'mondonligi «Blits Krig» operatsiyasiga suyandi. Yirik kuchlar bilan Belgiya va shimoliy Fransiya orqali, Parijni g'arb tomonidan aylanib o'tib raqib armiyasini qamalga olib Fransiyaning taslim qilish maqsadida yurish rejalashtirilgan edi. Keyinchalik, bo'shab qolgan harbiylarni sharqqa ko'chirib, Germaniya Avstro – Vengriya bilan hamkorlikda u yerda xal qiluvchi zarba berish niyatida edi.

Lekin, 1914 yilning o'zidagi voqyealar jarayoni nemis qo'mondonlarining rejasini barbod etdi. Ruslarni Sharqiy Prussiyadagi faol amallari, son-sanoqsiz harakatlar tufayli nemis askarlarining charchashi, orqada qolgan qal'alarni zabt etishga mo'ljallangan kuchlarni band bo'lishi, Marna bo'yi olib borilgan janglar (sentyabr 1914y) «Blits Krig» ning asosiy mohiyatini yo'qqa chiqardi. Berlinda tez fursatda g'alabani qo'lga kiritish mumkin emasligiga ishonganlar soni qo'payardi. 1914 yil kuziga kelib ham g'arbiy ham sharqiy frontda doimiy front chizig'i o'rnatildi. 1915 va 1916 yillarda urush katta qurbonlar berish va qattiq jang qilmoq evaziga davom etardi. Sharqiy frontda rus askarlariga qarshi Avstro – Vengriya armiyasining aksariyat qismi saralangan va nemis armiyasi jang olib bordi. g'arbiy frontda esa nemislarga fransuz va Britaniya askarlari qarshi turardi.

To Germaniya ikki front quchog'idan chiqmaguncha g'alaba mumkin emasligini nemislar tan olishga majbur bo'ldilar. Siyosiy rahbariyat oldiga Antantani barbod etish vazifasi qo'yildi. Sharqdagi harbiy muvaffaqiyatlar yo'li bilan Rossiyani separat sulx tuzishga majburlash ko'zda tutilgan edi. Bundan chiqib, 1915 yili Germaniyada harbiy xarakatlarning

markazini sharqqa ko‘chirish xulosasi qabul qilindi. Dunay daryosining o‘rta oqimida frontni buzib o‘tgan nemis va Avstro – Vengriya askarlari 1915 yilning oxirida Polshani va Pribaltikani qisman bosib oldilar. Germaniya va Avstro – Vengriya barcha qurolli kuchlarining yarmi sharqiy frontda edi: ular og‘ir talofatlarga duch keldi, lekin Rossiyani separat sulxga qo‘shilishini majbur qilaolmadi.

1915 yili g‘arbiy frontdagi harbiy amallar asosan Shampan, Artua va Flandriyada Antanta askarlari xamlasiga qarshi turishdan iborat edi. Germaniya, xatto betaraf mamlakatlar kemalari qurbon bo‘lgan daxshatli suv osti urushi tufayli Angliyani tiz cho‘ktirishga urindi. Lekin, juda ko‘p AQSh fuqarolari qurbon bo‘lgani okean paraxodi «Luzitaniya» cho‘ktirilganidan so‘ng, AQSh va boshqa mamlakatlar hukumatlarining qat‘iy noroziligi natijasida german qo‘mondonligi fuqarolar kemalarini faqat ogohlantirilganidan keyin cho‘ktirishga ko‘rsatma berdi. Angliyaning talofatlari yuqori edi, lekin tez sur‘atlar bilan kemalar qurilishi va suv osti kemalariga qarshi samarali kurash olib borish yo‘llarini ishlab chiqarish, nemis suv osti kemalarining amallarini oldini oldi.

Boshi berk ko‘chadan chiqish maqsadida nemislar zarbani g‘arbga ko‘chirishga qaror qildilar. Fransuzlar poytaxtga darvoza deb hisoblagan va har qanday talofat evaziga muxofaza qilishga uringan qadimiy Verden qal‘asi yonidagi front yoqasini nemislar operatsiyaning asosiy ob‘ekt qilib oldilar. 1916 yilning 21 fevralida boshlanib va 1916 yil oxirida tugagan «Verden myasorubkasi» zaxiradagi ko‘p diviziyalarni yutib yuborib germaniya qo‘mondonligining ishonchini oqlamadi. 1916 yil yozida, anglo – fransuz qo‘mondonligi Somme daryosida katta harbiy yurishni boshladi. Sommedagi jang bir necha oy davomida 1916 yilning noyabrigacha daom etdi. Janglarning umumiy ko‘rinishiga ushbu jang hych qanday o‘zgarish kiritmadi.

Harbiy san‘atning yorqin namunasi sifatida mashhur «Brusilov yorib o‘tilishi» keltiriladi. 1916 yilning 3 iyunida general Brusilov qo‘mondonligi ostida janubiy - g‘arbiy front askarlari xamlani amalga oshirdilar, natijada Lutsk Chernovso‘ va boshqa shaharlarni egalladilar, hamda avstro – vengriya armiyasining qariyb 450 ming askar va zobitlarini asirga oldilar. 1914 –nchi yilning oxiridan urushga yana bir necha davlatlarni kirishi bilan Bolqon, Italiya va Avstro – Vengriya chegaralarida Yaqin va O‘rta Sharqda frontlar paydo bo‘ldi. Lekin, bu frontlarning barchasi sharqiy va g‘arbiy frontlarga nisbatan ikkinchi darajali edi.

Ikki yildan ortiq davom etgan janglar biror bir tomonga g‘oliblikni bermadi. Frontlarda «millatni o‘zagini» tashkil qilgan million erkaklarni qurbon bo‘lishi, hamda ochlik va iqtisodni barbod bo‘lishi. Jamiyatning barcha doiralariga ta‘sir ko‘rsatdi. Tinchlik talab g‘oyalar ham jonlandi. Janglarni davom ettirish Germaniyaga hych qanday manfaatlarni va‘da bermas edi. Angliya va uning ittifoqdoshlari nafaqat Germaniyaning barcha koloniyalarini qo‘lga kiritdilar, dengiz qurshovi borasida ham qattiq siyosat olib bordilar. Germaniyaning xolati 1916 yilning oxiriga kelib «favqulodda og‘ir va deyarli chorasiz» deya baholandi. Ushbu sharoitda 1916 yil 12 dekabrda kansler Betman Reyxstagda tinchlik talab ma‘ruzalar bilan chiqish qildi. Bir necha kundan so‘ng AQSh prezidenti Vilson omma oldida urushni to‘xtatish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida e‘lon qildi.

Lekin, Antanta mamlakatlari Betman va Vilson deklaratsiyalari asosida biror – bir kelishuvdan bosh tortdilar. Germaniya ham AQSh prezidenti platformasini rad etdi. Natijada 1917 yil bahorida sulh borasidagi muzokaralar boshlanmadi, boz ustiga urush ko‘lami kengayib boraverdi. 1917 yil 6 aprelda AQSh Germaniyaga qarshi urushga kirdi. Bunga sabab: german kemalarining amerika kemalariga hamlasini davom etishi edi. Lekin, asosiy sabab AQShning Germaniya o‘rtasidagi ziddiyatlar Antanta o‘rtasidagi ziddiyatlarga ko‘ra chuqurroq edi, nemislarning muvaffaqiyatlari Antanta muvaffaqiyatlaridan ko‘ra AQSh manfaatlariga ko‘proq taxdid solar edi.

AQShning moliyaviy kapitali Antanta mamlakatlarining to‘lov ishlaridan manfaatdor edi. Rossiyadagi 1917 yilgi inqilobiy voqyealar bu mamlakatni urushdan chiqardi. Rossiyaning Sovet hukumati, favqulodda og‘ir shartlar evaziga 1918 yili Germaniya bilan Brest shartnomasini imzoladilar. 1918 yil mart oyida nemislar G‘arbiy frontda kuchli jang qilishga urindilar. Yozga kelib, german kuchlari yana Marnaga yetib keldilar va Parijni o‘qqa tutdilar lekin, iyul oxiriga

kelib fransuz generali bosh ittifoqdoshlarning qarshi xujumini tashkillashtirdi. Shu davrdan boshlab tashabbusni Antanta o'z qo'liga oldi. Ichki ziddiyatlar va mashg'ulotlar ta'sirida qarama-qarshiliklarga uchragan Germaniyaning ittifoqdoshlari birin–ketin urushdan chiqib boshladilar. 29 sentyabr kuni Bolgariya Antanta tomonidan ko'rsatilgan sulh shartlarini imzoladi. Bir oydan so'ng 30 oktyabrda Turkiya yengilganligini bo'yniga oldi. 1918 yil 3 noyabrda gabsburg generaliteti vakillari Antantaga asir bo'ldilar. Imperiya esa inqilobiy voqyealar ta'sirida tarkibiy qismlarga bo'linib ketdi.

G'arbiy frontda ittifoqdoshlar bir qator yirik muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdilar. German qo'shinlarini ommaviy tarzda sharqqa quvish boshlandi. Urushning tugashi ayon bo'lib qoldi. 1918 yil 5 oktyabrda Germaniya Vilsonning «14 punkti»<sup>2</sup> bo'yicha muzokaralar olib borishga tayyor ekanligi to'g'risida e'lon qildi. 1918 yil 3 noyabrda Germaniyada inqilob boshlandi. Monarxiya ag'darilganidan keyin Germaniyaning yangi hukumati urushni to'xtatish bo'yicha muzokaralarni yakunlashga shoshildi. 1918 yili 11 noyabrda Kompen o'rmonida, Retond bekatida, marshal Fosh vagonida Germaniya delegatsiyasi tomonidan 36 kunlik vaqtincha yarash ahdiga imzo chekildi. Ushbu shartnoma 34 banddan iborat edi. Ulardan eng muhimlari: 15 kun ichida Belgiya, Fransiya, Lyuksemburg, Elzas va Lotaringiyadan german qo'shinlarini olib chiqib ketish; Germaniyani Brestlitovsk va Buxarest shartnomalarini rad etishi; harbiy anjomlarni g'oliblarga topshirish; harbiy asirlarni vatanlariga qaytarish. Birinchi jahon urushi yakun topdi.

## **BIRINCHI JAHON URUSHIDAN SO'NG XALQARO MUNOSABATLAR VA DIPLOMATIYA (1919–1939 yy.).**

### **Reja:**

1. Dunyoda birinchi jahon urushidan keyingi kuchlar taqsimoti.
2. Parij va Vashington konferensiyalari.
3. Versal - Vashington shartnomalaridan keyin xalqaro munosabatlardagi ziddiyatlar.
4. Jaxon iqtisodiy inqirozi davrida xalqaro munosabat.
5. Ikkinchi jahon urushi arafasidagi xalqaro munosabatlar

Birinchi jahon urushidan keyingi davr bo'yicha kuchlar taqsimoti bir qator ziddiyatlarni keltirib chiqardi. AQSh dunyo sahnasida birinchi bo'lishga astoydil intilar va Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya kabi raqobatchilari ustidan g'alaba qilishga xarakat qilar edi. Britaniya urushdan keyin ham o'z qudratini yo'qotmadi. Germaniya unga dengiz va jaxon bozorida raqobat qilishdan to'xtadi. Yaqin Sharqda Angliya Turk imperiyasini nazorat qilib turadi. Bu davrda Fransiyaning ham alohida o'rni bor edi. Fransuz premer ministri aktida marshal Fosh tarqatishga shoshmayotgan 2 millionli armiya turgan edi. Klemanso diplomatiyasi Yevropada Germaniya emas, Fransiyaning g'egemonligining ta'minlashdan iborat edi. Italiya Yaponiyaning bu masalada o'z fikriga ega edilar. Urushdan keyingi xalqaro munosabatlar Parij tinchlik konferensiyasida (18 yanvar) Vashington konferensiyasida tamom bo'ldi. Parij konferensiyasi 27 davlat namoyondalari ishtirok etdilar. Uni «ochiq diplomatiya» misolida o'tkazildi deyish mumkin. Konferensiyaga qatnashish uchun mingdan ortiq delegatlar kelishdi. Rossiya va Germaniyadan hech kim qatnashmadi.

Konferensiyaga urushdan keyingi ishlar muxokamasini qilishdi lekin asosiy masala Germaniya taqdiri bilan bog'liq edi. 1919 yil 28iyunda Germaniya davlati namoyondalari Versal saroyi oynali zalida urushdan keyingi asosiy xujjatlar bo'lgan tinchlik shartnomasiga imzo chekdilar. Tinchlik shartnomasi Germaniyasi ittifoqchilari bo'lgan Bolgariya, Turkiya, Avstriya, Vengriya davlatlarini ham tuzildi. Shartnomada taraqqiyotning muqaddas missiyasi ya'ni xali o'zini mustaqil boshqara olmaydigan davlatlarga yordam qo'lini cho'zish masalasiga ham aloxida e'tibor berildi. Versal shartnomasiga ko'ra Germaniya hududining sakkizdan bir qism

---

\* \* AQSh prezidenti Vilyson tomonidan ishlab chiqilgan sulh shartlari (1918 8 yanvar) 14 punktdan iborat. Karang: Дипломатический словарь. М. 1986 й., III том, 573-574 бетлар.

qismini va aholisining o'n ikkidan bir qismini yo'qotdi. Shuningdek Germaniya, Polsha, Chexoslavakiya, Lyuksemburg mustaqilligini tan oldi. Avstriya mustaqilligini qattiq xurmat qilish kerakligi ta'kidlandi. Germaniya koloniyalari Fransiya, Yaponiya, Portugaliya, Buyuk Britaniya, Belgiya davlatlari tomonidan bo'lib olindi. Germaniya urush va barcha oqibatlarni sababchisi deb topildi. Shunday bir vaziyatda Amerika diplomatiyasi Vashingtonda qurollanishni to'xtatish va «Uzoq sharq» Tinch okeanidagi muammolarni xalqaro etish to'g'risida xalqaro konferensiya chaqirish taklifi bilan chiqdi.

1921 yil 12 noyabrda ochilgan Vashington konferensiyasi to'qqiz davlat: AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Portugaliya, Xitoy davlatlari taklif qilindi. RSFSR va Uzoq Sharq Respublikalari taklif qilinmadi. Konferensiya davomida xalqaro munosabatlarning keyingi yillarda ta'sir qiluvchi bir necha kelishuvlar imzolandi.

Shuningdek 1921 yil 13 dekabrda AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya va Yaponiya davlatlari a'zolari to'rt davlat Traktatini tuzdilar.

1922 yil 6 fevralda Yaponiya, Britaniya, Fransiya, AQSh, Italiya mudofa kuchlari birlashib besh davlat Traktatiga qo'l qo'ydilar. Ular birgalikda xarbiy dengiz ittifoqining tuzishdi.

Vashington konferensiyasi eng ahamiyatga molik bo'lgan Xitoy muammosi bilan tanishib chiqdi. Uzoq Sharq Respublikalari chet el davlatlaridan shartnomalarning tezroq bajarishga chaqira boshladi. 1922 yilda janubiy Sibirdan Yapon askarlari olib chiqib ketildi. 1921 yilda ingliz-sovet shartnomasi buzilganligi uchun savdo aloqalarining buzganligi uchun chetlatildi.

1921 yil 6 may vaqtincha bitim tuzildi Germaniya xukumati bilan sovet elchisi Berlinda bitim tuzdi. Undan keyin Germaniya va Britaniya davlatlari bitim tuzishdi.

Ikkinchi jaxon urushi xalqaro munosabatlarni izdan chiqardi. 1929-1933 yillardagi xalqaro inqiroz g'olib davlatlarga ham qiyinchilik tug'dirdi.

Inqiroz so'ngida Yevropada kuchlar nisbatan o'zgardi. Germaniya o'z mustaqilligini mustaxkamlab iqtisodiyotini biroz yuksaltirishga erishdi. Yevropada Amerika Qo'shma Shtatlarining ta'siri kuchaydi.

Shu yillarda davlatlar xarbiy flotni qurollantirishga e'tiborni kuchaytirdi. 1930 yil yanvar-aprel oylarida Londonda xarbiy dengiz flotini qurollantirish bo'yicha AQSh, Britaniya va Yaponiya davlatlari o'rtasida konferensiya bo'lib o'tdi. Unda Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya va Yaponiya davlatlari xarbiy dengiz kuchlarini qaytadan ko'rib chiqdilar.

Fransiya davlati 30-yillar boshida Germaniya bilan yaqinlashishga xarakat qildi. Lekin bu amalga oshmadi. Chunki Germaniya siyosati o'ziga xos bo'lib, boshqa mamlakatlar bilan chiqisha olmas edi.

1932 yilning 2-fevralida Jenevada qurolsizlanish bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazildi. Konferensiyada Germaniya xalqaro xavfsilik va tenglikni ta'minlash maqsadida hamma davlat uchun betaraf davlat sifatida xarbiy iqtisodiyotini yuksaltirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu narsa xalqaro hamjamiyat tomonidan Germaniyaga qurollanish uchun rasman ruxsat berilganligini bildiradi.

Iqtisodiy inqiroz davrida Tinch okeani va Uzoq sharq dengiz yo'llari uchun kurash kuchaydi.

1931-1932 yillarda Yaponiya shimoliy-sharqiy Xitoy (Manjuriya) xududini bosib oldi. Xalqaro tashkilotlar bu bosqinchilikka e'tibor bermadilar. 1933 yillarda Yaponiya xalqaro milliy kengashidan rasman chiqqanligini ma'lum qildi. Shunday qilib Yaponiyaning Xitoyga nisbatan bosqinchilik siyosati yangi urush o'chog'ini yuzaga keltiradi.

Germaniya davlatiga Gitler boshchiligidagi milliy sotsialistki partiyaning rahbarlik qilishi xalqaro munosabatlarni keskinlashtirdi.

1933 yilning oktyabr oyida Germaniya ham milliy kengashdan chiqdi. Shu yilning mart oyida Germaniya xarbiy asirlarga umumiy avf e'lon qildi. Iyun oyida esa Angliya bilan dengiz xarbiy kuchlarni rivojlantirish bo'yicha shartnoma tuzdi.

Aksiga olib AQSh va Angliya singari yirik davlatlar ham Germaniyaning xarbiy-iqtisodiy yuksalishiga qarshilik ko'rsatmadi.

1935 yilda Germaniyadagi Saar viloyati xarbiy-iqtisodiy soxaga qaratilgan maxsus xududga aylantirildi.

Betaraflik siyosati Germaniya, Italiya va Yaponiyani Yevropada urushga tayorlanayotgan Germaniyaga nisbatan xayrixolik munosabatlariga olib keldi.

1936 yilning bahorida Italiya Efiopiyani bosib oldi. Shu yilning martida Germaniya qo'shinlari Reyn yerlari kiritildi. Bu xolatlar xech kim tomonidan e'tirozga uchramadi. 1936-1939 yillar Ispaniyada ro'y bergan grajdanlar urishi Germaniya va Italiya davlatlarining noqonuniy aralashuvi bilan o'z mazmunini o'zga o'gartirdi va yerda Franko boshchiligida fashistlar rejimi o'rnatildi.

1937 yilning yozida Yaponiya Xitoyga nisbatan bosqinchilik siyosatini kengaytirdi. Natijada Pekin, Tyanszin va shimoliy xududlarni bosib oldi. 1937 yilning avgustida Xitoyning eng katta shaxari Shanxay Yaponiya qo'shinlari tomonidan zabt etildi va Markaziy Xitoyni butunlay bo'ysindirish uchun harakat boshlandi.

Shunday qilib uchta bosqinchi davlat Germaniya, Italiya va Yaponiya 1937 yilning noyabrida dunyoni bo'lib olishning yangi rejasi bo'yicha kelishib oldilar.

1938 yilning martida Germaniya Avstriyani bosib oldi. Ertasi kuni Avstriyaning Germaniya tomonidan qo'yilgan yangi kansleri Zeyss Avstriya va Germaniya birlashganligini e'lon qildi. 1938 yilning aprelida Angliya, Fransiya va AQSh diplomatlari Vena shaxrida to'plandilar.

Asosiy masala fashistlar-germaniyasiga qarshi birlashish edi. Lekin o'sha davirdagi eng kuchli davlatlar jumladan SSSR ham Germaniya havfiga qarshi bir qarorga kela olmadilar. Ko'plab uchrashuvlar. Shartnomalar kutilgan natija bermadi. Yoki tuzilgan shartnoma bajarilmadi. Bu narsa Germaniyaga yangi imkoniyatlar berdi.

Germaniya Chexoslovakiyani ham zabt etdi. Angliya, AQSh va Fransiya davlatlarining rahbarlari Chexoslovakiyaga yordam berish o'rniga sukut saqlash avzal ko'rdilar. Faqat SSSR gina Chexoslovakiyaga yordam berishga tayyor ekanligini bildirdi. Lekin Chexoslovakiya bu imkoniyatdan foydalanmadi. Aksincha Germaniya qo'ygan talablarni bajarishga majbur bo'ldi.

1938 yilning 28 sentyabrida Myunxenda Chamberlen, Dalade, Mussolini va Gitler Chexoslovakiya taqdirini xal qilish uchun to'plandilar. O'n kun ichida Chexoslovakiya o'z xududining beshdan bir qismi va aholining to'rtida bir qismini tashkil etgan Sudet viloyatini Germaniyaga berishga rozi bo'ldi.

1939 yilning 15 martida Germaniya qo'shinlari Chexoslovakiyaning Moraviya viloyatini ham zo'rlik bilan qo'shib oldilar. Bosqinchilikdan atigi 3 kun oldin Slovakiya o'zining mustaqilligini e'lon qilgan edi. Bu urushga Angliya, Fransiya va AQSh qarshilik ko'rsatmadi. Chunki ular Germaniyaning sharqqa xujum qilishidan umidvor edilar. Shunday qilib xech qanday qarshilikka uchramagan Germaniya qo'shinlari birin-ketin Polsha, Litva va Albaniya mamlakatlarini bosib oldi. Shunday keyingina Angliya, Fransiya va AQSh davlatlari Germaniya, Italiya va Yaponiya dunyoni qaytadan bo'lib olish uchun hamkorlikda urush boshlaganliklarini sezib qolishdi.

1939 yilning 21 martida Fransiya va Angliya jujum bo'lgan taqdirda o'zaro yordam berish haqida shartnoma imzoladi.

Germaniyani SSSR qarshi qilib qo'yish bu davlatlarning asosiy maqsadi bo'lib qolaverdi.

1939 yilning iyulida Angliya, Germaniya bilan yashirin shartnoma imzolashga harakat qildi.

SSSR Angliya, Fransiya davlatlari rahbarlarining 1939 yilning yozida Moskvada bo'lib o'tgan uchrashuvi xech qanday natija bermadi.

Yevropada ikkinchi jaxon urushi har daqiqa boshlanishi mumkin edi. Sovet qo'shinlari esa uzoq sharqqa Yaponiyaga qarshi urushni boshlab yuborgan edilar.



1939 yil mayda Yaponiya Mo'g'uliston Xalq Respublikasiga hujum qildi. SSSR MXR bilan hamkorlik to'g'risida bitim tuzgan edi. MXR armiyasi Yaponlar bilan urushga kirdi. SSSR ikki frontda ya'ni sharqda va g'arbda urush olib borish havfiga tuch keldi.

Shuning uchun SSSR Germaniya bilan urush qilmaslik xaqida shartnoma imzolashga xarakat qildi va 1939 yilning 23-avgustida Germaniya va SSSR o'rtasida har qanday vaziyatda ham urush ochmaslik xaqida bitim imzolandi. Bu shartnoma xozirgacha tarixchilar o'rtasida baxs va munozaralarga sabab bo'lib qolmoqda.

## **IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA XALQARO MUNOSABATLAR VA DIPLOMATIYA (1939–1945 yy.)**

### **Reja:**

1. **«G'alati urush»ning boshlanishi.**
2. **Tinch rivojlanishi siyosatining barham topishi. /arbiy Yevropada Germaniya agressiyasi.**
3. **Germaniyaning SSSRga hujumi.**
4. **Antigitler ittifoqining tashkil topishi.**
5. **Harbiy harakatlarning borishi.**
6. **Urushning tugashi va natijasi.**

1939 yilga kelib Germaniya urushga tayyorgarligini yakunladi. Gitler Myunxen va Chexoslavakiyani bosib olish tajribasiga tayangan xolda Polshani ittifoqdoshlari Buyukbritaniya va Fransiyani Germaniyaga umuman urush qilmasliklariga, yoki har holda Polshaga amaliy yordam ko'rsatmasliklariga ishonch hosil qilgan edi. 1939 yil 1 sentyabrda Germaniya Polshaga bostirib kirdi. 1939 yil 3 sentyabrda Buyukbritaniya va Fransiya Germaniyaga urush e'lon qildi. Shunday qilib ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi.

Italiya Germaniyaning «jang qilmas ittifoqdoshi» yo'lini tutdi. AQSh o'zining betarafligini e'lon qildi. Son va texnik jihatdan nemis qo'shinlariga teng kelmaydigan Polsha armiyasi dushmanga bardosh beraolmas edi. 17-18 sentyabrda Polsha hukumati va harbiy qo'mondonlik Rumuniya hududiga o'tib ketdi. 28 sentyabrga kelib nemis qo'shinlari Varshavani qo'lga oldilar va oktyabrning boshlarida Polsha armiyasi qarshiligining oxirgi nuqtalarini bostirdi. Polsha mag'lubiyatga uchradi. Fransiya va Angliya Germaniyaga qarshi urush e'lon qilib hych bir harbiy amallarni boshlamadi. Shuning uchun ham, G'arbiy frontda «ajab urush» deb nomlangan urush olib borildi.

1939 yil 17 sentyabrda xujum qilmaslik to'g'risidagi sovet – german shartnomaining «qo'shimcha maxfiy protokoliga» asosan SSSR o'z qo'shinlarini G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiyaga olib kirdi. Sovet qo'shinlari Polshani sharqiy chegarasi sifatida 1919 yilda beliglangan «Kerzon chizig'ida» to'xtatilgan edi. 1939 yilning 28 sentyabrida SSSR va Germaniya tomonidan imzolangan «Do'stlik va chegara to'g'risidagi» shartnomaga asosan Germaniya va SSSR armiyalari o'rtasidagi demaraksion chiziq San va g'arbiy Bug daryolari bo'ylab o'rnatilgan edi. Polsha yerlari Germaniyaning nazoratida bo'lib, ukrain va beloruss yerlari esa SSSR qaramog'ida qolar edi. Sovet – german shartnomalarini imzolash, 1939-1940 yillardagi sovet – finn urushi, 1940 yilda SSSRni Millatlar Ligasidan chiqarilishi, boshlangan urushga Angliya, Fransiya va AQShning munosabatlari bularni hammasi aksil urush harakatiga juda katta zarar yetkazar edi va xalqaro axvolni tanglashtirdi.

«Ajab urush» dan foydalanib Germaniya faol harbiy amallarga tayyorgarlik ko'rdi. 1940 yil aprel oyida Daniya va Norvegiya bosib olindi. 1940 yil 10 maydan to 22 iyungacha Gollandiya, Belgiya va Fransiya bosib olindi. Angliya va Fransiyaga Italiya ham urush e'lon qildi. «ochiq shahar» deb e'lon qilingan Parij nemis qo'shinlariga jangsiz topshirildi. Fransiyaning o'zi ikki zonaga bo'lingan edi: bosib olingan hudud (mamlakatning shimoliy va markaziy qismi) va bosib olinmagan qismi (Marshal Peten xukmronligi o'rnatilgan mamlakatning janubiy qismi). «Xotirjamlik» siyosatining to'la barbod bo'lishi natijasida

Angliyada N.Chemberlen o'rniga xokimiyat tepasiga nemis qo'shinlariga qarshi kurashni tashkil etgan Uinston Cherrchill boshchiligidagi koalitsion hukumat keldi.

Gitlarning vaxshiyona bombardimon qilish yo'li bilan Angliyani sindirish rejalari barbod bo'ldi. Britan orollariga qo'shin tushirish rejasidan ham voz kechildi. 1939 yilning o'zida AQSh urushidagi mamlakatlarga AQShdan qurol – aslaxa va harbiy anjomlar sotib olish imkoniyatini berish uchun betarflik qonunini qayta ko'rib chiqdi. 1941 yil 11 martda AQSh uchun mudofaasi o'ta muhim bo'lgan mamlakatlarga qurol – aslaha va anjomlarni ijaraga yoki qarzga berishga yo'l qo'yuvchi Lend-liz to'g'risida qonun qabul qilindi. Ushbu qonun Angliyaga AQShdan katta miqdorda yordam olishga imkon berdi. 1940 yilning sentyabr oyida siyosiy va harbiy iqtisodiy ittifoq to'g'risida Germaniya, Italiya va Yaponiya o'rtasidagi Uchliklar pakti imzolandi. Shu vaqt ichida harbiy amallar Afrikada va O'rtaer dengizi hududida olib borildi. Italiya qo'shinlarini Shimoliy–Sharqiy Afrikadagi Britaniya armiyasidan mag'lubiyati Germaniyani Liviyaga ekspeditsion armiyasini tashlashga majbur qildi. Nemis qo'shinlari Italiya qo'shinlari bilan birgalikda 1941 yil martda britaniyaliklarni Misr sarhadi tomon chekinishga majbur qildi.

1941 yil apreliga kelib Germaniya Yugoslaviya va Sharqiy Yevropa ustidan o'z nazoratini o'rnatdi. Ruminiya, Vengriya, Yugoslaviya va Gretsiya ham bosib olingan edi. Nemis qo'shinlari kiritilgan Bolgariya ham 1941 yilning mart oyida uchlik paktiga kiritilgan edi. Shunday qilib, SSSRga xujum qilish uchun maydon (platsdarm) bunyod etilgan edi. 1941 yil 22 iyunda hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomani buzgan holda Germaniya urush e'lon qilmasdan turib SSSRga xamla qildi. Qurolli kuchlaridagi qayta qurish oxiriga yetkazilmaganligi va dag'al xatolarga yo'l qo'yilganligi, armiyaning qo'mondon tarkibidagi ommaviy jazo choralar, Germaniya bilan tuzilgan shartnoma bahosini oshirib yuborilganligi, urushning birinchi yillarida SSSRni deyarli mag'lub holatga olib keldi.

Lekin, katta ichki imkoniyatlarni ishga solish bahosi evaziga SSSR urushda burilish yasashga muvaffaq bo'ldi. Butun urush jarayonida Sovet – German fronti asosiy va hal qiluvchi front edi. Sovet – german frontida bo'lib o'tgan bir qator yirik janglarda (Moskva ostonasidagi jang, Leningrad qamali, Stalingrad jangi, Kursk jangi va b.)nemis qo'shinlari qaqshatgich zarbaga duchor bo'ldilar. Aslida, ushbu janglarda Germaniyaning harbiy mashinasi tor–mor qilingan edi va urush natijasi oldindan ayon bo'ldi. Germaniyaning SSSRga hujumi boshlanganidan so'ng davlatlarning aksilgitler kaolitsiyasi shakllana boshlandi. SSSR, AQSh va Buyukbritaniya tashkil qilgan bunday kaolitsiya asosini 1942 yilning iyuniga kelib uzil–kesil shakllandi. 1943 yil yozidagi nemis qo'shinlarini Kurskdagi qaqshatgich mag'lubiyati va shu yilning sentyabr oyida Italiyani urushda boy berishi anglo–amerika qo'shinlari tomonidan Sitsiliyani qo'lga olinishi va ularni Appenin yarim oroliga kirib borishi fashist – harbiy blokini barbod bo'lishini boshlanishi edi.

Asosiy janglar Yevropa qit'asida bo'lgan bo'lsa–da harbiy amallar Afrika, Osiyo va Tinch okeanida ham boshlangan edi. 1941 yil 7 dekabrda Yapon havo kuchlari tomonidan AQShning Pyorl- xarbordagi (Gavay orollari) harbiy dengiz bazasiga yopirilgan o'q uzildi. Janubiy – Sharqiy Osiyoda Yaponiya juda keng hujumlarni boshlab yubordi. 1942 yilning may oyiga kelib, yapon qo'shinlari Tinch okeanining ko'p sonli orollarida joylashgan AQSh va Angliyaning harbiy – dengiz bazalarini bosib oldi. Janubiy - G'arbiy Xitoy va Sharqiy Xindiston ham bosib olingan edi. Lekin, 1942 yil may – iyun oyidagi janglar natijasida AQSh Yaponiyaga qator tor – mor qiluvchi zarbalar berishga erishdi. Yaponiyaning harbiy – dengiz qudrati zaiflashdi va u Tinch Okeani xavzasida mudofaaga o'tishga majbur bo'ldi.

Nemislarning asosiy kuchlarini sovet – german frontiga tortilishi, 1942 yilning oktyabrda britan qo'shinlariga Afrikada xujumga o'tishga imkoniyat berdi. Yaqin Sharq mamlaktalariga qaratilgan tahdidi yo'q qilindi. 1943 yilning may oyida shimoliy Afrikadagi italo – german qo'shinlari to'la taslim bo'ldilar. AQSh, SSSR va Angliya hukumat boshliqlarining Tehron konferensiyasi vaqtida (28 noyabr – 1 dekabr 1943 y) g'arbiy Yevropada, Fransiyada ikkinchi front ochish to'g'risida qaror qabul qilingan edi. Lekin ittifoqdoshlar qo'shinlarini turishi bir necha bor kechiktirilgan edi. 1944 yilning birinchi yarmida sovet qo'shinlari qator yirik harbiy operatsiyalarni amalga oshirdilar. Bundan keyin ikkinchi frontni ochishni kechiktirilishi mumkin

bo'lmay qoldi. 1944 yilning 6 iyunida ittifoqdosh anglo – amerika qo'shinlari Normandiyaga (Fransiya) borib tushdilar va asta – sekinlik bilan sharqqa qarab yurdilar. 1944 yil oxiriga kelib, ittifoqdoshlar Fransiya, Belgiya va Markaziy Italiyadan nemis qo'shinlarini haydab chiqardilar.

1944 yilning ikkinchi yarmi 1945 yil boshlarida janubiy–sharqiy va markaziy Yevropa mamlakatlari sovet qo'shinlari tomonidan ozod etdilar. Germaniya o'z ittifoqdoshlari Ruminiya, Bolgariya, Finlyandiya va Vengriyadan ajraldi – ular qurshov holatida edi. 1945 yil fevral oxiridan harbiy amallar Germaniya hududiga ko'chirildi. 1945 yil, 4-11 fevralda Qrimda (Yalta) uch buyuk davlatlar boshliqlarining SSSR, AQSh va Buyukbritaniya konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiyada ittifoqdoshlarning keyingi harbiy amallari tartibga solindi, taslim bo'lganidan keyin Germaniya ustidan nazorat usullari va shakllari belgilab olindi. SSSR Germaniya taslim bo'lganidan so'ng 2-3 oydan keyin Yaponiya bilan urush boshlash shartlarini o'z zimmasiga oldi. Uch davlat qaroriga ko'ra, 1945 yil 25 aprelda San – Fransiskoda ochilgan konferensiyada Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ta'sis etildi. Umumiy tinchlikni qo'llab - quvvatlash borasida bosh ma'suliyat xavfsizlik Kengashiga yuklandi.

1945 yil aprelda Sovet armiyasi Berlinga qat'iy hujumni boshladi. G'arbdan esa anglo – amerika qo'shinlari xamlani boshladilar. 1945 yili, 25 aprelda Elba daryosida, Torgau shaxri yonida ittifoqdosh qo'shinlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. 1945 yil 29 aprelda Shimoliy Italiyada nemis qo'shinlarining qoldig'i taslim bo'ldi. «Salo respublikasi» barbod qilinib, Mussolini esa partizanlar tomonidan otib tashlandi. Germaniya poytaxtini qurshovga olib, sovet qo'shinlari 2 may kuni hujum bilan Berlinni qo'lga kiritdilar. 1945 yil 8 may kuni Germaniya qo'mondonligi shartsiz taslim bo'lish to'g'risidagi hujjatga imzo chekdi. Germaniya qo'shinlarining bir qismi Praga hududida qo'zg'olonchilarga qarshi harbiy amallarni davom ettirdi, lekin sovet qo'shinlarining tez sur'at bilan qilgan zarbalari tufayli ular tor – mor etildi. 1945 yil 9 mayda Praga ozod etildi. Yevropada harbiy harakatlar to'xtatildi.

1945 yil 17 iyundan to 2 avgustga qadar Berlin atrofida Potsdam degan shaharchada SSSR, AQSh va Buyukbritaniya rahbarlarining uchinchi konferensiyasi bo'lib o'tdi. Potsdam konferensiyasi dunyoni urushdan keyingi tartibotiga bag'ishlangan edi. Konferensiya ishining markazida Germaniyaga nisbatan siyosat masalasi edi. Ittifoqdoshlar Germaniyani to'la qurolsizlantirish, harbiysizlantirish, fashist partiyasini yo'q qilish, bosh harbiy jinoyatlarni sudga berish, Germaniyada so'z, axborot va din erkinligini, erkin kasaba uyushmalarini hamda demokratik partiyalarning faoliyatini tiklashga qaror qildilar. 1945 yil martida anglo – amerika qo'shinlari Janubiy – Sharqiy Osiyo va Tinch okeani havzasida Yaponiyaga qarshi muvaffaqiyatli harakatlarni amalga oshirdi. SSSR o'z zimmasiga olgan majburiyatlariga asosan 1945 yil 9 avgustda Yaponiyaga qarshi urushga kirdi. Sovet qo'shinlarining Mongoliya qurolli kuchlari bilan birgalikda kuchli zarbasi natijasida Kvantun armiyasi tor – mor qilindi. Shimoliy – Sharqiy Xitoy, Shimoliy Koreya, Janubiy Saxalin va Kuril orollari Yapon qo'shinlaridan ozod qilindi.

6 va 9 avgust kunlari amerika aviatsiyasi Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombalarini tashladi. Yadro qurolini ishlatish harbiy zaruriyatdan kelib chiqmagan edi, chunki Yaponiyaning harbiy mashinasi barbod bo'lgan edi. 1945 yil 2 sentyabr kuni Tokio ko'rfazida «Missuri» deb nomlangan amerika linkori bortida Yaponiya urushda mag'lubiyatga uchraganligi to'g'risidagi AKTni imzoladi. Shunday qilib ikkinchi jahon urushi yakun topdi. Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng og'ir va eng qonli urush bo'ldi. U XX asr tarixida keskin burilish yasagan davrga aylandi. Urushning asosiy natijasi – fashizm ustidan o'rnatilgan g'alaba edi. Urush jarayonida kolonial tizimining barbod bo'lishi boshlandi. SSSRning obro'yi nihoyatda oshib ketdi. Buyuk davlatlardan faqat AQSh urushdan e'tiborli darajada qudratli bo'lib chiqdi. Ikkinchi jahon urushi natijasida xalqaro siyosatida kuchlarning nisbati keskin o'zgardi.

## II JAHON URUSHIDAN SO‘NG XALQARO MUNOSABATLAR VA DIPLOMATIYA (1946-1990 yy.)

### Reja:

1. **Urushdan so‘ng dunyoni tartibga solish muammolari.**
2. **«Sovuq urush».**
3. **80-90 yillarda xalqaro munosabatlar.**

Olti yil davom etgan II jahon urushi fashistlarning yanchilishi bilan tamom bo‘ldi. Fashist boshliqlarining ko‘plab xalqlarning yo‘q qilish va tiz cho‘ktirish, dunyoga beaded hukmronlik qilish kabi buzuq niyatlari ulotirib tashlandi.

G‘alabaga og‘ir talofotlar va yo‘qotishlar evaziga erishildi. II jahon urushida 60 dan ortiq davlat ishtirok etdi. 1,7 mlrd. aholi ishtirok etdi, 110 mln.dan ortiq askar qatnashdi, o‘ldirilgan va yarador bo‘lganlar 60 mln.dan oshadi, yarador va mayiblar 20 mn.dan ortiq.

Urushning asosiy yakuni jahon sivilizatsiyasining qutqarib qolingani, insoniyatning taraqqiyoti yo‘lida yashashi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganidir.

Potsdam konferensiyasi qaroriga ko‘ra, tashqi ishlar vazirlari Kengashi (TIVK) ta‘sis etilib, unga tinchlik o‘rnatish bo‘yicha tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish yuklatildi. 1946 yilning iyul-oktyabrda bo‘lib o‘tgan Parij tinchlik konferensiyasi TIVK tayyorlagan tinchlik shartnomalari loyihalarini ko‘rib chiqdi, ularda gitlerchilar Germaniyasining sobiq ittifoqchilari-Bolgariya, Vengriya, Italiya, Ruminiya va Finlandiya bilan munosabatlar aniqlashtirilgan edi. Bu hujjatlar 1947 yilning 10 fevralida imzolandi.

Parij tinchlik konferensiyasidan so‘ng urushdan keyingi dunyoni tartibga solish borasida SSSR va G‘arb davlatlari o‘rtasida kelishmovchiliklar vujudga keldi.

Germaniya haqidagi Podstam qarorlarini bajarishda yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar amalda to‘rt tomonlama boshqaruv mexanizmini parchalab tashladi va german muammosini o‘zaro maqbul asoslarda boshqarish imkoniyatlarini yo‘qqa chiqardi. 1949 yilda Germaniyaning parchalanishi tarixiy fakt bo‘lib qoldi. Uning hududida turlicha ijtimoiy tuzumdagi ikki davlatning tashkil topishi Yevropa rivojlanishiga juda katta ta‘sir o‘tkazdi.

SSSRning Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam haqidagi shartnomalarning tuzilishi natijasida xalqaro munosabatlarda yangi tizim shakllandi.

Шунинг учун ҳар бир профессор-ўқитувчи дастлаб талабадан ўз қобилияти ва ақлий имкониятларига ишонч уйғотиши, уларни сабр-тоқат билан, босқичма-босқич мустақил билим олишни тўғри ташкил қилишга ўргатиб бориши лозим бўлади. Талабалар томонидан мустақил ўзлаштириладиган билим ва кўникмаларнинг курсдан-курсга мураккаблашиб, кенгайиб боришини ҳисобга олган ҳолда уларнинг ташаббускорлиги ва ролини ошириб бориш зарур. Шунда мустақил таълимга кўника бошланган талаба фақат ўқитувчи томонидан белгилаб берилган ишларни бажарибгина қолмай, ўзининг эҳтиёжи, қизиқиши ва қобилиятига қараб, ўзи зарур деб ҳисобланган қўшимча билимларни ҳам мустақил равишда танлаб ўзлаштиришга ўрганиб боради.

**Талабалар мустақил ишларининг шакли ва ҳажмини белгилашда қўйидаги жиҳатлар эътиборга олиниши лозим:**

- ўқиш босқичи;
- муайян фаннинг ўзига хос хусусияти ва ўзлаштиришдаги қийинчилик даражаси;
- талабанинг қобилияти ҳамда назарий ва амалий тайёргарлик даражаси (таянч билими);
- фаннинг ахборот манбалари билан таъминланганлик даражаси;
- талабанинг ахборот манбалари билан ишлай олиш даражаси;

Мустақил иш учун бериладиган топшириқларнинг шакли ва ҳажми, қийинчилик даражаси семестрдан – семестрга кўникмалар ҳосил бўлишига мувофиқ равишда ўзгариб, ошиб бориши лозим. Яъни, талабаларнинг топшириқларни бажаришдаги мустақиллиги даражасини аста-секин ошириб, уларни топшириқларни бажаришга тизимли ва ижодий ёндашишга ўргатиб бориш керак бўлади.

ТМИ ни ташкил этишда талабанинг академик ўзлаштириш даражаси ва қобилиятини ҳисобга олган ҳолда қўйидаги шакллардан фойдаланиш мумкин:

- фаннинг айрим мавзуларини ўқув адабиётлари ёрдамида мустақил ўзлаштириш, ўқув манбалари билан ишлаш;
- амалий, семинар ва лаборатория машғулотларига тайёргарлик кўриб келиш;
- маълум мавзу бўйича реферат тайёрлаш;
- курс иши (лойиҳалар)ни бажариш;
- битирув малакавий иши ва магистрлик диссертацияси учун материаллар тўплаш;
- ҳисоб-китоб ва график ишларини бажариш;
- макет, модел ва бадий асарлар устида ишлаш;
- амалиётдаги мавжуд муаммонинг ечимини топиш, тест, мунозарали саволлар ва топшириқлар тайёрлаш;
- илмий мақола, тезис ва маъруза тайёрлаш;
- амалий мазмундаги ностандарт масалаларни ечиш ва ижодий ишлаш;
- уй вазифаларини бажариш ва бошқалар;

Фан хусусидан келиб чиққан ҳолда талабаларга мустақил иш учун бошқа шакллардаги вазифалар ҳам топширилиши мумкин. Талабаларга қайси турдаги топшириқларни бериш лозимлиги кафедра томонидан белгиланади. Топшириқлар пухта ўйлаб ишлаб чиқилган ва маълум мақсадга йўналтирилган бўлиб, талабаларнинг аудитория машғулотларида олган билимларини мустаҳкамлаш, чуқурлаштириш, кенгайтириш ва тўлдиришга хизмат қилиш керак.

**Мавзуни мустақил ўзлаштириш.** Фаннинг хусусияти, талабаларнинг билим даражаси ва қобилиятига қараб ишчи ўқув дастурига киритилган алоҳида мавзулар талабаларга мустақил равишда ўзлаштириш учун топширилади. Бунда мавзунинг асосий мавзунини ифодалаш ва очиб беришга хизмат қиладиган таянч иборалар, мавзуни тизимли баён қилишга хизмат қиладиган саволларга эътибор қаратиш, асосий адабиётлар ва ахборот манбаларини кўрсатиш лозим.

Топшириқни бажариш жараёнида талабалар мустақил равишда ўқув адабиётларидан фойдаланиб ушбу мавзуни конспектлаштирадилар, таянч ибораларнинг моҳиятини англаган ҳолда мавзуга таалуқли саволларга жавоб тайёрлайдилар. Зарур ҳолларда (ўзлаштириш қийин бўлса, саволлар пайдо бўлса, адабиётлар етишмаса, мавзуни тизимли баён эта олмаса ва х.к.) ўқитувчидан маслаҳатлар оладилар.

Мустақил ўзлаштирилган мавзу бўйича матн кафедрада химоя қилинади.

**Реферат тайёрлаш.** Талабалар қийинчилик даражаси унинг шахсий имкониятлари, қобилияти ва билим даражасига мувофиқ бўлган бирор мавзу бўйича реферат тайёрлаш топширилади. Бунда талаба асосий адабиётлардан ташқари қўшимча адабиётлардан (монографиялар, илмий, услубий мақолалар, интернетдан олинган маълумотлар, электрон кутубхона материаллари ва х.к.) фойдаланиб материаллар йиғади, таҳлил қилади, тизимга солади ва мавзу бўйича имкон даражасида тўлиқ, кенг маълумот беришга ҳаракат қилади. Зарур ҳолларда ўқитувчидан маслаҳат ва кўрсатмалар олади.

Яқунланган реферат кафедрада экспертлар иштирокида химоя қилинади.

**Кўргазмали воситалар тайёрлаш.** Талабага муайян мавзуни баён қилиш ва яхшироқ ўзлаштириш учун ёрдам берадиган кўргазмали материаллар (жадваллар, чизмалар, расмлар, хариталар, макетлар, моделлар, графиклар, намуналар, мусикий асар, кичик бадий асар ва х.к.) тайёрлаш топширилади. Мавзу ўқитувчи томонидан аниқланиб,

талабага маълум кўрсатмалар, йўл-йўриқлар берилади. Кўргазмали воситаларнинг миқдори, шакли ва мазмуни талаба томонидан мустақил танланади. Бўндай вазифани бир мавзу бўйича бир неча талабага топшириш ҳам мумкин.

Талаба кўргазмали материаллардан фойдаланиш бўйича ёзма равишда тавсиялар тайёрлайди ва кафедрада ҳимоя қилади.

**Мавзу бўйича тестлар, мунозарали саволлар ва топшириқлар тайёрлаш.** Талабага муайян мавзу тестлар, қийинчилик даражаси ҳар хил бўлган масалалар ва топшириқлар, мунозарага асос бўладиган саволлар тузиш топширилади.

Бунда ўқитувчи томонидан талабага тестга қўйиладиган талабалар ва уни тузиш қонун-қоидалари, қандай мақсад кўзда тутилаётганлиги, муаммоли саволлар тузишда мавзунинг тузиш усуллари бўйича йўл-йўриқ берилади. Консультация пайтларида бажарилган ишларнинг қўйилган вазифа ва талабаларга жавоб бериш даражаси назорат қилинади (қайта ишлаб келиш, аниқлаштириш ёки тўлдириш таклиф этилиши мумкин).

Тест, савол ва топшириқлар мажмуаси кафедрада экспертлар иштирокида ҳимоя қилинади.

**Илмий мақола, тезислар ва маърузалар тайёрлаш.** Талабага бирон бир мавзу бўйича (мавзуни талабанинг ўзи танлаши ҳам мумкин) илмий (рефератив) характерда мақола, тезис ёки маъруза тайёрлаш топширилиши мумкин. Бунда талаба ўқув адабиётлари, илмий-тадқиқот ишлари, диссертациялар, мақола ва монографиялар ҳамда бошқа ахборот манбаларидан ажратиб олиб, тартибга солади, шахсий тажрибаси ва билими, илмий натижаларига асосланган ҳолда қўшимчалар, изоҳлар киритади, ўз нуқтаи назарини баён этади ва асослайди. Бунда талаба ўқитувчи билан ҳамкорликда ишлайди.

Тайёрланган мақола, тезис ёки кафедрада ҳимоя қилинади.

**Амалий мазмундаги ностандарт масалаларни ечиш ва ижодий ишлаш.** Бир мавзу ёки бўлим бўйича ностандарт, алоҳида ёндашиш талаб қилинадиган, назарий аҳамиятга эга бўлган амалий топшириқлар, ижодий ёндашиш талаб қилинадиган, назарий аҳамиятга эга бўлган амалий топшириқлар, ижодий ёндашиш талаб қилинадиган илмий-ижодий вазифалар, моделлар, макетлар, намуналар яратиш вазифаси топширилиши мумкин. Амалий топшириқлар масалани ҳал қилишнинг оптимал вариантларини излашга ва топишга қаратилган бўлиши керак.

Талабанинг қизиқиш ва қобилиятига қараб, унга илмий характердаги топшириқлар бериш, ўқитувчи билан ҳамкорликда илмий мақолалар тайёрлаш ва чоп этириши мумкин.

**Талабалар мустақил ишини самарали ташкил этишда:**

- тизимли ёндошиш;
- барча босқичларини мувофиқлаштириш ва узвийлаштириш;
- бажарилиши устидан қатъий назорат ўрнатиш;
- ташкил этиш ва назорат қилиш механизмларини такомиллаштириб бориш зарур.

**Мустақил иш топшириқлари муваффақиятли яқунланиши учун қўйидаги талабалар бажарилиши лозим:**

- мақсад (билимни мустаҳкамлаш, янги билимларни ўзлаштириш, ижодий фаолликни ошириш, амалий кўникма ва малакаларни шакллантириш ва ҳ. к) аниқ асосланиши;
- вазифа ва топшириқларнинг аниқ-равшан белгиланиши;
- топшириқларни бажариш алгоритми ва методларидан талабаларнинг етарли даражада хабардор бўлиши;
- маслаҳат ва бошқа ёрдам турларининг тўғри белгиланиши (йўлланма ва кўрсатма бериш, мавзунинг мазмуни ва моҳиятини тушунтириш, муаммоли топшириқларни бажариш усуллари бўйича тушунча бериш, айрим муаммоли моментларни биргаликда ҳал қилиш ва ҳ.к);
- ҳисобот шакли ва баҳолаш мезонини аниқ белгилаш;

- назорат вақти, шакли ва турларини аниқ белгилаб олиш (амалий, семинар, лаборатория машғулоти, консультация учун ёки назорат учун махсус ажратилган вақт; маъруза ё реферат матни бажарилган топшириқлар дафтари, назорат ишлари, уй вазифаси дафтари, курс ишлари, тест, мақола, ностардарт топшириқлар, саволлар, мақола, кўргазмали жиҳозлар ва ижодий ишлар, савол-жавоб, бажарилган иш мазмуни ва моҳиятини тушунтириб бериш, ёзма шаклда баён қилиш ва ҳ.к.)

**Талабалар мустақил ишини шартли иккига ажратиш мумкин:**

а) аудиторияда амалга ошириладиган ТМИлари. Ўтилган мавзунини қайта ишлаш, кенгайтириш ва мустақамлашга оид топшириқлар бажарилади;

б) аудиториядан ташқарида амалга ошириладиган ТМИлари, ўқув дастуридаги айрим мавзуларни мустақил ҳолда ўзлаштириш, уйга берилган вазифаларни бажариш, амалий ва лаборатория ишларига тайёргарлик кўриб келиш, ижодий ва илмий-тадқиқот характеридаги ишлар ва ҳ.к.

Биринчи тур ишлари талабаларнинг назарий ва амалий билимларини ўзлаштириб бориш даражаси, амалий машғулотларга (амалиёт, лаборатория, семинар дарслари) тайёргарлик савияси ва уй вазифаларининг бажарилиш сифатини текшириш мақсадида одатда, назорат ишлари олиш савол-жавоб, суҳбат, мунозара, амалий топшириқларни бажартириб кўриш ва ҳ.к. усуллардан асосан амалиёт дарсларида назорат (жорий назорат) қилинади.

Жорий назоратда талабанинг дарс пайтида ўтилган материалларни ўзлаштириши ва уйга берилган топшириқларни бажаришдаги фаоллиги, бажариш савияси ва ўзлаштириш даражаси эътиборга олинади.

Иккинчи тур ишлар фаннинг ишчи ўқув дастурида аудиториядан ташқарида ўзлаштирилиши белгиланган мавзу бўйича маълумот ва ахборотларни мустақил равишда ишлаб топиш, таҳлил қилиш, конспектлаштириш (ёки реферат тарзида расмийлаштириш) ва ўзлаштириш, ижодий ёндашишни талаб қиладиган амалий топшириқларни бажариш кўринишида амалга оширилади. Бу турдаги ишларни бажариш жараёни ва ўзлаштириш сифатининг назорати дарсдан ташқари пайтларда, махсус белгиланган консультация соатларида амалга оширилади.

**Талабалар мустақил ишини баҳолаш.** ТМИ натижалари амалдаги “Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиши ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги Низом”га асосан баҳолаб борилади.

*Намуна*

**Талабалар мустақил иши бўйича консультациялар ташкил этиш тартиби**

1. Талабалар мустақил иши (ТМИ) бўйича **консультация дарси** аудиториядан ташқарида амалга оширишга мўлжалланган мустақил ишларни бажариш юзасидан тегишли йўлланмалар бериш ва уни бажарилишини назорат қилиб бориш мақсадида ташкил қилинади.

2. ТМИ бўйича консультация дарси фаннинг календар-тематик режасига мувофиқ ўтказилади.

3. Консультация дарси тегишли фан ўқитувчиси томонидан ўтказилади.

4. Фан ўқитувчиси консультация дарсида қуйидаги ишларни амалга оширади:

ТМИ топшириқларини бажариш юзасидан тегишли йўлланма беради;

топшириқни бажариш режасини тузишга ёрдамлашади;

тегишли адабиётлар ва ахборот манбаларини тавсия қилади;

ТМИ юзасидан тайёрланган ишланма, хисобот, реферат, хисоб-китоб ва топшириқ натижаларини қабул қилади ҳамда баҳолайди.

5. ТМИ бўйича консультациялар ўқув жараёнининг 1 ёки 2 семенада ташкил этилишига қараб талабаларнинг дарсдан бўш вақтларида дарс жадвалига киритилади.

### Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Nazariy va seminar mashg'ulotlari o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Badiiy asarlarni estetik-g'oyaviy jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni kuzatib borish. Malakaviy amaliyotni o'tish chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning muayyan xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan boblari va mavzularni o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarning o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslublari qo'llanadigan o'quv mashg'ulotlari.

### Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

№	Mustaqil ta'lim mavzlari	Berilgan topshiriqlar	Bajarilish muddati	Hajmi (soat)
1	Qadimgi Yunonistonda Afina-Sparta raqobati.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	3 - hafta	2
2	Muqaddas Rim imperiyasi va Papalik	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	3 - hafta	2
3	O'rta asrlarda Hindistonda xalqaro munosabatlar va diplomatiya	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	4- hafta	2
4	O'rta asrlarda Xitoyda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	4- hafta	2
5	Yevropada diplomatik xizmatning shakllanishi.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	5- hafta	2
6	Respublika davrida Rim diplomatiyasi va tashqi siyosati.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	5- hafta	2
7	Savdo kompaniyalari va xalqaro munosabatlar (XVII-XIX).	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	6- hafta	2
8	Yevropa davlatlari va Usmoniylar imperiyasi (XVI-XVII asrlar).	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	6- hafta	2
9	Gabsburglar monarxiyasining tashqi siyosati (XVIII-XIX).	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	7- hafta	2
10	XVII asrda Ispaniyaning Evropadagi ustivorligi	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	7- hafta	2
11	Fridrix II ning tashqi siyosati va diplomatiyasi (1740-1786 yy.).	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	8- hafta	2
12	XVIII asrda Angliyaning tashqi siyosati.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	8- hafta	2
13	Florensiya va Venesiya xalqaro	O'quv adabiyotlari yordamida	9- hafta	2



	munosabatlar tizimida (XII-XV asrlar).	mustaqil izlanish.		
14	XVIII asrda Rossiya imperiyasining tashqi siyosati O'zbekistonda 40-yillar oxiri - 50-yillar boshidagi qatag'onlar	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	9- hafta	2
15	Arab xalifaligi va Yevropa	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	10- hafta	2
16	Bolqon yarim oroli xalqaro munosabatlar tizimida (XVII-XIX asrlar).	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	10- hafta	2
17	Filipp II tashqi siyosati va diplomatiyasi	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	11- hafta	4
18	Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida BMTning tutgan o`rni.	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	11- hafta	2
19	Yetakchi davlatlarning Uzoq Sharqdagi siyosati (1918-1939 yy.).	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	12- hafta	2
20	Fashizm va Evropada xalqaro munosabatlar	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	12- hafta	2
21	Afg'on masalasi xalqaro munosabatlar tizimida.	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	13- hafta	2
22	Yaqin va O`rta Sharqda xalqaro munosabatlar (1945-1990 yy.).	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	13- hafta	2
23	Yevropada xavfsizlikni ta'minlash masalasi (1945-1990 yy.).	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	14- hafta	2
24	1854-1918 yillarda Yaponiyaning tashqi siyosati	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	14- hafta	4
25	XIX asr oxiri - XX asr boshida Italiyaning tashqi siyosati.	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	15- hafta	2
26	Usmoniylar imperiyasi va XIX asrda ingliz-turk munosabatlari	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	15- hafta	2
27	XIX asrning ikkinchi yarmida Germaniyaning tashqi siyosati	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	16- hafta	2
28	XVII-XVIII asrlarda Angliya-Gollandiya raqobati	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	16- hafta	2
29	Korinf kongressi (338-337 mil. avv. yillar).	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	17- hafta	2
30	XX asrning ikkinchi yarmida mustamlakachilik tuzumining qulashi.	O`quv adabiyotlari yordamida mustaqil izlanish.	17- hafta	4
<b>JAMI</b>				<b>36</b>

## GLOSSARIY

“XALQARO MUNOSABATLAR VA DIPLOMATIYA TARIXI” FANIDAN  
GLOSSARIY

Agreman	- bir davlatning boshqa davlat doimiy diplomatik vakilini o‘z mamlakatida qabul qilish roziligi.
Alyans	- ittifoq, uyushma
Anneksiya	- bosib olish, bir davlat territoriyasini (yoki uning bir qismini) boshqa davlat tomonidan qo‘shib olinishi.
Attashe	- kichik diplomatik daraja; elchixonalarda va missiyalardagi diplomatiya sostavidagi lavozimli kishi
Blitskrig	- yashin tezligidagi urush.
Verbal nota	- (imzosiz nota) – diplomatik notaning bir turi: uchinchi shaxs nomidan imzosiz tuziladi va og‘zaki bayonotga tenglashtiriladi.
Gegemoniya	- birinchilik, kuchda, ta'sirda ustunlik; hukmron mavqye.
Denonsatsiya	- o‘zaro shartnomani bir davlat tomonidan bekor qilinganligi to‘g‘risida xabar berilishi
Diplomatiya	- chet el davlatlari bilan aloqa qilayotgan va muzokara olib borayotgan vaqtda qo‘llaniladigan metod hamda usullar majmuasi.
Duayen	- bir mamlakatdagi diplomatik korpusning oqsoqoli
Inkognito	- yashirin nom bilan, mahfiy ravishda.
Ishonch yorlig‘i	- bir shaxsning bir davlatning diplomatik vakili ekanligini tasdiqlovchi hujjat
Koalitsiya	- davlatlar, siyosiy partiyalar va boshqa tashkilotlarning umumiy maqsadlarga erishish uchun tuzgan uyushmasi, bitimi.
Konvensiya	- biron maxsus masala yuzasidan tuzilgan bitim, xalqaro shartnoma.
Liga	- ijtimoiy-siyosiy birlashma, ittifoq, jamiyat, assotsiatsiya.
Memorandum	- diplomatik hujjat, hukumatning biror masala yuzasidan o‘z qarashlari bayon qilingan estalik xati.
PAKT	- xalqaro, ko‘pincha katta siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan shartnoma.
Preambula	- xalqaro ashrtnoma yoki bitimning umumiy kirish qismi.
Reparatsiya	- harbiy harakatlar natijasida mag‘lub davlatning g‘olib davlatga yetkazgan zararni qoplash uchun to‘laydigan tovon.
Status	- huquqiy mavqye yoki holat
Elchixona	- bir davlatning boshqa bir davlat hukumati qoshidagi elchi boshchilik qiladigan diplomatik vakilligi.

**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

Рўйхатга олинди:  
№ БД-5120300-3.11  
2016 йил «9» 01



**ХАЛҚАРО МУНОСАБАТЛАР ВА ДИПЛОМАТИЯ ТАРИХИ**

**ФАН ДАСТУРИ**

Билим соҳаси:	100000-Гуманитар соҳа
Таълим соҳаси:	120000-Гуманитар фанлар
Таълим йўналиши:	5120300-Тарих (мамлакатлар ва минтакалар бўйича)

Тошкент-2016

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2016 йил "22" 01 даги "26"-сонли буйруғининг 2-иловаси билан фан дастури рўйхати тасдиқланган.

Фан дастури Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими йўналишлари бўйича Ўқув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашининг 2016 йил "9" 01 даги 1 - сонли баённомаси билан маъқулланган.

Фан дастури Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университетида ишлаб чиқилди.

#### Тузувчилар:

Холлиев А.Г - ЎзМУ "Жахон тарихи" кафедраси доценти, т. ф. н.

#### Такризчилар:

Раззоқов А.А. ЎзМУ, "Жахон тарихи" кафедраси катта ўқитувчиси  
Турсунова Р.Ю. Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети  
"Ижтимоий-гуманитар фанлари" кафедраси муdiri  
т.ф.н., доцент

Фан дастури Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети Кенгашида кўриб чиқилган ва тавсия қилинган (2015 йил "21" 11 даги "3" сонли баённома).

## **КИРИШ**

Ҳозирги кунда жаҳон сиёсатида рўй бераётган кенг камровли ва мураккаб жараёнларни тўлиқ англаб етиш учун халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихига оид билимларга эга бўлиш зарур. Шу нуқтаи назардан, тақдим этилаётган дастур қадимги даврдан то ҳозирги кунгача халқаро майдонда бўлиб ўтган тарихий воқеаларни батафсил кўриб чиқишга ёрдам беради. Унда ҳорижий давлатларнинг халқаро муносабатлар ва дипломатия соҳасида босиб ўтган кўп асрли йўли акс эттирилган.

### **Ўқув фанининг мақсади ва вазифалари**

Халқаро муносабатлар ва дипломатия фанини ўқитишдан мақсад талабаларни:

– қадимги даврдан то ҳозирги кунгача ҳорижий мамлакатларнинг халқаро муносабатлар ва дипломатия соҳасида босиб ўтган кўп асрлик тарихий йўли;

- халқаро муносабатлар ва дипломатия соҳасида эришилган ижобий натижалар ва юзага келган муаммовий вазиятлар;
- турли тарихий даврларда халқаро муносабатлар ва дипломатиянинг ривожланишига таъсир этган омиллар;х
- халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи фани назарияси;
- жаҳон майдонида фаолият олиб борувчи чет эл давлатларининг сиёсати ва уни амалга оширишда дипломатиянинг аҳамияти тўғрисида тушунчалар билан таништиришдан иборат.

Фанининг вазифаси талабаларни турли халқаро масалаларни таҳлил этишга, мустақил фикрлашга, ҳамда жаҳон тараққиётида халқаро муносабатлар ва дипломатиянинг ўрни ва мавқеини англаб етишга ўрганиш учун тайёрлашдан иборат.

### **Фан бўйича талабаларнинг тасаввур, билим, кўникма ва малакаларига қўйиладиган талаблар**

“Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи” фанини ўрганиш жараёнида бакалавр қуйидагиларни бажара олиши лозим:

- халқаро ва дипломатик жараёнлар тарихининг асосий босқичларини *билиши ва улардан фойдалана олиши*;

- геосиёсий, геониктисодий силжишларнинг янги ҳолатини билиши ва тушуниши;

- икки қутбли тартибининг тугаши, халқаро майдонда ҳарбий-стратегик вазиятнинг ўзгариши, жаҳон сиёсати хусусиятларининг шаклланиши билан боғлиқ масалаларнинг моҳиятини таҳлил қилиш;

- Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихига оид манбалар ва адабиётларни *билиши керак*;

- халқаро муносабатлар ва дипломатия соҳасига оид воқеалар ва жараёнларни тарихий нуқтаи назардан таҳлил этиш ҳамда тўғри хулосалар чиқариш ;

- фан бўйича тўплаган назарий билимларни ўзининг илмий-тадқиқот, услубий ва педагогик фаолиятида қўллаш *малакаларига эга бўлиши керак* .

### **Фаннинг ўқув режадаги бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ва услубий жиҳатдан узвийлиги.**

Талабалар “Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи” фанини самарали ўзлаштиришлари учун “Жаҳон тарихи” (даврлар бўйича), “Геосиёсат асослари”, “Жаҳон цивилизациялари тарихи” ва бошқа фанлардан ҳам етарлича билимларга эга бўлишлари лозим.

Асосий қисмда (маъруза) фанни мавзулари мантикий кетма-кетликда келтирилади. Ҳар бир мавзунинг моҳияти асосий тушунчалар ва тезислар орқали очиқ берилди. Бунда мавзу бўйича талабаларга ДТС асосида етказилиши зарур бўлган билим ва кўникмалар тўла камраб олиниши керак.

Асосий қисм сифатига қўйилдиган талаб мавзуларнинг долзарблиги, уларнинг иш берувчилар талаблари эҳтиёжларига мослиги, мамлакатимизда бўлаётган ижтимоий-сиёсий ва демократик ўзгаришлар, иқтисодий эркинлаштириш, иқтисодий-ҳуқуқий ва бошқа соҳалардаги ислохотларнинг устувор масалаларини камраб олиши ҳамда фаннинг сўнгги ютуқлари эътиборга олиниши тавсия этилади.

### **Фаннинг илм-фан ва ишлаб чиқаришдаги ўрни**

Жаҳон халқларининг тарихий ривожланишини босқичма-босқич тарихийлик, илмийлик, холисона ёндашув негизида ўрганиш.

Семинар машғулотлари бўйича мавзулар режаси ва адабиётлар рўйхати талабаларга тақдим этилади ва талаба мустақил тайёрланиб келиб мунозара тарзида ўз билимини намойиш этади.

Тақдим этилаётган фаннинг долзарб масалалари бўйича мавзулар ва адабиётлар рўйхати талабаларга тақдим этилади. Талаба, ўз навбатида мустақил тайёрланиб маъруза ва реферат шаклида ўз билимини намойиш этади.

### **Фанни ўқитишда замонавий ахборот ва педагогик технологиялар**

Талабаларнинг фанни ўзлаштиришлари учун ўқитишнинг илғор ва замонавий усулларидан фойдаланиш, янги ахборот-педагогик технологияларни тадбиқ қилиш муҳим аҳамиятга эгадир. Фанни ўзлаштиришда дарслик, ўқув ва услубий қўлланмалар, маъруза матнлари, тарқатма материаллар, электрон материаллар, кўргазмали қуроллардан

фойдаланилади. Маъруза ва семинар машғулотларда мос равишда илғор педагогик технологиялардан фойдаланилади.

## **АСОСИЙ ҚИСМ**

### **Фаннинг назарий машғулотлари мазмуни**

#### **Қадимги Шарқда халқаро муносабатлар ва дипломатия**

Қадимги Месопотамияда халқаро муносабатлар ва дипломатия. Шаҳар давлатлар (“ном”лар) ўртасидаги муносабатлар “Киш подшоҳи”, Лагеш ва Умма ўртасидаги рақобат. Эламнинг ташқи сиёсати. Саргон ва унинг ташқи сиёсати. Дипломатик алоқаларнинг шакллари. Қадимги Мисрда халқаро муносабатлар ва дипломатия. Гиксосларнинг ҳукмронлиги. XVII сулола фиръавинларнинг ташқи сиёсати. Ал-Амарна архиви. Қадимги Мисрда дипломатик алоқаларнинг шакллари. Рамзес II ва Хаттусили III ўртасида тузилган шартнома. Қадимги Хетт подшолигининг ташқи сиёсати. Хетт подшолигида дипломатик алоқаларнинг шакллари. Милоддан аввалги I минг йилликда Яқин Шарқда халқаро кураш. Оссуриянинг юксалиши. Оссурияда дипломатик алоқаларнинг шакллари. Оссурия дипломатиясининг асосий йўналишлари. Қадимги Ҳиндистонда халқаро муносабатлар ва дипломатия. “Артхашастра”. Маурьялар сулоласи даврида Ҳиндистонда халқаро муносабатлар. Қадимги Хитойда халқаро муносабатлар ва дипломатия. Чжоу давлатининг ташқи сиёсати. Дипломатик алоқалар назарияси ва шакллари. Хань давлатининг ташқи сиёсати. У-ди, Чжань Цань элчилиги. Бан Чао фаолияти.

#### **Қадимги Юнонистонда халқаро муносабатлар ва дипломатия**

Қадимги Юнонистонда халқаро алоқалар шакллари ва халқаро ҳуқуқ кўринишлари. Проксеня, симмахия, амфиктиония. Жамоалар ва полислар ўртасидаги муносабатлар. Крит давлати ва Ахейя подшолиги давридаги халқаро муносабатлар. Юнонистон-Эрон муносабатлари. Делос симмахиясининг ташқи топши. Спарта ва Афина ўртасидаги рақобат. Юнонистонда Спарта гегемониясининг ўрнатилиши. Эрон ва Спарта ўртасидаги тўқнашув. “Анталкид” сулҳи. Фиванинг юксалиши. Филипп II даврида Македониянинг кучайиши. Коринф конгресси. Александр Македонскийнинг (Искандар) ташқи сиёсати ва дипломатияси. Эллинизм даврида халқаро муносабатлар ва дипломатия.

#### **Қадимги Римда халқаро муносабатлар ва дипломатия**

Қадимги Римда халқаро алоқаларнинг шакллари ва дипломатия идоралари. Фециаллар коллегияси. Рекуператорлар. Рим ҳуқуқида халқаро масалалар. “Халқлар ҳуқуқи”. Қадимги Римда элчилик масалалари. Республика даврида Римнинг ташқи сиёсати. Рим-Италия

конфедерациясининг барпо этилиши. Пуни урушлари даврида Римнинг ташқи сиёсати ва дипломатияси. Македония урушлари. Шарқий Ўрта ер денгизида янги халқаро вазиятнинг юзага келиши ва Римнинг Шарқдаги ташқи сиёсати. Римнинг Шимолий Африкадаги сиёсати. Юлий Цезарь ташқи сиёсати ва дипломатияси. Империя даврида Римнинг ташқи сиёсати. Каппадокия, Мавритания, Британия, Фракия, Дания, Арабистон, Арманистон, Месопотамия ва Оссуриянинг забт этилиши. Марк Аврелий даврида Римнинг ташқи сиёсати. Маркамон урушлари. Рим империяси ва варварлар. Рим империясининг бўлиниб кетиши. Фарбий Рим империясининг бўлиниб кетиши.

### **Ўрта асрларда Европада халқаро муносабатлар ва дипломатия**

Византия ва “варварлар” давлатлари Византияда халқаро ва дипломатик алоқалар шакллари. Юстиниан I-нинг ташқи сиёсати ва дипломатияси. Византияда дипломатик хизматнинг ташкил қилиниши. Рим папалари ва франклар. Буюк Карл давлатининг ташқи сиёсати ва дипломатияси. Қадимги Рус давлати ташқи сиёсати ва дипломатиясининг асосий йўналишлари. Рус давлати ва Византия. Буюк Карл империясининг парчаланиши даврида халқаро муносабатлар ва дипломатия. Фарбий Европада сиёсий тарқоқлик ва халқаро муносабатлар. Шахсий уруш ҳуқуқи. “Черковларнинг бўлиниши”. Салб юришлари даврида дипломатия. XIV-XV асрларда Европада халқаро муносабатлар. Европа ва Шарқ мамлакатлари. Юз йиллик уруш даврида халқаро муносабатлар ва дипломатия. Халқаро муносабатлар ва дипломатиянинг ривожланишига Италия шаҳар – давлатларининг таъсири (Венеция, Флоренция, Генуя ва бошқа). Черков ва халқаро муносабатлари. Халқаро ҳуқуқнинг шаклланиши. Халқаро муносабатларнинг асосий тамойиллари. XVI асрда халқаро вазият.

### **Ўрта асрларда Шарқ мамлакатларининг халқаро муносабатлари ва дипломатияси**

Хитойда халқаро муносабатлар ва дипломатия. Суй сулоласининг ташқи сиёсати. Тан империясининг ташқи сиёсати. Хитой ва Турк хоконлиги. Япония. Корея, Вьетнам билан муносабатлар. Сун империяси даврида Хитойнинг ташқи сиёсати ва дипломатияси. Хитой ва мўғуллар. Мин сулоласи даврида Хитойнинг халқаро аҳволи. Хитойнинг Рус давлати билан муносабатлари. Японияда халқаро муносабатлар ва дипломатия. Ямато кабиласи бошчилигида умумкабилавий иттифокнинг вужудга келиши. Хитой ва Корея билан алоқалар. Япония ва мўғуллар. Европаликларнинг Японияга кириб кела бошлаши. Тоётоми Хидэёси ташқи сиёсати. Токугава сёгунларининг ташқи сиёсати. Ажнабийларга нисбатан муносабат. Япониянинг ташқи дунёдан сунъий яққаланиши. Ягона араб давлатининг шаклланиши ва халқаро муносабатлар. Муҳаммад алайҳиссаломнинг ворислари даврида арабларнинг ташқи сиёсати. Уммавийлар даврида



арабларнинг ташқи сиёсати. Аббосийлар даврида арабларнинг ташқи сиёсати. Араблар дипломатияси ва унга оид манбалар. Сосонийлар даврида Эроннинг ташқи сиёсати ва дипломатияси. Фотимийлар ва мамлуклар хукмронлиги даврида Миср ва Суриянинг халқаро муносабатлари ва дипломатияси. XV-XVI асрларда Эроннинг халқаро муносабатлари ва дипломатияси. Сафавийлар сулоласининг ташқи сиёсати. Россия ва Англия билан алоқалар. Усмонийлар империясининг халқаро муносабатлари ва дипломатияси. Усмоний туркларнинг Кичик Осиёда ва Болкон ярим оролидаги истилолари. Боязид ва Амир Темур. XV-XVI асрларда Усмонийлар давлатининг ташқи сиёсати. Европа давлатлари билан муносабатлар. Россия билан муносабатлар. Туркия-Эрон муносабатлари.

### **XVII-XVIII асрларда халқаро муносабатлар ва дипломатия**

Илк янги даврда халқаро муносабатлар ва дипломатиянинг тавсифи. Халқаро муносабатларга таъсир этувчи омиллар. Ташқи сиёсат тамойиллари ва мезонлари. Халқаро тўқнашувлар. Ўттиз йиллик уруш ва Вестфалия халқаро тизимнинг барпо этилиши. Европада Франциянинг етакчилик қила бошлаши. Людовик XIV ташқи сиёсати ва дипломатияси. “Испан мероси” учун уруши йилларида халқаро муносабатлар ва дипломатия. Шимолий ва Шарқий Европада халқаро вазият. Шимолий уруш ва Россиянинг кучайиши. Австрия-Пруссия рақобати. “Австрия мероси” учун уруш и йилларида халқаро муносабатлар ва дипломатия. Пруссиянинг буюк давлатга айланиши. Фридрих II-нинг ташқи сиёсати ва дипломатияси. Етти йиллик уруш. Мустамлакачилик майдонидаги кураш. Халқаро муносабатларда “Шарқий” ва “поляк” масалалари. АҚШ-нинг ташқи топши ва халқаро муносабатлар.

### **XIX – XX аср бошида халқаро муносабатлар ва дипломатия**

Францияда инқилоб ва халқаро муносабатлар. Францияга қарши дастлабки коалиция (иттифок). Консуллик ва Биринчи империя даврида Франциянинг ташқи сиёсати ва дипломатияси. Наполеон Бонапартнинг урушлари ва халқаро вазият. Францияга қарши Европа давлатларининг коалициялари. Наполеон Бонапартнинг тор-мор этилиши. Вена конгресси ва халқаро муносабатларда янги тартибнинг юзага келиши. “Вена тизимининг” емирилиши. XIX аср 30-40 йиллардаги инқилоблар ва Европада халқаро вазият. “Шарқий масаланинг” кескинлашуви. Крим уруши, Италия ва Германияда бирлашиш жараёнлари ва халқаро вазият. Отто фон Бисмарк дипломатияси. Франция-Пруссия уруши йилларида халқаро муносабатлар ва дипломатия.. АҚШ-да фуқаролар уруши ва халқаро муносабатлар. XIX асрнинг охириги чорагида халқаро муносабатлар ва дипломатия. Уруш ваҳималари. Россия-Туркия уруши (1877-78 йй.) ва Берлин конгресси. Европада ҳарбий-сиёсий блокларнинг (гурӯҳларнинг) ташқи этилиши даврида халқаро муносабатлар ва дипломатия. Мустамлакалар учун курашнинг кескинлашуви. Болкон урушлари ва дипломатик кураш. Биринчи

жаҳон уруши арафасида халқаро муносабатлар ва дипломатия. Биринчи жаҳон уруши йилларида халқаро муносабатлар ва дипломатия.

### **Энг янги даврда халқаро муносабатлар ва дипломатия**

Биринчи жаҳон уруши натижалари. Кучлар нисбатининг ўзгариши. Халқаро муносабатлар Версаль-Вашингтон тизимининг яратилиши. Париж тинчлик конференцияси ва унинг қарорлари. Миллатлар Лигаси. Германия ва унинг иттифоқчилари масаласи. Вашингтон конференцияси ва Узоқ Шарқдаги халқаро муносабатлар. Совет Россиясининг халқаро майдонга чиқиши. Генуя конференцияси. 1929-1933 йиллардаги жаҳон иқтисодий инкирози шароитларида халқаро муносабатлар ва дипломатия. Версаль-Вашингтон тартибларининг аста-секин емирилиши. Лондон конференцияси. Женева конференцияси. Германия ҳарбий салоҳиятининг тикланиши. Фашизм ва халқаро муносабатлар. Версаль тизимининг йўқ қилиниши. Япониянинг Узоқ Шарқдаги сиёсати “Берлин-Рим-Токио учбурчаги”. Мюнхен битими. Уруш ўчоғларининг юзага келиши. Иккинчи жаҳон уруши арафасида халқаро муносабатлар ва дипломатия. Хужум қилмаслик тўғрисидаги совет-герман шартномаси ва махфий қўшимча протокол (1939 й.). Иккинчи жаҳон уруши. Иккинчи жаҳон уруши йилларида халқаро муносабатлар ва дипломатия. Техрон, Крим, Потсдам конференцияларида дипломатик муносабатлар. БМТ-нинг ташкил этилиши. Иккинчи жаҳон уруши якунлари. Париж тинчлик конференцияси. Икки кутубли тизимнинг юзага келиши. НАТО ва Варшава шартномаси ташкилоти ўртасидаги ракобат. XX асрнинг 50-80-йилларнинг биринчи ярмида халқаро муносабатлар ва дипломатия. 80-йилларнинг иккинчи ярми – 90-йилларнинг бошида халқаро муносабатлар характерида туб бурилиш. АҚШ ва СССР ўртасидаги муносабатларнинг яхшиланиши. Германиянинг бирлашиши ва дипломатия. СССР-нинг парчаланиши ва МДХ-нинг ташкил топиши. Марказий ва Жануби-Шарқий Европа мамлакатларида янги тартиботларнинг ўрнатилиши. 90-йилларда дунёдаги геосиёсий вазиятнинг ўзгариши. XXI асрнинг бошида халқаро муносабатлар ва дипломатия.

### **Семинар машғулотларини ташкил этиш бўйича тавсиялар**

Семинар машғулотларни ташкил этиш бўйича кафедра профессор-ўқитувчилари томонидан кўрсатма ва тавсиялар ишлаб чиқилади. Талабалар кўрсатма ва тавсиялар асосида маъруза машғулотларида олган билим ва қўникмаларини мустақил тайёрланиб мустаҳкамлайдилар ҳамда янада бойитадилар. Семинар машғулотларда талабалар жамоа бўлиб ва мустақил ишлайди. Мустақил ишлашда дарсликларни, ўқув қўлланмаларни, услубий қўлланмаларни, тарқатма ва қўргизмаларни ашёларни аҳамияти каттадир

**Семинар машғулотлари учун тахминий тавсия этиладиган мавзулар:**

- Қадимги Шарқда халқаро муносабатлар ва дипломатия.

- Қадимги Юнонистонда ва Римда халқаро муносабатлар ва дипломатия.
- Ҷрта асрларда Европада халқаро муносабатлар ва дипломатия.
- Ҷрта асрларда Шарқ мамлакатларининг халқаро муносабатлари ва дипломатияси.
- XVII-XVIII асрларда халқаро муносабатлар ва дипломатия.
- XIX-XX аср бошида халқаро муносабатлар ва дипломатия.
- 1918-1945 йилларда халқаро муносабатлар ва дипломатия.
- 1945-2000 йилларда халқаро муносабатлар ва дипломатия.

**Изоҳ:** Семинар машғулоти бўйича мавзулар режаси ва адабиётлар рўйхати талабаларга тақдим этилади ва талаба мустақил тайёрланиб келиб мунозара тарзида ўз билимини намойиш этади.

### **Мустақил таълимни шакли ва мазмуни**

“Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи” фанини ўрганувчи талабалар аудиторияда олган назарий билимларини мустаҳкамлаш ва амалий масалаларни ечишда кўникма ҳосил қилиш учун мустақил таълим тизимига асосланиб, кафедра ўқитувчилари раҳбарлигида, мустақил иш бажарадилар. Тақдим этилаётган фаннинг долзарб масалалари бўйича мавзулар ва адабиётлар рўйхати талабаларга тақдим этилади. Талабалар, ўз навбатида, мустақил тайёрланиб ўз билимини намойиш этади. Бунда улар қўшимча адабиётларни ўрганиб ҳамда интернет сайтларидан фойдаланиб рефератлар, илмий маърузалар, кўргазмали кўроллар ва слайдлар тайёрлайдилар.

- дарслик ва ўқув қўлланмалари бўйича фан боблари ва мавзуларини ўрганиш;
- таркатма материаллар бўйича маъруза қисмини ўзлаштириш;
- тарихий материаллар билан ишлаш, уларни ҳар томонлама таҳлил қилиш;
- махсус адабиётлар бўйича фан бўлимлари ёки мавзулари устида ишлаш;
- янги педагогик технологияларни ўрганиш;
- ўқув-илмий-тадқиқот ишларни бажариш билан боғлиқ бўлган фанлар бўлимлари ва мавзуларни чуқур ўрганиш;
- фаол ва муаммоли ўқитиш услубидан фойдаланадиган машғулотларга тайёрланиш.

### **Тавсия этилаётган мустақил ишларнинг мавзулари**

1. Европада ҳавфсизликни таъминлаш масаласи (1945-1990 йй.).
2. Яқин ва Ҷрта Шарқда халқаро муносабатлар (1945-1990 йй.).
3. Етакчи давлатларнинг Узок Шарқдаги сиёсати (1918-1939 йй.).
4. 1854-1918 йилларда Япониянинг ташқи сиёсати.
5. Фашизм ва Европада халқаро муносабатлар.

6. Афгон масаласи халқаро муносабатлар тизимида.
  7. Фридрих II-нинг ташқи сиёсати ва дипломатияси (1740-1786 йй.).
  8. XVIII асрда Англиянинг ташқи сиёсати.
  9. Европада дипломатик хизматнинг шаклланиши.
  10. Муқаддас Рим империяси ва Папалик.
  11. Флоренция ва Венеция халқаро муносабатлар тизимида (XII-XV асрлар).
  12. XVIII асрда Россия империясининг ташқи сиёсати.
  13. Араб халифалиги ва Европа.
  14. Ўрта асрларда Хитойда халқаро муносабатлар ва дипломатия.
  15. Балқон ярим ороли халқаро муносабатлар тизимида (XVII-XIX асрлар).
  16. XVII-XVIII асрларда Англия-Голландия рақобати.
  17. Савдо компаниялари ва халқаро муносабатлар (XVII-XIX).
  18. Европа давлатлари ва Усмонийлар империяси (XVI-XVII асрлар).
  19. Габсбурглар монархиясининг ташқи сиёсати (XVIII-XIX).
  20. XVII асрда Испаниянинг Европадаги устиворлиги.
  21. Ўрта асрларда Ҳиндистонда халқаро муносабатлар ва дипломатия.
  22. Қадимги Юнонистонда Афина-Спарта рақобати.
  23. Филипп II ташқи сиёсати ва дипломатияси. Коринф конгресси (338-337 мил. авв. йиллар).
  24. Республика даврида Рим дипломатияси ва ташқи сиёсати.
  25. Замонавий халқаро муносабатлар тизимида БМТнинг тутган ўрни.
  26. XIX асрнинг иккинчи ярмида Германиянинг ташқи сиёсати.
  27. XX асрнинг иккинчи ярмида мустамлакачилик тузумининг кулаши.
  28. XIX аср охири - XX аср бошида Италиянинг ташқи сиёсати.
  29. Усмонийлар империяси ва XIX асрда инглиз-турк муносабатлари.
  30. Эрон ва Афғонистонда инглиз-рус рақобати.
- Изох:** Талаба мустақил ишни тайёрлашда фаннинг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги шакллардан фойдаланиш тавсия этилади.

### Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

#### Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримов асарлари

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, тараққиёт шартлари ва кафолатлари. – Т., 1997.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., 1998.
3. Каримов И.А. Жаҳон молиявий – иқтисодий инкирози ва Ўзбекистон шаронтида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. – Т., 2009.

### Асосий адабиётлар

4. Богатуров А.Д., Аверков В.В. История международных отношений. 1945-2008. – М., 2010.
5. Дубинин Ю.А., Мартынов Б.Ю., Юрьева Т.В. История международных отношений (1975-1991). – М., Росспэк, 2006.
6. История международных отношений. Основные этапы с древности до наших дней. – М., Логос, 2007. / под ред. Г.В.Каменской, О.А.Колобова, Э.Г.Соловьева.
7. Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи / А.Холлиев таҳрири остида. – Т., 2009.

### Қўшимча адабиётлар

8. Алексеев В.М. Тридцатилетняя война. Л. 1961.
9. Амиров В.Б., Михеев В.В., Потапов М.А. Россия-Китай и США-Китай: отношения нового типа. – М., 2010.
10. Бажанов Е.П., Бажанова Н.Е. Многополюсный мир. – М., 2010.
11. Басовская Н.И. Столетняя война. 1337-1453. М. 1985.
12. Белецкий В.Н. За столом переговоров: обсуждение германских дел на послевоенных международных совещаниях и встречах. М. 1979.
13. Бережков В.М. Страницы дипломатической истории. 4-ое издание. М. 1987.
14. Бисмарк О. Мысли и воспоминания. М., 1940-1941 гг. т. 1-2.
15. Богатуров А.Д. Великие державы на Тихом океане. История и теория международных отношений в Восточной Азии после второй мировой войны (1945-1995). – М., 1997.
16. Бокщанин А.Г. История международных отношений и дипломатии в древнем мире. М. 1948.
17. Будакова В.П. Готы в эпоху великого переселения народов. М. 1990.
18. Василенко И.А. Политическая глобалистика. М., 2003.
19. Герни О.Р. Хетты. М. 1987.
20. Гофуров Б.Г. Цибукидис Д.И. Александр Македонский и Восток. М. 1980.
21. Григорий Турский. История франков. М. 1987.
22. Гроций Г. О праве войны и мира. М. 1956.
23. Дебидур А. Дипломатическая история Европы. От Венского до Берлинского конгресса. (1814-1878 гг.). М. 1947.
24. Драгомиров М. Австро-прусская война. 1866 год. – М.: Вече, 2011.
25. Дулина Н.А. Османская империя в международных отношениях (30-40-года. XIX век). М., 1980.
26. Жилин П.А. Гибель Наполеоновской армии в России. М. 1974.
27. Жогов П.В. Дипломатия Германии и Австро-Венгрии и первая Балканская война. 1912-1913. М., 1969.
28. Заборов М.А. Крестоносцы на Востоке. М. 1980.

29. Загорский А.В. Хельсинский процесс: Переговоры в рамках Совещания по безопасности и сотрудничеству в Европе 1972-1991 гг. М., 2005.
30. Законы Ману. М., 1960.
31. Земсков И.Н. Дипломатическая история второго фронта в Европе. М. 1982.
32. Ивонин Ю.Е. У истоков Европейской дипломатии нового времени. Минск. 1984.
33. Илюхина Р.М. Лига наций. 1919-1934 гг. М. 1982.
34. История второй мировой войны, 1939-1945 гг. в 12 томах. М. 1973-1982.
35. История дипломатии. М. 1959-63 гг. Т. I; II.
36. История новейшего времени стран Европы и Америки. 1945-2000. Под ред. У.Ф. Язькова. М., 2002.
37. История Первой Мировой войны. 1914-1918 года. В 4-х т. // под. ред. Ростунова И.И. М. 1975.
38. Кораблев И.Ш. Ганнибал. Изд. II. М. 1981.
39. Котрелл Л. Во времена фараонов. М., 1982.
40. Курбатов Г.Л. История Византии. М. 1984.
41. Лебедева М.М. Мировая политика М., 2003.
42. Ллойд Джордж Д. Правда о мирных договорах. Пер. с англ. М. 1957. т 1-2.
43. Лозинский С.Г. История Палества. Изд. 3. М. 1986.
44. Любимов Н.Н., Эрлих А.Н. Генуэзская конференция: воспоминания участников. М. 1963.
45. Медведев И.П. Очерки Византийской дипломатики. Л. 1988.
46. Межгосударственные отношения и дипломатия на Древнем Востоке. М. 1987.
47. Международные отношения на Ближнем и Среднем Востоке после второй мировой войны. 40-50-е года. Сб. статей. М. 1974.
48. Международные отношения после второй мировой войны. Т. 1-3. М. 1962-1965.
49. Мир в начале 80-х: факты и цифры по актуальным проблемам. Прага. 1982.
50. Мировая политика после 1945 года. Книга 2, М., 2000.
51. Мольтке Г.К.Б. История германо-французской войны 1870-1871 гг. М., 1937.
52. Мосли Л. Утраченное время: как началась вторая мировая война: пер. с англ. М. 1972.
53. Нарочницкий А.Л. Международные отношения Европейских государств с 1794-по 1830 г. Стеногр. Лекций. М., 1946.
54. Протопопов А.С., Козьменко В.М., Елманова Н.С. История международных отношений и внешней политики России 1648-2000. М., 2003.
55. Робер Де Клари. Завоевания Константинополя. М. 1986.

56. Ротштейн Ф.А. Международные отношения в конце XIX века. М., -Л., 1960.
57. Рошин А.А. Послевоенное урегулирование в Европе. 1984.
58. С.Лавренов, И.Попов. Советский Союз в локальных войнах и конфликтах. М., 2003.
59. Сиполс В.Я. Дипломатическая борьба накануне второй мировой войны. М. 1971.
60. Сказкин С.Д. История международных отношений и дипломатии в средние века. М. 1948
61. Современные международные отношения. М., 2000.
62. Созаев Э., Махов С. Борьба за господство на море. Аугсбургская лига.- СПб., 2008.
63. Созаев Э., Махов С. Схватка двух львов. Англо-голландские войны XVII века.- М., 2011.
64. Соколов О.В. Аустерлиц. Наполеон, Россия и Европа, 1799-1805 гг. Том 2.- М., 2006.
65. Стародубов В.П. Супердержавы XX века. Стратегическое противоборство.- М., 2001.
66. Тарле Е.В. Крымская война. соч. в 12 т. М., 1957-1962 т. 8-9.
67. Тарле Е.В. Очерки истории колониальной политики западноевропейских государств. (конец XV нач XIX века).
68. Тэйлор А.Дж.П. Борьба за господство в Европе. 1848-1918 М., 1958.
69. Утченко С.Л. Древний Рим. События, люди, идеи. М. 1969.
70. Хаггер Н. Синдикат. История мирового правительства. -М., 2009.
71. Цыганков П.А. Теория международных отношений. М., 2003
72. Эйзенхауэр Д. Крестовый поход в Европу. Воен. Мемуары: пер. с англ. М. 1980.
73. Эрио Э. Из прошлого. Между двумя войнами, 1914-1936: пер. с фр. М. 1958.
74. Язьков У.Ф. История стран Европы и Америки в новейшее время 1918-1945. М., 2000.
75. Язькова А.А. Малая Антанта в Европейской политике. 1918-1925 гг. М. 1974.
76. Adams J.T. Empire on the Seven Seas. The British Empire 1784-1939 . Lnd. : Charles Scribner's Sons, 1940.
77. Aldrich Richard J. British intelligence and the Anglo-American 'Special Relations' during the Cold War. Review of International Studies, 1998.
78. Amitai-Preiss Reuven. Mongols and Mamluks: The Mamluk-Ilkhanid War, 1260-1281. Cambridge University Press, 1995.
79. Beem Charles. The Foreign Relations of Elizabeth I . Palgrave Macmillan, 2011.

80. Black J. *A Military History of Britain From 1775 to the Present* . London: Greenwood Publishing Group, 2006.
81. Black J. *From Louis XIV to Napoleon The Fate of a Great Power* . London: UCL Press, 2001.
82. Black J. *Trade, Empire and British Foreign Policy, 1689-1815. Politics of a Commercial State* . London: Routledge, 2007.
